16-13	Talaba o‘tilgan materialni umuman biladi. Savollarga aniq va to‘liq javob berishga harakat qiladi, lekin ayrim jiddiy xatoliklarga yo‘l ko‘yadi, qator faktlarni shunchaki yodlab olganligi seziladi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni umuman xal qiladi, ba’zi jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.
12-11	Talaba o‘tilgan materialni umuman biladi, aniq javob berishga harakat qiladi, lekin javobda jiddiy kamchiliklar bor, mulohaza yuritishda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi, faktlarni asosan shunchaki yodlaganligi seziladi, ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi va masalani xal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni

	qiynalib bo'lsada hal qiladi, lekin jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadi.
10-7	Talaba o'tilgan materialni qisman biladi. Javobda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, faktlarni baholab bera olmaydi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni xal qilishda qiynaladi yoki xal qila olmaydi.
6-5	Talaba o'tilgan material haqida qisman tasavvurga ega, material yaxshi o'zlashtirilmagan, bilgan narsasini ham faqat yodlaganligi sezilib turadi, faktlarga baho bera olmaydi, amaliy topshiriqlarni deyarli hal qila olmaydi.
4-2	Talaba o'tilgan material xaqida juda kam tasavvurga ega, ayrim faktlarni uzuk-yuluq bilishi mumkin, amaliy topshiriqlarni xal qila olmaydi, jiddiy qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.
1	Talaba material bo'yicha deyarli hech narsa bilmaydi, juda kam tasavvurga ega yoki umuman tasavvurga ega emas.

Asosiy o'rganilayotgan til (Arab tili) bo'yicha bilim va ko'nikmalar baholananganda, talaba quyidagi talablarga javob berishi kerak:

86-100 ball "a'lo"	
O'qish:	ifodali va ravon o'qiydi
Tarjima qilish:	to'g'ri tarjima qiladi
Tushunish:	eshitganini to'liq tushunadi
Gapirish:	lug'at boyligi mavjud, ravon va grammatikaning qoidalariga rioya qilib gapiradi
Qo'llash:	leksik va grammatik bilimlarni to'la va to'g'ri qo'llaydi, ijodiy yondashadi va mantiqan mushohada qiladi
Ishlash:	o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda mustaqil ishlaydi
71-85 ball "yaxshi"	
O'qish:	o'qiydi, biroq talaffuzida xato qiladi
Tarjima qilish:	juz'iy xato bilan tarjima qiladi
Tushunish:	eshitganini tushunadi
Gapirish:	lug'ati o'tilgan mavzular doirasida, juz'iy xatolar bilan gapiradi, ayrim stilistik xatolarga qilishi mumkin
Qo'llash:	leksik va grammatik bilimlarini qo'llaydi, lekin to'laligicha ijodiy yondashmaydi va mushohada qilmaydi
Ishlash:	mustaqil fikrlaydi, lekin ba'zi talablarga javob bera olmaydi
55-70 ball "qoniqarli"	
O'qish:	o'rta tezlikda o'qiydi, talaffuzda bir qator xatolar qiladi
Tarjima qilish:	matnning umumiy ma'nosini chiqarib berishi mumkin
Tushunish:	eshitganini qisman tushunadi
Gapirish:	xatolar bilan gapiradi, fikrini mantiqan bir-biriga ulolmay, ifodalashda qiynaladi
Qo'llash:	leksik va grammatik bilimlarni yetarlicha qo'llay olmaydi
Ishlash:	mustaqil ishlay olmaydi
0-54 ball "qoniqarsiz"	
O'qish:	har bir so'z talaffuzida xato qiladi yoki umuman o'qiy olmaydi
Tarjima qilish:	tarjimasi xato yoki tarjima qila olmaydi
Tushunish:	eshitganini tushunmaydi
Gapirish:	gapira olmaydi
Qo'llash:	dars jarayonida faoliyat va tashabbus ko'rsatmaydi, fanga qiziqishi yo'q

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Ibroximov N.I., YUsupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997. 1-jild
2. Ibroximov N.I., YUsupov M. Arab tili grammatikasi. T., 2004. 2-jild
3. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
4. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
5. Kovtonyuk V.V. «Arabskiy yazık. Posobie po rechevoy praktike». M. 2002
6. Lebedev V.G. CHureva L.S. «Prakticheskiy kurs arabskogo literaturnogo yazıka». I-Ichaste. M.2005
7. Talabov E.T. Arab tili darsligi. T., 1994.
8. Xalidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yazika» T., 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar

24. Ashixmina N.P., Fateeva I.G., Djamalova S.V. Sbornik kontrolnykh rabot i testovyx zadaniy po arabskomu yazıku dlya studentov I-II kursov TashGIV. T., 2002.
25. Ashixmina N.P., Alimdjanova Z.N. Al Biruni –prosvetitel Vostoka TashGIV. T., 2003.
26. Gabuchan G.M., Suxina T.I., Fomichyov V.D. Leksicheskiy minimum dlya nachalnogo etapa izucheniya arabskogo yazıka. Pod redaksiyey A.V. Germanovicha. 1997.
27. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii. M., 2001.
28. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. T., 1994.
29. Ibrohimov N., Xasanov B., Musaev O., Ibrohimov B. O'zbekcha –arabcha lug'at عربى-قاموس أوزبىكى. T., 2000.
30. Lebedev V.V., Bochkarev G.I. CHitaem arabskie tekсты. Uchebnoe posobie v pyati chastyax. M., 2002.
31. Musaev.O. Arab tili asosiy qoidalari tizimi. ToshDSHI. T., 2000.
32. Nosirova M.A. O'rta asr arab nahvidan namunalar ToshDSHI. T., 2004.
10. Nosirova M.A. Mahmud Zamaxshariyning Al-Unmuzaj fi-n-nahv risolasi ToshDSHI. T., 2005.
11. Orifxo'jaev N.M. Arab tili darslarida o'quv o'yinlarini tatbiq etish bo'yicha tavsiya va namunalar. ToshDSHI. T., 2004.
12. Solih Ahmad Baxshi نصوص مختارة ToshDSHI. T., 2002.
13. Talabov E. Arabcha-o'zbekcha-ruscha so'zlashgich. T., 1994.
14. Usmonova N.X. Arab tilidan o'quv qo'llanma (3-kurslar uchun) ToshDSHI. T., 2002.
15. Fateeva I.G., SHokirova Z. Arab matbuot tili ustida ishlash. T., 2004.
16. Qodirov T.SH va Qodirova M.T. «Arabcha- o'zbekcha-ruscha tematik lug'at. ToshDSHI. T. 2006.
17. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.
18. مصر. "ملخص قواعد اللغة العربية" فؤاد نعمة.
19. عباس حسن –النحو الوافى
20. محمد فاخر –توضيح النحو
21. 1964. النحو الواضح في قواعد اللغة العربية لدارس المرحلة الاولى، دار المعارف بمصر.
22. Xolidov B.Z. Arab tili darsligi. T., 2007.

Internet saytlari:

1. <http://syr.ivka.rsuh.ru/article.html?idq1903348>
2. <http://islam-book.info/arabskiy-yazik/knigi-na-arabskom-3>
3. <http://www.ar-ru.ru/kutub/big-books/65-uchebnik-kuzmin>

4. <http://www.ar-ru.ru/kutub/big-books/64-kovalev-sharbatov-uchebnik>
5. http://www.ziyouz.uz/index.php?option=com_phocadownload&view=category&id=78:2012
6. <http://bookre.org/reader?file=809912>
7. <http://www.ar-ru.ru/baramij/dictionaries/95-baranov-30-mh>
8. <http://www.ar-ru.ru/kutub/light-books/62-sarfologija>
9. <http://www.ar-ru.ru/component/content/article/85-uncategorised/101-frolova1>
10. <http://ar-ru.ru/baramij/49-qawamis/73-elektrony-slovar-baranova>

ASOSIY O'RGANILAYOTGAN TIL" (ARAB TILI) FANINING TAYANCH KONSPEKTI

TUZUVCHI: NORBOYEV ZAFAR ABSUMUMINOVICH

1-MA'RUZA: ARAB TILI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

REJA:

1. Arab tilining geneologik tasnifidagi o'rni.
2. Arab tilining tipologik tasnifidagi o'rni.
3. Arab tilining ilmiy-tarixiy ahamiyati.
4. Hozirgi zamon arab adabiy tili va lahjalari.

Arab tili Somiy-Homiy tillar oilasining somiy tarmog'iga tegishlidir. Somiy tillar tarmog'i juda katta tarmoq hisoblanadi va olimlar tomonidan yahshi o'rganilgan. Qadimgi somiy tilida ashshurlar, ibriylar, finikiylar, oromeylar, va arablar gaplashganlar.

Somiy tillar tarmog'i 4 guruhga bo'linar ekan, arab tili Janubiy Markaziy yoki Arabiston tili guruhiga kiradi. Qadimgi darajasini - qadimgi arab tili, o'rta va yangi darajasini - klassik va zamonaviy arab tili va ularning shevalari tashkil etadi.

Barcha somiy tillar tarmog'iga o'xshash umumiylik xosdir. Bu umumiylik olimlar tomonidan qiyosiy-tarixiy metod asosida aniqlanib quyidagi omillarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Fonetik umumiylik:

- a) Barcha somiy tillarda unlilarning cho'ziq va qisqa ko'rinishlari mavjud.
- b) Undoshlarning uchlik guruhi mavjud.
- v) So'z hech qachon unli tovushdan boshlanmaydi.
- g) Shuningdek ko'sh undoshli boshlanish ham so'zlarda uchramaydi.

2. Leksik umumiylik. Olimlar barcha somiy tillar uchun yuzlab umumiy so'z yoki o'zakni aniqladilar:

3. Morfologik umumiylik:

- a) Barcha somiy tillarda umumiy xususiyat -o'zakning undosh harflardan iborat bo'lishidir. Odatda o'zak uch undoshdan va kamroq besh undoshdan iborat bo'ladi.
- b) Unlilar ba'zan qo'shimcha undoshlar bilan o'zak mazmunini ta'kidlash yoki grammatik kategoriyani ko'rsatish uchun hizmat qiladi.
- v) Arab tilida barcha somiy tillar kabi ichki flektsiya mavjud.
- g) Ichki qurilishda o'zgarmagan so'zlarda suffiksatsiya ham mavjud.
- d) Arab tilida barcha somiy tillar kabi ikki jins mavjud.
- ye) Arab tilida barcha somiy tillar kabi butunlik va yaqqollik tushunchasi mavjud va hokazo.

Arab tili tarixiy jihatdan Somiy tillar tarmog'ida eng yosh til hisoblanadi. Janubiy arablar va Shimoliy arab qabilalarning tillari qo'shilib chatishgan holda bizga islomgacha bo'lgan (johiliya davri) arab adabiyoti orqali yetib keladi.

Arabiston yarim orolining Shimolida yashovchi Adnon qabilasi bilan Janubda yashovchi Kahtan qabilasi o'rtasida savdo sotiq ishlari natijasida tillarini boyish jarayoni bo'lib o'tdi. Shimoliy Adnon qabilasining mudariy tili nomini olgan til juda rivojlandi va mintaqada hukmronlik qila boshladi.

Aynan mana shu mudoriy tili asosida adabiy arab tili paydo bo'ldi. Shunday qilib arab adabiy tilining paydo bo'lishini asosiy omili - himyariylar va mudoriylar tilining qo'shilib ketishi va rivojlanishi. Bu tilning asosiy namunasi islomgacha (joliyya davri) bo'lgan adabiyotda va Qur'oni Karimda o'z ifodasini topdi.

Arab tili tarixida uchta katta davr ajralib talqin qilinadi:

4. Qadimgi arab tili. (er.av. II asrdan to IVer. asrigacha).

5. Klassik arab tili. (V-XIX asrgacha).

6. Zamonaviy arab tili. (XIX asrdan to shu kungacha).

7. Qadimgi arab tilidagi yozma yodgorliklar lahen samud safoviti yozuvlarida bitilgan bo'lib Arabiiston yarim oroli mintaqasida va Suriyaniing janubiy qismida topilgan. Ular eramizni I va IV asrlarigacha taalluqlidir.

Klassik arab tilining ilk davri og'zaki holdagi johiliya she'riyatiga borib taqaladi. Bu she'riyat eramizning VIII va IX asrlarida arab filologlari tomonidan yozildi. Qur'oni Karim klassik arab tilining eng yorqin namunasi sanaladi. Zamonaviy arab tili klassik arab tilining keyingi rivojlanish mahsuli hisoblanadi.

So'nggi adabiy arab tili va adabiyotining rivojlanishida Qur'oni Karimning tutgan o'rni juda katta.

VIII-IX asrlarida arab grammatikasining aksariyat masalalari ishlab chiqildi. Arab halifaligi kengayishi va islom dinining tarqalishi bilan fath qilingan davlatlarda arab tili din, ilm, devonxonalarda davlat ishlaridagi hujjatlarni yuritish rasmiy til sifatida ishlatila boshladi. Natijada klassik arab tili Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Pireney yarim oroli, Markaziy Osiyo mintaqalarida keng tarqaldi va butun musulmon sharqida davlatlararo xalqaro til mavqeiga ega bo'ldi. Bu mintaqalarda turli sohalarda bitilgan minglab ilmiy, adabiy tarixiy asarlar ana shu klassik adabiy arab tilida yozildi. Bizning ajdodlarimizdan Muso al-Xorazmiy, imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, ar-Roziy, al-Farobiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az - Zamaxshariy, Mahmud Qoshqariy kabi buyuk allomalar turli ilm sohalariga oid yozilgan qimmatbaho asarlarini arab tilida yaratishdi. Bu asarlarning ko'plari qo'lyozma zaxiralarda saqlanmoqda. Masalan: O'zR.Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalarning 30 foizi arab tilida bitilgan, ko'plari o'zbek va rus tillariga tarjima qilinib, sharqshunos olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Ammo hanuzgacha yuzlab arabiy zabon qo'lyozmalar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shu bois respublikamizda arab tilini o'rganish ahamiyati yanada oshadi, chunki barcha arab tilida bitilgan ma'naviy boyligimizni tarjima qilib, xalqimizga yetkazish arabshunoslarning eng katta burchi. Bu qo'lyozmalar bizning tariximiz, mafkuramiz, falsafamiz, ta'limotlarimiz umuman ma'naviy merosimiz qisman mujassamlashtirilgan ekan, xalqimiz undan bahramand bo'lishi lozim.

XIX asrga kelib arab tili tarixida yangi bosqich boshlandi. Klasik adabiy arab til asosida uning yangi shakli-zamonaviy arab tili vujudga keldi. Milliy yuksalish harakati - an-nahda - arab tilini o'zgarayotgan yangi hayot sharoitiga moslashuvini talab qildi. Zamonaviy arab tili XIX asrning ikkinchi yarmida milliy-ozodlik harakati jarayonida yanada rivojlanib ketdi. Shu davrda yashab ijod qilgan yirik yozuvchilar, shoirlar, publitsistlar zamonaviy arab tilini yaratishda o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Bular: misrlik Ahmad Shavqiy Ibrohim, Abdulloh Nodim, Mustafu Komil, Jurji Zaydon, livanlik Nasif al-Yazijiy, Butrus al-Bustaniy, Ahmad Foris ash-Shidyaq, Amin ar-Rayhoniy, suriyalik adib Ishoq, Abdurahmon al-Kavakibiy va boshqalar.

Zamonaviy arab tili hozirda 22 ta arab davlatlarida «Davlat tili» maqomidadir. U ilm, fan, matbuot, badiiy adabiyotda, ijtimoiy-siyosiy, ommaviy xabarlarida, ta'lim-tarbiya muassasalarida, radio, televideniye, barcha davlat hujjatlari olib borishda qo'llanadi. Zamonaviy adabiy arab tili har xil arab davlatlarida yashovchi arab xalqlari uchun umumiy bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarida va yaqinlashish jarayonida muhim vositadir.

Mustaqil O'zbekiston hozirgi kunda arab davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatmoqda. Arab tlini yahshi o'zlashtirib, bemaolol gaplasha oladigan arab tilida puhta tarjima qilib, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan mutahassislarga talab katta. Shu bois respublikamizda arab tilini o'rganishga ahamiyat berilib kelmoqda ekan, butun dunyoda arab tili jahon tili sifatida mavqei oshganligini, ko'p davlatlarda uni o'rganilayotganligini hisobga olib, nazarda tutishimiz kerak. Jahondagi 15 yirik tilning bittasi arab tilidir.

Adabiy arab tili bilan bir qatorda har bir arab davlati o'z shevasiga ega. Hozirgi arab shevalari bir tomondan zamonaviy arab adabiy tilidan, ikkinchi tomondan bir-biridan talaffuz, lug'at va nahv jihatida sezilarli darajada farq qiladi. Hatto bir shevada gapiruvchi

ikkinchi shevada so'zlovchini tushunmasligi mumkin. Arab mamlakatlarida lahjalar faqatgina og'zaki nutqda foydalanilmasdan, balki radio eshittirishda, teatr, kino va adabiyotda o'z o'rnini topmoqda. Ayniqsa, misr adabiyotida salmoqli o'rin tutgan she'riy asarlar yaratilgan. Adabiy asarlardagi so'zlashuv-dialog ko'pincha lahjalarda yoziladi. Ba'zi bir yozuvchilar o'z asarlarini ham adabiy tilda, ham lahjada yozadilar. Masalan, mashhur yozuvchii Mahmud Taymur birinchi bo'lib ikki tilda yozish uslubini qo'llagan.

Keng tarqalgan arab shevalarini o'rgatish arab tilini o'rganish jarayonida o'rin olgan.

SAVOLLAR

1. Arab tili qaysi tillar oilasiga kiradi?
2. Bu tarmoqning umumiy xususiyatlari nimada?
3. Arab tili qanday shakllandi?
4. Arab tili tarixini qanday bosqichlarga ajratish mumkin?
5. Arab tili rivojiga mintaqamizning olimlaridan qaysilari katta hissa qo'shgan?
6. Bizning madaniy merosimizda arab tilining ahamiyati qanday?
7. Zamonaviy arab tili qachon rivojlangan?
8. Adabiy arab tili va arab shevalarining o'rtasida qanday farq bor?

TOPSHIRIQLAR

1. Arab nahvi rivojiga hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik olimlar haqida ma'lumot bering.

ADABIYOTLAR

1. Dyakonov I.M. Semito-homitskie yaz'ki. M. 1958
2. Zvegintsev V.A. Istoriya arabskogo yaz'koznaniya. M. 1958
3. Belova A.G. Istoriya arabskogo yaz'ka. Kurs lektzii. Voenn'y institut. M. 1979.
4. Belkin V.M. Istoriya stanovleniya sovremennogo arabskogo literaturnogo yaz'ka. Sb. Arabskaya filologiya. M. M. 1968. Str 27-39.
5. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
6. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
7. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
8. د. محمود فهمي حجازي . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1998
9. علوم اللغة . القاهرة ، 1998 .

2- MA'RUZA: ا ب ت undosh harflarining ifodalanishi.

ا (Alif) – arab alifbosining birinchi harfi bo'lib, bu harfning yozuvdagi vazifasi, uning oldidagi, ustidagi yoki ostidagi belgi va harakatlarga bog'liq bo'ladi.

Alif hamza ء yoki madga ~ ga tayanch bo'lishi mumkin. O'zi alohida bir tovushni bildirmaydi.

Alif “a” harfi ikki ko'rinishlidir. YOzuvsda (Alif) o'zidan keyingi harfga birikmay, ya'ni ulanmasdan yoziladi, lekin o'zidan avvalgi harfga ulanishi mumkin.

ا		ل		
أَسَدٌ - كِتَابٌ - عَصَا - رُؤْيَدًا				
أَجْرٌ	إِبْنٌ	إِبْرَة	أَرْضٌ	أَنْقُلُو
g'isht	o'g'il	nina	er	quloq

ب

(Ba) – arab alifbosining ikkinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “b” kabi talaffuz qilinadi.
Maxraji – ikki lab bir-biriga yopishadi, jarangli tovush. YOzuvida (Ba) ب harfi o‘zidan avvalgi va keyingi harflarga qo‘l beradi ya’ni birikib yoziladi.
(Ba) ب harfi to‘rt xil ko‘rinishda yoziladi.

ب	ب	ب	ب
بَطِيخ – سَيُورَة – مَكْتَب – كِتَاب			
qorin	بَصَلْ piyoz	دَنْجَر dengiz	تَوْتِي to‘ti
			اَوْتوبُس avtobus

ت

(Ta) – arab alifbosining uchinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “t” kabi talaffuz qilinadi.
Maxraji – til uchi va oldingi ikki tish tubi ya’ni tagida.
(Ta) ت tanglayning oldidan, tishning orqasidan chiqadigan jarangsiz harfdir. YOzuvida o‘zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadi.
(Ta) ت harfi to‘rt xil ko‘rinishli harf hisoblanadi.

ت	ت	ت	ت
تَمْسَاح – مِفْتَاح – طَسْت – خُضْرَوَات (ة - ة) - (مَكْنَسَة - زَهْرَة)			
tut	تَلْمِيذ o‘quvchi	تَفَاح olma	تُرَاب tuproq
			اَنْجِير anjir

SAVOLLAR

1. Alif o‘zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Ba harfining talaffuzdagi o‘ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko‘ra qanday tavsiflanadi?

TAYANCh IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz’ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz’ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.

5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o‘zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

3- MA’RUZA: ث ج ح undosh harflarining ifodalanishi.

ث

(Sa) – arab alifbosining to‘rtinchi harfi bo‘lib, o‘zbek tilida uning o‘xshashi yo‘q.

Maxraji – oldingi ikki ustki tishlar orasi va tilning ikki tarafi. Jarangsiz va biroz shovqinli, shu bilan birga tanglay oldi sirg‘aluvchisi ham. Uning talaffuz qilinishi tili biroz chuchuklarga yaqindir. Tepa va pastki tishlar o‘rtasiga tilning uchini joylash va tepa qismiga jipslashtirib, “Sa” ث kuch bilan talaffuz qilinadi.(Sa) ث harfi yozilishda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadigan harflardan biri.

(Sa) ث harfi to‘rt xil ko‘rinishli harfdir.

ث	ث	ث	ث
ثَعْلَبٌ - مُثَقَّبٌ - مُثَلَّثٌ - مُحَرَّاتٌ	ثَوْبٌ	ثَوْرٌ	ثَلَاثَةٌ
تون	kiyim	buqa	muzlatgich
ثَقِيلٌ	og‘ir		

ج

(Jim) – arab alifbosining beshinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “j” harfi kabi talaffuz qilinadi.

Maxraji – tilning o‘rtasi va uning ro‘parasidagi tanglay. SHovqinli tovush va jarangli til oldi undoshi.

(Jim) ج harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga birikadi. So‘z oxirida yoki alohida yozganimizda bu harfning pastki qismi satr chizig‘idan tushirib yoziladi.

(Jim) ج harfi to‘rt xil ko‘rinishli bo‘ladi.

ج	ج	ج	ج
جَزْرٌ - حَجَرٌ - صَجِيجٌ - دَجَاجٌ	جَدُولٌ	جِدَارٌ	جَدُّ
soy	devor	buva	
جَبَلٌ	جَبْنٌ		
tog‘	pishloq		

ح

ح sirqaluvchi, shovqinli, jarangsiz, bog‘iz undosh tovushi. hosil bo‘lish o‘rni jihatdan ع bilan mos keladi. Ularning talaffuzidagi farq shunday: ح ning talaffuzida muskullar ع dagidek qattiq jipslashmaydi, balki tarang bo‘lib tortiladi va tor oraliq hosil qiladi. Nafas chiqarganda havo shu oraliq orqali ishqalanib o‘tadi, natijada sirqaluvchi jarangsiz undosh hosil bo‘ladi, tovush paychalari titramaydi. Yumshoq tanglay ko‘tariladi. Burun bo‘shliqidagi havo yo‘li berkiladi. Nutq organlari tarang bo‘ladi. Masalan: حسن

Bu tovush ikkilanganda havoning bog‘iz muskullari oralig‘idan chiqayotgan vaqti cho‘ziladi. Masalan: تحم

ح	ح	ح	ح
حَوْتٌ - نَحْلَةٌ - رُمْحٌ - مِصْبَاحٌ	حَقِيْبَةٌ	حِذَاءٌ	حَدِيْدٌ
chemadon	poyabzal	temir	
حَبْلٌ	حَجَرٌ		
arqon	tosh		

SAVOLLAR

1. S.a o'zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. H.o harfining talaffuzdagi o'ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
5. Jim harfining to'rt ko'rinishidagi o'ziga xos jihatlari?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

4- MA'RUZA: خ د ذ undosh harflarining ifodalanishi.

خ

(Xa) – arab alifbosining ettinchi harfi bo'lib, o'zbek tilidagi “x” kabi talaffuz qilinadi.

Maxraji – xalqumning eng yuqori qismi. Jarangsiz va shovqinli chuqur tanglayni orqasidan tovush chiqadi.

(Xa) خ harfi yozuvda o'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladigan harflardan biri. Bu harf ham (Jim) ج va (Ha) ح harflari kabi alohida yoki so'z oxirida yozilganda satr ostiga tushirilib yoziladi.

(Xa) خ harfi to'rt xil ko'rinishli harflardan biridir.

خ	خ	خ	خ	خ
خريطة – مخرز – شيخ – طبخ	خريطة	خاتم	خروف	خريطة
ip	uzuk	qo'zichoq	karta	non

(Dal)– arab alifbosining sakkizinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “d” ga o‘xshash bo‘lib jaranglidir.

Maxraji – til uchi va oldingi ikki tepa tishning tubi. Bu harf tanglay oldi tovushi, tish ortida talaffuz qilinadi.

(Dal) د harfi yozuvda o‘zidan keyingi harfga ulanmaydigan olti harfdan biri.

(Dal) د harfi ikki xil ko‘rinishlidir.

د	د
دَوَاءٌ dori	دُكَّانٌ do‘kon
دِيكٌ xo‘roz	دَجَاجَةٌ tovuq
	دُبٌّ ayiq

ذ

(Zal) – arab alifbosining to‘qqizinchi harfi bo‘lib, uning tovushi o‘zbek tilida yo‘q.

Maxraji – tilning ikki tarafi va oldingi ikki ustki tishlar orasi. U tanglay oldi sirg‘aluvchisi, jarangli va shovqinli.

(Zal) ذ harfini to‘g‘ri talaffuz qilish uchun tilni “Sa” ث harfining talaffuzi kabi bo‘lishi talab etiladi. YAgona farq – tovushning ishtiroki.

(Zal) ذ harfi yozuvda o‘zidan keyingi harfga ulanmaydigan olti harfdan biridir.

(Zal) ذ harfi ikki xil ko‘rinishli harf hisoblanadi.

ذ	ذ
ذَيْلٌ dum	ذِرَاعٌ tirsak
	ذُرَّةٌ Jo‘xori
	ذَهَبٌ oltin
	ذُبَابَةٌ pashsha

SAVOLLAR

1. Xa o‘zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Dol harfining talaffuzdagi o‘ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko‘ra qanday tavsiflanadi?
5. Xa harfining to‘rt ko‘rinishidagi o‘ziga xos jihatlari?
6. Ikki ko‘rinishli harflar to‘g‘risida ma’lumot bering?
7. Arab tili alifbosida nechta ikki ko‘rinishli harflar bor?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

5- MA'RUZA: ر ز س undosh harflarining ifodalanishi.

ر

(Ra) – arab alifbosining o'ninchi harfi bo'lib, biz o'rganayotgan arab tilida yagona titrovchi harf sanaladi. Talaffuzi o'zbek tilidagi “r” ga o'xshash, biroq arab tilidagi (Ra) ر harfi qattiqroq va til uchi titrash bilan farqlanadi.

Maxraji – til uchi va qisman til o'rtasi. Qattiq tanglayga urilib chiqadi.

(Ra) ر harfi o'zidan keyingi harfga birikmay yoziladigan olti harfdan biridir. YOzilishi satr ustidan boshlanib, satr ostida tugaydi. (Ra) ر harfi ikki xil ko'rinishda bo'ladi.

ر		ر		
رَأْسٌ - كُرَّةٌ - نَسْرٌ - جِمَارٌ		رَخِيصٌ	رُكْبَةٌ	رَايَةٌ
		arzon	tizza	bayroq
				رَمْلٌ
				qum
				رَجُلٌ
				oyoq

ز

(Zay) ز – arab alifbosining o'n birinchi harfi bo'lib, o'zbek tilidagi “z” kabi talaffuz etiladi.

(Za yoki Zay) jarangli undosh va shovqinli tovushdir.

Maxraji – til uchi va oldingi ikki yuqori hamda pastki tishlar orasi.

(Za yoki Zay) ز harfi ham o'zidan keyingi harfga ulanmaydigan olti harfning biridir. U yozuvda satr ustida boshlanib, satr ostida tugaydi.

(Za yoki Zay) harfi ikki xil ko'rinishdadir.

ز		ز		
زُرَافَةٌ - جَزْرٌ - خُبْزٌ - قَفَّازٌ		زَيْتٌ	زُبْدَةٌ	زَبِيبٌ
		'yog	'sariyog	mayiz
				زَيْتُونٌ
				zaytun
				زُرٌّ
				tugma

س

(Sin) – arab alifbosining o'n ikkinchi harfi bo'lib, o'zbek tilidagi “s” harfi tovushi kabi talaffuz qilinadi.

Maxraji – til uchi hamda oldingi ikki yuqori va ostki tishlar orasi. Jarangsiz undosh.

(Sin) س harfi yozuvda o'zidan oldingi va keyingi harfga ulanadigan harflardan hisoblanadi. Alohida yoki so'z oxirida yozilganda uning pastki qismi satrdan tushirib yoziladi.

(Sin) س harfi to'rt xil ko'rinishda yoziladi.

س	س	س	س
سَمَاعَةٌ - مِسْمَارٌ - شَمْسٌ - فَأْسٌ			

سَلَمَ	سِنَ	سَرِيْرَ	سُوْرَ	سُوْقَ
zina	tish	karavot	to'siq	bozor

SAVOLLAR

1. Ra o'zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Za harfining talaffuzdagi o'ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
5. Sin harfining to'rt ko'rinishidagi o'ziga xos jihatlari?
6. Ikki ko'rinishli harflar to'g'risida ma'lumot bering?
7. Arab tili alifbosida nechta ikki ko'rinishli harflar bor?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

6- MA'RUZA: ش ص ض undosh harflarining ifodalanishi.

ش

(SHin) – arab alifbosining o'n uchinchi harfi bo'lib, o'zbek tilidagi “sh” tovushi kabi talaffuz etiladi.

(SHin) ش jarangli va shovqinli undosh.

Maxraji – til o'rtasi.

(SHin) ش harfi o'zidan oldingi va keyingi harflarga birikishi mumkin bo'lgan harflardan bo'lib, alohida yoki so'z oxirida yozilganda, uning pastki qismi satrdan tushirib yoziladi.

(SHin) ش harfi to'rt xil ko'rinishda bo'ladi.

ش	ش	ش	ش
---	---	---	---

شَمَامَ - مَشْبَبْكَ - رِيْش - فِرَاشْ

شَدِيدٌ qattiq	شَمْعٌ sham	شَعْرٌ soch	شُرْفَةٌ balkon	شَارِبٌ mo'ylov
-------------------	----------------	----------------	--------------------	--------------------

ص

(Sod) – arab alifbosining o‘n to‘rtinchi harfi bo‘lib, o‘zbek tilida bu harfning o‘xshashi yo‘qdir.

Talaffuzi til uchi pastki tish tizmasining ichki tomoniga bir oz tegib turadi. Tilning o‘rtasi qattiq tanglayga qarab ko‘tariladi va havo o‘tishi uchun tor tirqish hosil qilinadi. A‘zolarining ana shunday holatida havo sirg‘alib “Sod” ص harfi talaffuz qilinadi.

Maxraji – tilning uchi va oldingi ikki tish tubi.

(Sod) ص harfi tanglay oldida talaffuz qilinuvchi, tish orti sirg‘aluvchisi, jarangli va shovqinli undoshdir.

(Sod) ص harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadigan harflar sarasidan. YOzuvida alohida yo so‘z oxirida yozilganda uning pastki qismi satrdan tushirilib yoziladi. (Sod) ص harfi to‘rt xil ko‘rinishdagi harf.

ص	ص	ص	ص
---	---	---	---

صَابُونٌ – قَصْرٌ – قَفْصٌ – إِجَاصٌ

صَوْفٌ jun	صَوْتُ ovoz	صَغِيرٌ kichik	صَعْبٌ qiyin	صَبَاحٌ tong
---------------	----------------	-------------------	-----------------	-----------------

ض

ض - itboq, tishora, shovqinli, portlovchi, jarangli undosh. ض talaffuz xususiyati jihatdan itboq ط ga to‘la mos keladi. ض ning talaffuzida tovush paychalari titraydi. Natijada bu tovush jarangli bo‘ladi. Shuni aytish kerakki, ط kabi ض ning aniq talaffuziga butun nutq a‘zolarining, ayniqsa, tilning tarangligi bilan erishiladi. Masalan: ضيف ، ضحك

(Dzod) ض harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga birika oladi.

YOzuvida alohida yo so‘z oxirida yozilganda (Dzod) ض harfi to‘rt xil ko‘rinishda yoziladi.

ض	ض	ض	ض
---	---	---	---

ضِفْدَعٌ – مِئْصَدَةٌ – بَيْضٌ – حَوْضٌ

ضَيْفٌ mehmon	ضَيْعٌ sirtlon	ضَابِطٌ ofitser	ضَلْعٌ qovurg‘a	ضَعِيفٌ kuchsiz
------------------	-------------------	--------------------	--------------------	--------------------

SAVOLLAR

1. Shin o‘zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. S.od harfining talaffuzdagi o‘ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko‘ra qanday tavsiflanadi?
5. Dod harfining to‘rt ko‘rinishidagi o‘ziga xos jihatlari?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.
9. Sof sonor
10. Bo`g`iz undoshi
11. Chuqur tanglay

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

7- MA'RUZA: ط undosh harflarining ifodalanishi.

ط

ط itboq undosh deyiladi. Bu tovush talaffuzining muhim sharti shuki, til orqasi yumshoq tanglayga ko'tariladi va tovush kuch bilan chiqadi. Itboq tovushning talaffuzi boshqa undoshlarga qaraganda ancha jadal, nutq organlari ancha tarang bo'ladi.

ط - itboq, tishora, shovqinli, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. ط ning talaffuzidagi nutq a'zolarining holati oddiy ت dagidek. Lekin itboq ط ning talaffuzida tilning old qismi milkka qattiq tiralib, undan keskin ajraladi. Til orqasi yumshoq tanglayga iloji boricha ko'tariladi. o'avo oqiz bo'shliqi orqali o'tadi. Masalan: طريق، طالب

ط ط ط ط ط
طاووس - قطار - مشط - بساط

طَوِيلٌ	طِفْلٌ	طَيَّارَةٌ	طَبِيبٌ	طَبَّاشِيرٌ
uzun	bola	samolyot	shifokor	bo'r

ظ

(Zo) – arab alifbosining o'n ettinchi harfi bo'lib, o'zbek tilida o'xshashi yo'qdir. SHovqinli, jarangli va tish ortidan sirg'alib chiqadi. Talaffuzi (Sod) ص tovushi kabi bo'lib, yolg'iz farqi (Sod) ص jarangsiz (Zo) ظ harfi esa jarangli undosh hisoblanadi.

Maxraji – tilning ikki tarafi va oldingi ikki ustki tishlar orasidir.

(Zo) ظ harfi o'zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadi. (Zo) ظ harfi to'rt xil ko'rinishda keladi.

ظ	ظ	ظ	ظ
---	---	---	---

ظَبِّي - مِظْلَةٌ - مَحَافِظُ - شَوَاطِظُ

ظَلَّ soya	ظَلَفَ tuyoq	ظُلْمَةٌ qorong'ulik	ظَفَّرَ tirnoq	ظَرَفَ konvert
---------------	-----------------	-------------------------	-------------------	-------------------

ع

ع portlovchi, jarangli, shovqinli, bog'iz undoshi. ع ning hosil bo'lishida bog'iz muskullari qattiq jipslashib taranglashadi. Jipslashish spazmatik qisilish xususiyatiga ega bo'ladi. Vaqf (pauza)dan so'ng muskul bir oz bo'shashadi. Bog'iz muskullarining qisqarishi vaqtida tovush paychalari titraydi. Shuning uchun ع jarangli undoshdir. Yumshoq tanglay ko'tariladi va havo oqiz bo'shliqi orqali chiqadi. Masalan: علم، عين

Bog'iz muskullari ajralganda tilning holati o'rta qator undoshlardagidek bo'ladi. Shuning uchun ع da *a* fonemasining o'rniga uning varianti 'a talaffuz qilinadi. i va u fonemalarida o'zgarish bo'lmaydi. Masalan: عمر علم عادل. Ekkilanganda bog'iz muskullari qattiq birlashgan holdagi vaqf uzaytiriladi. Masalan: دعم

ع	ع	ع	ع	ع
عَدُوٌّ dushman	عُشٌّ uya	عِنْبٌ uzum	عَامِلٌ ishchi	عَيْنٌ ko'z

SAVOLLAR

1. T.o o'zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Z.o harfining talaffuzdagi o'ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
5. Ayn harfining to'rt ko'rinishidagi o'ziga xos jihatlari?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.
9. Sof sonor
10. Bo'g'iz undoshi
11. Chuqur tanglay

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.

5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o‘zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

8- MA’RUZA: غ ف ق undosh harflarining ifodalanishi.

غ

(G‘ayn) – arab alifbosining o‘n to‘qqizinchi harfi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “g” undoshi kabi.

Maxraji – xalqumning eng yuqori qismi. Jarangli va shovqinli. CHuqur tanglayni oxiridan chiqadi.

(G‘ayn) غ harfi yozuvda o‘zini oldidagi va ortidagi do‘sti bo‘lgan harfga qo‘l beradi ya’ni ulanadi.

(G‘ayn) غ harfi alohida yoki so‘z oxirida kelganida uning pastki qismi satrdan tushirib yoziladi.

Uni (‘ayn) harfidan farqi tepasida nuqtasi borligidir.

(G‘ayn) غ harfi to‘rt xil ko‘rinishdagi harflardan biri hisoblanadi.

غ	غ	غ	غ
---	---	---	---

غَرَابٌ – مَغْرَفَةٌ – صَمْعٌ – دِمَاعٌ

غُصْنٌ	غَوَاصٌّ	غَالٍ	غَنَمٌ	غُرْفَةٌ
shox	g‘avvos	qimmat	qo‘y	xona

ف

(Fa) – arab alifbosining yigirmanchi harfi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “f” harfi kabi. Biroq bizning tilimizda “f” ko‘pincha “p”ga o‘xshab talaffuz qilinadi. Arab tilida esa “p” yo‘q, shu bois e’tiborli bo‘lish lozim.

Maxraji – oldingi ikki ustki tish uchi va ostki labning tashqi tarafi, shovqinli va jarangsiz tovush.

(Fa) ف harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harfga ulanadigan harflardan hisoblanib, satr ustida yoziladi. (Fa) ف harfi to‘rt xil ko‘rinishga ega.

ف	ف	ف	ف
---	---	---	---

فَرَسٌ – قُفْلٌ – سَيْفٌ – خِفَافٌ

فِصَّةٌ	فَصْلٌ	فَحْمٌ	فَجْلٌ	فَلَّاحٌ
kumush	sinf	ko‘mir	rediska	dehqon

ق

(Qof) – arab alifbosining yigirma birinchi harfi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “q” undoshi kabi talaffuz etiladi.

Maxraji – tilning tubi bilan yuqori tanglay xalqumga yaqinroq bo‘ladi. Jarangsiz bo‘lib, yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harfga ulanadigan harflardan hisoblanadi. Uni alohida va so‘z oxirida satr chizig‘i ustidan boshlab ostiga yumaloq qilib yozish to‘g‘ri bo‘ladi.

(Qof) ق harfi to‘rt xil ko‘rinishli harflardandir.

ق	ق	ق	ق
---	---	---	---

قَرْد – بُرْتُقَال – مَرْفَق – صُنْدُوق

قَلِيلٌ oz	قَصَابٌ qassob	قَرْنٌ shox	قَرِيبٌ yaqin	قَبِيحٌ xunuk
---------------	-------------------	----------------	------------------	------------------

SAVOLLAR

1. G`ayn o`zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Fa harfining talaffuzdagi o`ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko`ra qanday tavsiflanadi?
5. Qof harfining to`rt ko`rinishidagi o`ziga xos jihatlari?
6. G`ayn harfining maxraji qanday?
7. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra g`ayn harfining fonetik qoidasi?
8. Hosil bo`lish usuliga ko`ra qof harfining fonetik qoidasi?

TAYANCH IBORALAR

9. Portlovchi.
10. Jarangli
11. Jarangsiz.
12. Lab-tish.
13. Chuqur tilorqa.
14. Tiloldi.
15. Shovqinli.
16. Tishora.
17. Sonor.
18. Lab-burun.
19. Lab-tish.
20. Bog`iz portlovchisi.
21. Chuqur tilorqa.
22. Tiloldi.
23. Shovqinli.
24. Sof sonor.
25. Itboq.
26. Tishora.

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz`ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz`ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o`zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

9- MA'RUZA: ك ل م undosh harflarining ifodalanishi.

ك

(Kaf) – arab alifbosining yigirma ikkinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “k” kabi talaffuz etiladi.

Maxraji – tilning tubi (osti) bilan yuqori tanglay. Tilning o‘rtasiga yaqin va xalqumdan uzoq bo‘lib, jarangsizdir.

(Kaf) ك harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harfga ulanadi. Satr ustida bo‘lib, alohida va oxirida ko‘rinishlari bir oz yaqin, so‘z boshi va o‘rtasi ham o‘xshashdir. Alohida ko‘rinishi so‘z boshida ko‘rinishidan farqli hisoblanadi.

(Kaf) ك harfi to‘rt ko‘rinishli harfdir.

ك	ك	ك	ك
---	---	---	---

كُرَّة - مَكْنَسَة - دِيك - شُبَّاك

كَبِير	كُمْبُوتَر	كَعْك	كَيْس	كَهْف
katta	kompyuter	pechene	xalta	g‘or

ل

(Lam) – arab alifbosining yigirma uchinchi harfi bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “l” harfiga nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi.

Maxraji – tilning old qismi o‘rtasidan uchigacha bo‘lgan joy. Talaffuzda til uchi tanglay oldiga yopishib turadi. (Lam) ل tish oldi tanglay undoshidir.

(Lam) ل harfi yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadi, hamda alohida va so‘z oxirida kelganda satr ostiga biroz tushirib yoziladi. (Lam) ل harfi to‘rt xil ko‘rinishlidir.

ل	ل	ل	ل
---	---	---	---

لَيْمُونَة - مِلْعَقَة - رَجُل - رِجَال

لَبَن	لِسَان	لِص	لُغْز	لَوْن
sut	til	o‘g‘ri	topishmoq	rang

م

(Mim) – arab alifbosining yigirma to‘rtinchi harfi bo‘lib, uning talaffuzi o‘zbek tilidagi “m” kabi bo‘ladi. Maxraji – ikki lab orasi va burun tovushi.

(Mim) م harfi, yozuvda o‘zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadi, hamda alohida yoki so‘z oxirida kelganda, uning yakunlovchi qismi, satr chizig‘i ostiga tushirilib yoziladi.

(Mim) م harfi to‘rt xil ko‘rinishdadir.

م	م	م	م
---	---	---	---

مِلْعَقَة - سَمَك - لَحْم - تَرَام

مَسَاحَة	مِشْمِش	مَطَر	مُدْرَس	مِلْح
o‘chirg‘ich	o‘rik	yomg‘ir	o‘qituvchi	tuz

SAVOLLAR

1. Lom o‘zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?
2. Mim harfining talaffuzdagi o‘ziga xos jihati?

3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
5. Kof harfining to'rt ko'rinishidagi o'ziga xos jihatlari?
6. Kof harfining maxraji qanday?
7. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra mim harfining fonetik qoidasi?
8. Hosil bo'lish usuliga ko'ra lom harfining fonetik qoidasi?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.
9. Sof sonor
10. Bo'g'iz undoshi
11. Chuqur tanglay

ADABIYOTLAR

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
5. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
6. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

10- MA'RUZA: ن و ه ي undosh harflarining ifodalanishi.

ن

(Nun) – arab alifbosining yigirma beshinchi harfi bo'lib, u o'zbek tilidagi “ n” kabi talaffuz etiladi.

Arab tilida (Mim) م va (Nun) ن harflari sirg'aluvchi burun ya'ni g'unna tovushlari hisoblanadi. Maxraji – til uchi quyi qismidir.

(Nun) ن harfi yozuvda o'zidan oldingi va keyingi harflarga ulanadi. Bu harf alohida yoki so'z oxirida yozilganda, ostki qismi satr chizig'i tagiga tushirilib, yoziladi. (Nun) ن harfi to'rt xil ko'rinishlidir.

ن	ن	ن	ن	
نَمْلَةٌ – أَرْنبٌ – سِكِّينٌ – فِنْجَانٌ				
نَمِرٌ yo'lbars	نَافُورَةٌ fontan	نَظَّارَةٌ ko'zoynak	نَجْمٌ yulduz	نَحِيفٌ oriq

و - lab-lab, sirqaluvchi undosh tovush. Talaffuz vaqtida lablar oldinga cho'zilib yumaloqlanadi va toraytiriladi. Tilning orqa qismi yumshoq tanglayga ko'tarilib, ozgina orqaga tortiladi. Lablar va til tarang bo'ladi. و ning talaffuzida titrab jarangli tovush chiqaradigan tovush paychalari ham ishtirok etadi. Yumshoq tanglay ko'tariladi va burun bo'shlig'idagi havo yo'li berkiladi. O'zbek tilidagisi arab tilidagi و dan talaffuz O'rniga ko'ra lab-tish tovushi ekanligi bilan farq qiladi. Masalan: *vatan* - وطن *va* - و.

(Vav) و harfi yozuvda o'zidan keyingi harfga ulanmaydigan olti harfdan biridir. (Vav) و harfi ikki xil ko'rinishlidir.

و	و
---	---

وَسَادَةٌ - مَوْزٌ - دَلْوٌ - جَرَوْ

وَلَدٌ	وَرَّةٌ	وَسْطٌ	وَرَقٌ	وَحْشِيٌّ
bola	g'oz	o'rta	barg	vahshiy

(Ha) – arab alifbosining yigirma ettinchi harfi bo'lib, u o'zbek tilidagi (masalan: “hozir”, “hikoya”, “hisob” degan so'zlardagi) “h” tovushiga o'xshashdir. Bu harfning talaffuzi, o'ta yumshoq qilinib, hech qanday to'siqqa uchramasdan, chiqishi kerak. SHovqinli va jarangsiz hamda sirg'aluvchi undosh bo'lib, bu harf – “hoi havas” deb ham yuritiladi.

Maxraji – xalqumning eng quyi qismi ya'ni ichkarisidir. (Ha) ه harfi yozuvda o'zidan oldingi va keyingi harflarga ulanib yoziladi. (Ha) ه harfi to'rt xil ko'rinishlidir.

هـ	هـ	هـ	هـ
----	----	----	----

هَلَالٌ - زَهْرِيَّةٌ - وَجْهٌ - وَجُوهُ

هَوَاءٌ	هَدِيَّةٌ	هُدْبٌ	هَرَمٌ	هَاتِفٌ
havo	sovg'a	kiprik	piramida	telefon

(Ya) – arab alifbosining yigirma sakkizinchi harfi bo'lib, u o'zbek tilidagi “y” harfiga to'g'ri keladi.

Maxraji – til o'rtasi ro'parasidagi tanglayga tegishi lozim. O'zi sirg'aluvchi tovushlardan.

(Ya) ي harfi yozuvda, o'zidan oldingi va keyingi harflarga ulanib, yozilishi mumkin bo'lgan harflardan biri. Alohida yoki so'zning oxirida kelganida, bu harfning pastki qismi, satr chizig'i ostida bo'ladi. ي harfi to'rt xil ko'rinishlidir.

ي	ي	ي	ي
---	---	---	---

يَدٌ - سَفِينَةٌ - كُرْسِيٌّ - شَايٌ

يُوسُفِيُّ	يَابِسٌ	يَوْمٌ	يَسَارٌ	يَمِينٌ
mandarin	quruq	kun	chap	o'ng

SAVOLLAR

1. Nun o'zbek tili fonetikasidagi qaysi harfga yaqin talaffuz qilinadi?

2. Vov harfining talaffuzdagi o`ziga xos jihati?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko`ra qanday tavsiflanadi?
5. Yoy harfining to`rt ko`rinishidagi o`ziga xos jihatlari?
6. Hoyyi havvas harfining maxraji qanday?
7. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra hoyyi havvas harfining fonetik qoidasi?
8. Hosil bo`lish usuliga ko`ra hoyyi havvas harfining fonetik qoidasi?

TAYANCH IBORALAR

1. Portlovchi.
2. Jarangli
3. Jarangsiz.
4. Lab-tish.
5. Chuqur tilorqa.
6. Tiloldi.
7. Shovqinli.
8. Tishora.
9. Sof sonor
10. Bo`g`iz undoshi
11. Chuqur tanglay

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz`ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o`zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

11-MA`RUZA: ARAB TILIDA UNLILAR

REJA:

1. Arab tilidagi unli tovushlar tizimi.
2. Unlilarning akustik xususiyati.
3. Unlilarning sifat belgilariga ko`ra tasnifi.
4. Unlilarning miqdor belgilariga ko`ra tasnifi.

Aritulyatsion-akustik va eshitib his etilishi hamda tildagi funktsional hizmati jihatidan unli va undosh tovushlar o`rtasida katta farq bor.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlarning hosil bo`lishida o`pkadan chiqib kelayotgan havo oqimi og`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramaydi. Akustik xususiyatiga ko`ra unlilar talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranadi. Unlilar musiqa ohangiga jo`r bo`la oluvchi mayin ohangga egadir.

Unlilarning bir-biridan farqi rezonator vazifasini o'tovchi og'iz bo'shlig'ining shakliga bog'liq. Og'iz bo'shlig'ining shakli esa til, lab va pastki jag'ning holatiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, unli tovushlar: 1) tilning muayyan tovushni hosil qiladigan qismi (gorizontal harakatiga); 2) tilning tovush hosil qiladigan qismining ko'tarilish darajasi (vertikal harakatiga); 3) labning holatiga qarab bir-biridan farq qiladi.

1. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unlilar tiloldi, tilo'rta, tilorqa qator unlilarga bo'linadi. Masalan, tiloldi unlisi *i*.
2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra yuqori, o'rta, quyi ko'tarilish yoki yopiq, yarim yopiq, yarim ochiq, ochiq unlilari bilan farqlanadi. Masalan, yuqori ko'tarilish unlisi *u*.
3. Unlilarning talaffuzida lab ishtirok etsa, lablangan, ishtirok etmasa, lablanmagan unlilar deyiladi. Masalan, lablangan *u*.

Unlilarning yuqoridagi klassifikatsiyasi ularning sifat belgilaridir. Unlilar yana miqdor belgisi bilan, ya'ni unlilarning talaffuz vaqti bilan o'lchanadigan qisqalik va cho'ziqlik belgilari bilan ham farqlanadi. Bunday unlilar arab tili uchun harakterli hisoblanadi va ular ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

Arab tilida 6 ta unli fonema bor bo'lib, ularning uchasi qisqa: (*a, i, u*) va uchasi cho'ziq (*a:, i:, u:*) unlilardir.

Arab tilidagi qisqa unlilar *a, i, u* o'zbek tilidagi *a, i, u* fonemalariga o'hshashdir. Cho'ziq fonemalar esa qisqalariga sifat jihatdan mos keladi, ulardan artikulyatsiyani ko'proq cho'zish bilan farq qiladi.

Arab tilida undoshlar unli tovushlarning talaffuziga ta'sir qiladi. Shuning uchun unli fonemalar undoshlarning xususiyatiga qarab, yoki o'zgarishsiz, ya'ni fonema sifatida, yoki vaziyatga qarab fonemaning varianti sifatida talaffuz qilinadi.

Arab tilida oltita unli tovush bor. Ular ikkiga bo'linadi. Uchta uzun va uchta qisqa unlilar.

Uzun unlilar alifboda mavjud bo'lib, ular, *ا, ي, و* lardir.

Qisqa unlilar *الضمة، الفتحة، الكسرة* bo'lib, undosh harflarni ustiga va ostiga qo'yiladi. Bular damma, fatha, kasra deb ataladi.

Damma *ـَ* harf ustiga, fatha *ـَ* harf ustiga, va kasra *ـِ* harf ostidadir.

So'zda undoshdan keyin unli kelmasa, yozuvda undosh harf ustiga yumaloq shakldagi mana bu *ـْ* belgi qo'yiladi. Bu belgi *السكون* "sukun" deb ataladi.

Damma, fatha, kasra va sukun belgilari "**harakat**", deyiladi.

SAVOLLAR

1. Arab tilida nechta unli fonema bor?
2. Unli tovushlar qanday hosil bo'ladi?
3. Unlilar tilning harakati bo'yicha qanday unlilarga bo'linadi?
4. Unlilar miqdor belgilariga ko'ra qanday unlilarga ajratiladi?

TAYANCH IBORALAR

1. Unli fonema.
2. Vokalizm.
3. Rezonator.
4. Tilning harakati.
5. Tiloldi.
6. Tilorqa.
7. Tilo'rta.
8. Yuqori ko'tarilish.
9. Quyi ko'tarilish.
10. O'rta ko'tarilish.
11. Lablangan.

12. Lablanmagan.
13. Cho'ziq.
14. Qisqa.
15. Miqdor belgi.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

12-MA'RUZA: ARAB TILIDA URG'U VA BO'G'IN

REJA:

1. Asosiy urg'u.
2. Ikkinchi darajali urg'u.
3. Urg'uning ko'chishi.
4. Bo'g'in va uning turlari

O'zbek tilidagidan farqli ravishda, arab tilida urg'uli bog'in kuchli va ancha yuqori ovozda talaffuz qilinadi. Urg'uning o'rni, sifati hammavaqt bog'inning turi va soniga bog'liq bo'ladi.

Arab tilida urg'ular asosiy va ikkinchi darajali bo'ladi. Asosiy urg'uli bog'in ovozning yuqoriligi bilan ajralib turadi - u alohida kuch bilan, boshqa bog'inlardan ajralib talaffuz qilinadi. Ikkinchi darajali urg'u tushgan bog'in asosiy urg'ulidan bir oz sust, biroq urg'usizlardan birmuncha kuchli aytiladi. o'lar bir so'zda bir asosiy va bir yoki ikkita ikkinchi darajali urg'uli bog'inlar bo'ladi.

Asosiy urg'u hech qachon so'z oxiriga tushmaydi. Agar so'z oxiridan ikkinchi bog'in cho'ziq bo'lsa, asosiy urg'u o'shanga tushadi:

mak-tu:-bun, da-ras-tum

So'z oxiridan ikkinchi bog'in qisqa bo'lsa, urg'u undan oldingi uchinchi bog'inga tushadi:

mak-ta-bun, ma-sha:ki-lu

Ikki bog'inli so'zlarda urg'u, hoh cho'ziq, hoh qisqa bo'lsin, birinchi bog'inga tushadi:

qul-tu, na:-la, ya-dun

Ikkinchi darajali urg'ular, asosiy urg'uli bog'inning har ikki tomonidan cho'ziq bo'ginlar mavjud bo'lsa, o'shalarga tushishi mumkin:

mus-tah-di-mun.

Eslatilgan o'rinlardagi qisqa bo'lsa, ularga hech qachon ikkinchi darajali urg'ular tushmaydi.

Ma'lumki, muzakkar so'zlardan muannas shakllar yasalganda so'z oxirida yangi bog'in paydo bo'ladi. Demak, bog'inlar munosabatida o'zgarish vujudga keladi. Ana shu yangi grammatik munosabat ko'p so'zlarda bog'inning ko'chishiga sabab bo'ladi:

sa:kinun, ka:tibun

Urg'ular barcha hollarda ham ko'chavermaydi. Uch va undan ortiq bo'g'inli muzakkar shakllardan muannas so'zlar yasalgandagina urg'u ko'chishi mumkin. Yana shart shuki, orqadan ikkinchi bo'g'in urg'usiz qoladigan holat mavjud bo'lishi kerak.

mudarrisun, mudarrisatun

muhandisun, muhandisatun.

quyidagi holatlarda urg'u ko'chmaydi:

a) ikki bo'g'inli so'zlardan muannas shakllar yasalganda:

ibnun - ibnatun, zavjun - zavjatun

b) uch bo'g'inli so'zlarning ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lganda:

hama:lun - hamma:latun

Arab tilida so'zlarning uch xil bo'g'ini mavjud :

1. Qisqa bo'g'in. Bir undosh bir cho'ziq unlidan iborat bo'lgan bo'g'in qisqabo'g'in deyiladi. Masalan:

هُوَ -- xuva -> xu-va, هِيَ --xiya --> xi-ya

2. Cho'ziq bo'g'in. Bir undosh va bir cho'ziq unlidan yoki undosh+qisqaunli+undosh shaklidagi bo'g'in cho'ziq bo'g'in deyiladi. Masalan:

قَلْبٌ -- qalbun --> qal-bun, ذَاة --xaza --> xa-za

مَاءٌ --ma'un--> ma-'un, تَيْنٌ --tinun --> ti-nun

3. O'ta cho'ziq bo'g'in. Undosh+cho'ziq unli+undosh shaklidagi bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'in deyiladi. Masalan:

خَادٌ -- xaddun --> xad-dun-o'tkir,

مَادَّةٌ -- maddatun --> mad-da-tun-modda

Bo'g'inlar oxiridagi tovushning xarakteriga ko'ra yana ikkiga bo'linadi:

1. Och bo'g'in. Unli tovush bilan tugagan bo'g'in ochiq bo'g'in deyiladi. Masalan:

كَتَبَ --kataba --> ka-ta-ba -- yozmoq,

شَفَعَةٌ --shafatun --> sha-fa-tun -- lab.

2. Yopiq bo'g'in. Undosh tovush bilan tugagan bo'gin yopiq bo'g'in deyiladi.

Masalan:

شَرْقٌ --sharqun -- shar-qun -- sharq,

أَسْلَمْتُمْ --'aslamatum --> as-lam-tum -- sizlar islomga kirdingizlar.

Arab tilida bo'g'in unli tovush bilan boshlanmaydi. Shuningdek, bo'g'in boshida yoki oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi. (o'zbek tilidagi <stol>, <baxt>) kabi.

Agar tilida bo'g'inlarni bilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pchilik so'zlardagi, xususan noto'g'ri fellardagi tovush o'zgarishlari asosan bo'g'inlarning turiga qarab aniqlanadi.

SAVOLLAR

1. Arab tilidagi urg'u o'zbek tilidagisidan qanday farq qiladi?
2. Asosiy urg'u nima?
3. Asosiy urg'u qaysi bo'g'inlarga tushadi?
4. Ikkinchi darajali urg'u qanday urg'u?
5. U qanday bo'g'inlarga tushadi?
6. Urg'u qanday hollarda ko'chadi?
7. Arab tilida bo'gin nima?
8. Bo'g'in va uning turlari?

TAYANCH IBORALAR

1. Asosiy urg'u.
2. Ikkinchi darajali urg'u.
3. Cho'ziq bo'g'in.
4. Yuqori ovoz.
5. Ikkinchi bo'g'in
6. Urg'usiz bo'g'in.
7. Urg'u ko'chishi.
8. Bo'g'in
9. Ochiq bo'g'in
10. Yopiq bo'g'in

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

13-MAVZU: ARAB TILIDA SHAMSIY VA QAMARIY HARFLAR

Arab alifbosidagi 28 ta harf ikki guruhga bo'linadi:

1.Qamariy harflar, ular 14 ta:

ا،ب،ج،ح،خ،ع،غ،ف،ق،ك،م،ه،و،ي

‘Bular arab tilida <الْحُرُوفُ الْقَمَرِيَّةُ> -

Alxurufu-lqamariyatu >

2. Shamsiy harflar ,ular ham 14 ta:

ت،ث،د،ذ،ر،ط،س،ش،ص،ض،ز،ظ،ل،ن

‘Bular arab tilida <الْحُرُوفُ الشَّمْسِيَّةُ> -

‘Alxurufu-shshamsiyyatu> deyiladi.

SAVOLLAR

1. Arab tilida shamsiy harf?
2. Shamsiy harflarning o'ziga xos xususiyati?
3. Qamariy harflar?
4. Qamariy va shamsiy harflarning talaffuzdagi farqi?

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.

5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Qodirov T.SH, Madinabonu va Muhlisabonu Qodirovalar. Arab adabiy tilining fonetikasi (o'zbek va rus tillarida). ToshDSHI. T. 2009.

14-MAVZU: ARAB TILIDA QAT'IIY VA VASLALI HAMZANING IFODALANISHI

REJA:

1. Hamza .
2. Qat'iy hamza va uning imlo qoidalari.
3. Vaslali hamza va uning imlo qoidalari.

Arab tili fonetikasiga hos bo'lgan yana bir fonema hamzadir.

hamza - portlovchi, jarangsiz, bog'iz undosh tovushi. U tovush paychalarining to'la birlashishi va ularning tovush chiqarish oraliqidan o'tilib chiqadigan kuchli havo oqimi ostida ochilishi natijasida hosil bo'ladigan kuchsiz shovqindir.

Bu tovushning hosil bo'lishi: yumshoq tanglay ko'tariladi va havoning burun bo'shliqi orqali o'tadigan yo'li yopiq bo'ladi. 'amza tovushi biron unli tovush talaffuz qilinishidan oldin yoki talaffuz qilingandan keyin eshitiladi. Masalan: اقرأ

Bu tovush «bog'iz portlovchisi» deb ham yuritiladi va u mustaqil fonemadir.

Boshqa undoshlar kabi hamza ham *tashdid*lanadi. Bunday paytda tovush paychalarining birlashib ochilishi orasidagi vaqf uzayadi. Masalan: تسال. Unlilarga o'rta qator undoshlari kabi ta'sir etadi va so'zning turli bog'inlarida kelishi mumkin. Hamza tovushi hozirgi arab alfavitiga kiritilmay yozuvda mahsus belgi bilan ifodalanadi. Bu hodisa B.M.Grande tomonidan quyidagicha tushuntiriladi:

Makka talaffuzini o'zida ifodalagan Qur'on arab tilining hamma imlosi uchun namuna vazifasini o'tagan; lekin unda ba'zi tovushlar uchun qo'llangan belgilar, masalan, qisqa unlilar va bog'iz portlovchisi, ya'ni hamza yog' edi.

Birinchii arab grammatistlari Qur'onga, shuningdek, jonli xalq tili va arab xalq oqzaki poeziyasi asarlariga asoslandilar.

Arablarning talaffuzida bog'iz tovushi mavjud bo'lib, uni yozuvda ifodalash lozim edi. Lekin musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'onga hatto kichik o'zgarish kiritish ham tag'iqlangan edi. Shuning uchun bu bog'iz tovushini ifodalash uchun mahsus belgi hamza kiritilgan. Bu belgi hamzaning o'rniga yozilgan harflar ustiga qo'yila boshlangan yoki hamzadan hech qanday belgi qolmagan bo'lsa, o'zi mustaqil yozilgan.

Arab tilida hamza belgisining yozilishi o'ziga hos xususiyatlarga ega:

hamza belgisi ʾ harfining ustiga yoki tagiga, و ي harflarining esa ustiga yoziladi. hamza uchun yozilgan harf «markaz» deb ataladi, ya'ni hamza *alif*ning ustiga yoki tagiga yozilsa, markaz *alif*, vavning ustiga yozilsa, markaz vav, yaning ustiga yozilsa, markaz ya harflari bo'ladi. Markaz harflar talaffuz qilinmaydi. hamza markazsiz, mustaqil yozilishi ham mumkin.

Markaz harflar quyidagi qoidalar asosida ishlatiladi:

1. hozirgi arab adabiy tilida hamza so'zning boshida kelganda markaz doim alif bo'ladi. Agar hamza fatha yoki damma bilan harakatlangan bo'lsa, alifning ustiga, kasra bilan harakatlangan bo'lsa, alifning tagiga (darsliklardan tashqari adabiyotlarda. Gazetalarda ko'pincha alifning ustiga qo'yilib, kasra hamza belgisining tagiga qo'yiladi - !). Masalan: أخذ - olmoq, إجلس - o'tir, أكتب - yoz.

Ammo hamzaning yozilish tarixida uning so'z boshida mustaqil yozilganini ko'rish mumkin. Masalan:

يا أيها الذين آمنوا

Arab adabiyotlaridan «Al-Munjid»da yuqoridagi qoidani davom ettirib shunday deyilgan:

- a) agar soʻz boshidagi hamza oldiga boshqa harflar qoʻshilsa ham , markaz *alif* boʻladi. Masalan: بأجل ، لأفضل
- b) lekin لئن va لئلا soʻzlarida markaz *ya* harfi boʻladi. ل va لا yuklamalari birgalikda juda koʻp qoʻllangani uchun ularning birikmasini yozishda hamzaning soʻz oʻrtasidagi yozilish qoidasiga amal qilinadi;
- v) ل koʻmakchisidan keyin ال aniqlik artiklining hamzasi tushib qoladi. Masalan:

فعلت هذا للخير

B.M.Grande hamzaning yozilishidagi oʻzgarishlarga yana quyidagilarni kiritadi.

2. Agar soʻz qisqa unlili hamza bilan boshlangan boʻlsa, u holda undan keyin kelgan bogʻiz portlovchisi tushib qoladi va qisqa unlining choʻzilishi bilan tiklanadi, yaʼni 'a', 'i', 'u' birikmalari 'a:', 'i:', 'u' ga aylanadi. YOzuVda bunday ifodalanadi: a) أ - إ

-l bob, hozirgi-kelasi zamon, l shaxs koʻrsatkichi ا qoʻshilganda. Masalan:

أسف - أسف - أسف hafa boʻlmoq

-IV feʼl shakli yasalganda. Masalan:

أسف - أسف - أسف hafa qilmoq

- b) إ birikmalari إي shaklida yoziladi. Masalan: أومل ishonmoq; أومل ishon;
- أسر olmoq; إيسر - إيسر asir ol!

2. VIII bobdagi baʼzi feʼllarni tuslaganda hamza VIII bob koʻrsatkichi t bilan assimilyatsiyalashadi. Masalan: إلتخذ- إلتخذ olmoq; أتر- إتر- أتر .

إتتمر - أمر; إلتلف - ألف

Nima uchun shundayligi B.M.Grande tomonidan aytilmagan.

-Baʼzan hamza tushib qoladi. Masalan: أخذ - أخذ; hosil boʻlishi: أخذ - أخذ

-Baʼzan VI bob feʼli tuslanganda soʻz boshidagi hamza و undoshi bilan almashadi.

توامر - تأمر - أمر

hamza soʻzning oʻrtasida kelganda markaz ي و harflaridan biri boʻladi. Bu harflar «unlilarning kattalik qonuni» bilan tanlanadi.

- «Kattalik qonuni»ga asosan unlilar quyidagi tartibda boʻladi: *kasra* eng katta unli, undan kichigi *damma*, soʻngra *fatha* (*fatha* faqat sukundan katta). Kasrali hamza uchun *ya*, dammali hamza uchun *vav*, fathali hamza uchun *alif* markaz boʻladi.
- Markaz tanlashda ikki unli, yaʼni hamzaning unlisi va undan oldingi unlilar taqqoslanadi va ulardan kattasi tanlanadi. Masalan: سئل markaz ي boʻladi u i.
- Lekin arab adabiy tilida soʻzning oʻrtasidagi hamzaning bu qoidaga nomuvofiq yozilgan holatlarini ham koʻramiz, yaʼni uning uchun markaz vazifasini *vav* yoki *alif* oʻtashi kerak boʻlganda baʼzan *ya* yoziladi. Masalan:

مسألة q مسألة

مسؤول q مسئول

Bu soʻzlarning har ikkala shakli ham mavjud boʻlib, ularning ikkinchisi qonunga togʻri keladi. Birinchisini esa tez yozish uchun qulayligi sababli shu shaklda yozilgan, deb tahmin qilish mumkin.

- Agar hamza soʻzning oʻrtasida choʻziq unli alifdan keyin kelib. Fatha bilan harakatlangan boʻlsagina, markazsiz yoziladi. Masalan:
- الولد يسمع خذاه ساءل
- Soʻz oʻrtasidagi hamza tushib qolishi ham mumkin. Lekin bu juda kam uchraydigan hodisa. Masalan: إساءل q
- 1. agar hamza sukun boʻlsa, oldidagi harakatga mos keluvchi harf yoziladi: بأس يؤس بس
- 2. agar harakatli hamzadan oldingi harfning harakati sukun yoki fathali boʻlsa, hamzaning harakatiga mos keluvchi harf bilan yoziladi. Masalan: رؤف سأل مسألة
- 3. agar damma va kasradan keyin hamza fatha bilan kelsa, oldidagi harakatga mos keluvchi harf bilan yoziladi. Masalan: سؤال مؤنس
- 4. alif bilan yaning orasiga tushsa, hamzani mustaqil yoki ya bilan yozish mumkin: بقائي q
- الرائي q الرائي بقاء

5. olmoshlarda alif bilan yadan boshqa harf orasiga tushib, kasa yoki damma bilan harakatlangan bo'lsa, shu harakatga mos keluvchi harf yoziladi, agar harakati fatha bo'lsa, hamza markazsiz yoziladi:

بقاءه بقائه بقاؤه

III. So'z oxiridagi markaz tanlash hamzadan oldingi unli tovushga boqliq:

a) agar hamzadan oldin qisqa unli kelgan bo'lsa, u holda hamza uchun markaz shu qisqa unliga mos keluvchi harf boqladi. Masalan: جرؤ فتى بدأ

b) agar hamzadan oldin uzun unli yoki sukun kelgan bo'lsa, hamza markazsiz yoziladi. Masalan: جاء ساء جزء شىء

Shuningdek, hamzadan keyin «-atun» qo'shimchasi kelganda hamzaning yozilishi haqida «Al-Munjid»da shunday deyilgan:

a) hamzadan oldingi harf bo'sh harf bo'lmay, sukun bilan harakatlangan bo'lsa, markaz alif bo'ladi. Masalan: نشأة

b) hamzadan oldingi harf harakatli bo'sa, o'sha harfga mos keluvchi harf yoziladi. Masalan: فنة لؤلؤة

v) hamzadan oldin bo'sh harf ya bo'lsa, markaz ya shaklida bo'ladi, alif yoki vav bo'lsa, hamza mustaqil yoziladi. Masalan: بريئة قراءة

Arab tilida hamza ikkiga boqlinadi:

1. همزة الوصل

2. همزة القطع

«hamzatul vasli» o'zining luqaviy ma'nosidan kelib chiqsak, «birlashtiruvchi» ma'nosini beradi.

«hamzatul vasli»ning qo'llanishi bog'in nazariyasi bilan boqliq, ya'ni arab tilida bog'in ikkita undoshning ketma-ket talaffuzi bilan boshlanmaydi. Ana shunday ketma-ketlikning oldini olish uchun bog'in boshiga hamza va bitta qisqa unidan iborat bo'lgan bog'in/ 'a, 'u, 'i/ qo'shiladi. YOZUVDA bu bog'in alif va uning ustida vasla belgisi bilan beriladi. Bu belgi mos keluvchi harakat bilan og'iladi. Masalan: استجمل - ستجمل أكتب - كتب

Jumladan, اسم ابن so'zlaridagi, (i) ham yordamchi tovush bo'lib, bog'inning ketma-ket kelgan ikki undoshdan boshlanishini bartaraf etish uchun qo'llanilgan.

B.M. Grande shunday deydi: arab tilida ال artikli va ba'zi fe'llarning yordamchi shakllari unli bilan boshlanadi.

Qur'onning harakatlangan matnlarida bunday hollarda alif hamzasiz yoziladi.

* Arab tilida ال artiklining qo'shilishidan va ba'zi fe'llarda (VII, VIII, IX, X) birinchi undosh oldida unli paydo bo'ladi. Masalan: أكتب - الكتاب

* Nutq o'rtasida (bir takt oraliqida) unli tushib qoladi, ketma-ket kelgan ikkita undoshning birinchisi esa oldingi so'zning oxiriga qo'shib ketib, u bilan birga yopiq bog'in hosil qiladi. Masalan:

قال أكتب - qa:la ktub

دخل الأب - dahala l'abu

Bog'inlarga ajratsak bunday bo'ladi:

qa:-lak-tub da-ha-lal-'a-bu

YOZUVDA har ikkala holda ham alifning oq'ilmasligini ko'rsatish uchun vasla belgisi qo'yiladi.

Arab tiliga bosha tillardan o'tgan so'zlarda bo'g'in ketma-ket undoshlardan iborat bo'lganda ham bu so'zlar qanday bo'lsa shundayligicha talaffuz qilinmay, yordamchi unli qo'shiladi. Masalan: افلاتون Platon

«Hamzatul qat'i» ma'no tashuvchi bo'lgani uchun yo'qolmaydi. Masalan: IV bob fe'llarida, orttirma darajadagi sifatlarda أحمّل أفعّل

«Hamzatul qat'i»ning lug'aviy ma'nosi: ajratuvchi hamza. Birlashtiruvchi hamzaga qarshi o'laroq vaslalanmaydi. U so'zning negizini tashkil etadi yoki ma'no kashf etuvchi grammatik vaznlarning elementi sifatida ishlatiladi.

Masalan: أم أقلام

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamza faqatgina havo oqimining tovush chiqayotgan oraliqdagi to'siqni yorib chiqishigina emas, balki ana shu havo oqimining to'siqqa urilib to'htab qolishi natijasidagi tovushhamdir.

SAVOLLAR

1. Qat'iy hamzaning so'z boshidagi imlo qoidasi?
2. Qat'iy hamzaning so'z o'rtadagi imlo qoidasi?
3. Vaslali hamzaning qat'iy hamzadan farqi?
4. Qat'iy hamzaning so'z oxidagi imlo qoidasi?
5. Vaslali hamzaning talaffuzdagi o'ziga xos xususiyatlar.

TAYANCH IBORALAR

1. Hamza
2. Qat'iy hamza
3. Vaslali hamza

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A.«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

15-MAVZU: ARAB TILIDA “AL” ANIQLIK ARTIKLI.

REJA:

1. “Al” artiklidagi vaslali hamzaning talaffuzi bilan bog'liq imlo qoidasi.
2. “Al” artiklidagi lomning talaffuzi bilan bog'liq imlo qoidasi.

<Al- > artiklidagi < l> tovushi ba'zan talaffuzi qilinadi, ba'zanqilinmaydi va bu narsa so'zning birinchi harfiga bog'liq :

1. Agar so'z qamariy harf bilan boshlangan bo'lsa, < l> tovushi to'liq talaffuz qilinadi. Masalan:

مَدْرَسَةٌ - الْمَدْرَسَةُ ' almadrasatu—maktab,

هَرَّةٌ - الْهَرَّةُ ' alxirratu—mushuk,

2. Agar so'z shamsiy harf bilan boshlangan bo'lsa, < l> tovushi talaffuz qilinmaydi. Uning hisobiga birinchi harf bo'lga shamsiy harf ikkilantirilib talaffuz qilinadi . Yozuvda bu harf ustiga (tashdid) harakat qo'yiladi. Masalan:

شَمْسٌ - الشَّمْسُ -- 'ashshamsu—quyosh,

دَلْوٌ - الدَّلْوُ -- addalvu—chelak,

<Al-> artiklidagi <ل> harfi hech qachon tushirilib qoldirilmaydi. So'zning birinchi harfi <ل> bo'lganida ham ,ikki< ل> harfi yonma –yon yoziladi. Masalan:

لَوْحٌ - اللُّوحُ ' allavxu—doska,

لُغَةٌ - اللُّغَةُ ' allu·batu—o'yinchoq,

Lekin bunday so'zlar oldidan ل predlogi qo'shilganda, artikldagi ل harfi tushib qoladi .Masalan:

ل + اللُّوحُ -- doska uchun,

لُغَةٌ لُ -- o'yinchoq uchun

SAVOLLAR

1. Al artiklidagi lom harfining talaffuzi bilan bog'liq qoidalar?
2. Al artiklidagi hamzaning talaffuzi bilan bog'liq qoidalar?

TAYANCH IBORALAR

1. Shmasiy harflar
2. Qamariy harflar
3. Vaslali hamza

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

16-MAVZU: MORFOLOGIYA:ARAB TILIDA SO`Z TURKUMLARI.O`ZAK VA NOO`ZAK HARFLAR.

REJA:

1. Ism so'z turkumi.
2. Fe'l so'z turkumi.
3. Harf so'z turkumi.
4. Arab tilida so'z o'zagi
5. Noo`zak harflar

An'anaga ko'ra arab filologlari arab tildagi barcha so'zlarning 3 ta katta guruhga bo'ladilar.

1. Ism. - Bu gruppaga ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, masdarlar, va h.k.z.
2. Fe'l.- Bu gruppaga barcha fe'llar, fe'l formasidagi so'zlar.
3. Harf. - Bu gruppaga artikli, old qo'shimchalar bog'lovchi, predlog, yuklama, undov va h.k.z.

Arab morfologiyasida so'z turumlari turkum guruhlaridir. Ism turkumi o'z tarkibiga ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh va masdarlarni oladi. So'nggi ikkisida fe'llik xususiyati ham mavjuddir.Ismlar kelishik (Bosh, qaratqich, tushum) jins (muzakkar va muannas), grammatik son (Birlik, ikkilik, ko'plik) va holat (aniq va noaniqlik) kategoriyalariga ega. So'zlarning o'zaro boqlanishi so'z tarkibi bilan ham kelishiklar yordami bilan ham shuningdek yordamchi so'zlar vositasi bilan ham olib boriladi.

Fe'llar tarkibiga zamon shakllari, darajalari, shuning mazmunlariga ko'ra sifatdosh va masdarlar kiradi. Umuman fe'llar turli shakllarni juda rivojlanganligi va kengqo'llanishi fe'liy boblarning (asosan 10 ta) mavjudligi barcha boblarning hamma zamon shakllarida tuslanishi shaxs shakllari (birlik, ikkilik, ko'plik)ning mavjudligi, mayllar (darak, buyruq, istak, shart, kuchaytirma,)ning rivojlanganligi, darajalar(aniq va majhul)ning mavjudligi bilan harakterlanadi.

Harf so'z turkumi (yordamchi so'zlar) bog'lovchi, ko'makchi (predlog), yuklama, undovlarning hammasini o'zida jamlaydi. Arab tilining bog'lovchi va ko'makchi sistemasi juda rivojlangan, undovlarning ba'zilar jins shakllariga ega. Olmoshlarning ba'zilar jins va son kategoriyalariga ega. Yuklama sistemasi unchalik rivoj topmagan.

Arab tilidagi soʻzlarning oʻzagi uning skletini tashkil etib faqatgina undosh tovushlardan tuziladi. Soʻzning oʻzagi koʻpincha asosiy umuman maʼnolarni bildiradi. Soʻz tarkibidagi unli tovushlar oʻzakning maʼnosini oʻzgartiradi va grammatik munosabatni aks ettiradi. Soʻz strukturasini oʻzgarishi va tovushlarning almashish hodisalari arab morfologiyasining harkaterli xususiyatidir.

Bu soʻzlarning forma va konkret leksik maʼnolari farqlansa ham ular oʻzaro umumiy oʻzakka ega, ular asosiy maʼno bilan bogʻlanadilar. Arab tilida oʻzak aksariyat holatda 3 undosh tovushdan iborat bladi. Bundan tashqari 2-4-5 oʻzakli soʻzlar ham mavjud – ، كَتَبَ ، جَفَلَ ، فَمَ ، سَفَرَجَلَ

a) Feʼlning 3 ta oʻzagi 3 turli undoshdan tashkil topgan boʻlsa «togʻri oʻzak» deyiladi. - كَتَبَ ، شَرَبَ -

b) Agar oʻzak tarkibida 2 ta bir hil undosh boʻlsa «ikkilangan oʻzak» deyiladi. - ظَنَّ ، ضَلَّ ،

v) Agar oʻzak tarkibida hamza boʻlsa hamzali oʻzak deyiladi - أَخَذَ -

g) Agar oʻzak tarkibida kasal harflar boʻlsa «notogʻri oʻzak» deyiladi -

Soʻz oʻzak harflardan tashqari oʻz tarkibida oʻzak boʻlmagan «ishchi harflardan» tuzilgan boʻlishi mumkin. Bunday ishchi undoshlar feʼllarga yoki boshlanqich soʻzlarga qoʻshilib yangi soʻzlar yasaydi yoki oʻzgartiradi. «Ishchi» yaʼni yordamchi undoshlar 10 ta. Ularni yodda saqlash oson boʻlishi uchun ulardan اليوم تتساه «Bugun uni esingdan chiqarasan» degan hazil maʼnodagi ibora yasalgan. Bu iboradagi ا و ي ham undosh, ham choʻziq unli, ت ham oʻrnida ifodalangan. Masalan: كَتَبَ مَكْتَبَةً ، مَكْتُوبَ

Arab filologlari soʻzlarning turli morfologik formalarini sistemalash-tirish ularning turlariga umumiy nom berish maqsadida qolip sifatida faala oʻzagidan foydalaniladi. Istalgan soʻzning oʻzak harflari فَعَلَ (faala) qolipidagi oʻzak harflar bilan almashtirilib oʻzak boʻlmagan undoshlar va harakatlar oʻzgarishsiz qoldiriladi. Shunday yoʻl bilan istalgan soʻzning vaznini topish mumkin. (فَاعِلٌ) – (فَعَلَ) كَاتِبٌ – (مَفْعُولٌ) كَتَبَ – (مَفْعُولٌ) مَكْتُوبٌ – (مَفْعَلَةٌ) كِتَابٌ – (مَفْعَلَةٌ) مَكْتَبَةٌ .

4 yoki 5 undoshli vaznga tushirilayotganda 4 va 5 harflar oʻzak harf bilan almashtiriladi.

ترجم - فَعَّلَ ، جَهْمَرَشْ - فَعَّلِلَ

SAVOLLAR

1. Arab filologlari soʻzlarni necha turga boʻladilar?
2. Ism turkumiga qaysi soʻzlar kiradi?
3. Feʼl soʻz turkumiga qaysi soʻzlar kiradi?
4. Harf soʻz turkumi qaysi yordamchi soʻzlarni oʻziga jamlaydi?
5. Oʻzak nima?
6. Soʻz tarkibidagi qanday tovushlar oʻzakning maʼnosini oʻzgartiradi?
7. Arab morfologiyasining harakterli xususiyati nimada?
8. Aksariyat oʻzaklar nechta undoshdan paydo boʻladi?
9. Soʻzlarga fazn sifatida qaysi oʻzakdan foydalaniladi?

TAYANCH IBORALAR

1. Oʻzak.
2. Hamzali oʻzak.
3. Negiz.

4. Notog'ri o'zak.
5. Undoshli tovush.
6. O'zak bo'lmagan undosh.
7. Undosh tovush.
8. Leksik ma'no.
9. Tog'ri o'zak.
10. Umumiy o'zak.
11. Ikkilangan o'zak.
12. Turkum guruhlar
13. So'z turkumlari.
14. Ism.
15. Fe'l.
16. Harf.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

17-MAVZU: OTLARDA JINS KATEGORIYALARI.

REJA:

1. Jins kategoriyasi.
2. Muzakkar jins kategoriyasi.
3. Muannas jins kategoriyasi.
4. Muannas jins kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Arab tilida otlar ikki jinsga – muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsning gramatik belgisi so'z oxiridagi -atun, -atu qo'shimchasidir. U yozuvda **ة** (ta marbuta) harfi bilan ifodalanadi.

غُرْفَةٌ – xona, **الْمَدِينَةُ** – shahar,
مَكْتَبَةٌ – kutubxona, **الْقَرْيَةُ** – qishloq.

Shuningdek **أَء** - a'u qo'shimchasi bilan tugagan hamda **أى** - a qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar, agar **ئى** harfi o'zak tarkibiga kirmasa, muannas so'z hisoblanadi.

Masalan:

صَحْرَاءُ – sahro, **ذِكْرَى** – xotira, **حُبْلَى** – og'iroyoq.

Boshqa tovush (harf) bilan tugagan so'zlar muzakkar jins hisoblanadi. Masalan:

كِتَابٌ – kitob, **بَابٌ** – eshik, **سَقْفٌ** – shift, **بَيْتٌ** – uy.

Arab tilida yana shunday so'zlar mavjudki, ularning jinsi gramatik belgiga emas, shu so'zning mazmuniga qarab belgilanadi:

1.– ta marbuta bilan tugagan so'z erkak zotini bildirsa yoki erkak kishiga qo'yilgan ism bo'lsa, bu so'z muzakkar so'z hisoblanadi. Masal

خَلِيفَةٌ – Xalifa, **قَتَادَةٌ** – Qatoda,
حَمْزَةٌ – Xamza, **طَلْحَةٌ** – Talxa.

1. Muannaslik gramatik belgisibo'lmagan quydagi so'zlar muannas hisoblanadi:
 - a) Ayol kishini yoki ayollarning ismini bildiruvchi so'zlar:

أُمٌّ - ona, **عُرْسٌ** – kelinchak, **زَيْنَبٌ** – Zaynab, **بِنْتُ** – Qiz,

سُعَادٌ – Suod, وُدَادٌ – Vudod.

b) tanadagi juft a'zolari bildiruvchi so'zlar:

كَيْنٌ – ko'z, قُلُوبٌ – quloq, قَوْلٌ – qo'l, رَجُلٌ – oyoq.

v) aniqlik artiklini olmaydigan va tanvin qo'shimchasi bilan tugamaydigan geografik nomlar:

مِصْرٌ – Misr,

بَصْرَةٌ – Basra,

بَغْدَادٌ – Bag'dod,

طَرَابُلُسٌ – Tripoli.

g) shamol, urush, olov, quyosh kabi so'zlar:

سَمُومٌ – shamol tur, نَارٌ – olov,

حَرْبٌ – urush,

شَمْسٌ – quyosh,

أَرْضٌ – yer,

بَيْتٌ – quduq.

Bundan tashqari ة - ta marbuta bilan tugamagan ayrim otlar har ikkala jinsda ishlatilishi mumkin.

Masalan:

فَرَسٌ – ot,

كَبِدٌ – jigar,

قَوْسٌ – yoy(qurol),

مِلْحٌ – tuz.

Arab tilida odamlarning kasb – hunari, mansabi, mavqeyini, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi bir qator muzakkar otlar borki, ularning oxiriga ة - ta marbuta harfini qo'yish bilan shuso'larning muannas varianti hosil qilinadi. Masalan:

طِفْلٌ – go'dak bola,

طِفْلَةٌ – go'dak qiz,

تَلْمِيزٌ – o'quvchi bola,

تَلْمِيزَةٌ – o'quvchi qiz,

طَالِبٌ – student yigit,

طَالِبَةٌ – student qiz,

شَاعِرٌ – shoir,

شَاعِرَةٌ – shoir,

خَالَ – tog'a,

خَالَةٌ – xola,

مُهَنْدِسٌ – erkak injener,

مُهَنْدِسَةٌ – ayol injener,

طَبِيبٌ – erkak vrach,

طَبِيبَةٌ – ayol vrach.

SAVOLLAR

1. Muzakkar jins kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari?
2. Muannas jins kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari?
3. Geografik nomlar qaysi jins kategoriyasiga kiradi?
4. Ikki jins kategoriyasiga kiruvchi otlar?

TAYANCH IBORALAR

1. Jins kategoriyasi.
2. Muzakkar.
3. Muannas.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

18-19 MAVZU: ARAB TILIDA OLMOSHLAR.

REJA:

1. Kishilik olmoshlari
2. Ko'rsatish olmoshlari

3. Birikma olmoshlari
4. Birikma olmoshlarining fe'llarga qo'shilishi
5. Birikma olmoshlarining otlarga qo'shilish

Arab tilida kishilik olmoshlari (الضمائر المنفصلة) dan boshqa birikma olmoshlari ham bor. Bu olmoshlar fe'llarga, ismlarga yoki predloglarga birikib kelishi mumkin.

1. Fe'llarga birikkan olmoshlar jumladan to'ldiruvchi vazifasida keladi va tushum kelishigida, ya'ni nasb holatida bo'ladi.

Masalan:

رَأَيْتَكَ yoki أَرَأَيْتَكَ

Bu olmoshlar o'tgan, hozirgi kelasi va ba'zi buyruq fe'llariga birikishi mumkin. Bunda barcha olmoshlar fe'llarga to'g'ridan to'g'ri birikadi, ammo 1 shaxs يَ (ياء المتكلم) saqlash nuni (نون الوقفة) orqali birikadi.

Masalan:

ضَرَبَنِي عَلَمَنِي

Bu nun fe'lining oxirini kasrali bo'lishdan saqlaydi. Agar fe'lga يَ ni nunsiz biriktirsak, ضَرَبِي bo'lib, fe'lining oxiri kasra bo'lib qoladi. Bu esa mumkin emas. III shaxs muzakkar ko'pligidagi o'tgan zamon fe'lga يَ qo'shilganda bir و (vov) harfi ziyoda qilinadi.

Masalan: رَأَيْتُمُ - رَأَيْتُمُونِي yoki boshqa olmoshlar qo'shilganda ham kabi. III shaxs muzakkar ko'pligidagi o'tgan zamon fe'lga olmoshlar birikkanda oxiridagi alifi tushib qoladi.

Masalan:

ضَرَبُوا - ضَرَبُوكَ

O'ozirgi kelasi zamon fe'li II-III shaxs muzakkar ko'pligiga 1 shaxs olmoshlari نَا (ni va na) lar qo'shilganda ko'pincha oxiridagi ن (nun) tushib qoladi.

Masalan:

يَضْرِبُونَا - تَضْرِبُونَا yoki يَضْرِبُونِي - تَضْرِبُونِي

Shuningdek, huddi shu fe'l ikkiligidagi ن (nun) lar ham tushib qolishi mumkin.

Masalan:

يَضْرِبَانَا yoki تَضْرِبَانِي

Ba'zi hollarda II shaxs muannas birligidagi ن (nun) ham tushib qoladi.

Masalan: تَضْرِبِينِي asli esa - تَضْرِبِينِي

Ohiri يَ ga tugagan رَمَى va بَنَى kabi fe'llarga birikma olmoshlar birikkanda oxiri يَ (y) harfi alifga aylanib ketadi.

Masalan:

بَنَى - بَنَاهُ رَمَى - رَمَاكَ

Buyruq fe'llariga birikkanda esa, faqat o'timli fe'llarning buyruqlari birikadi.

Masalan:

إِضْرِبْنِي أَكْتُبْهُ

Bunda faqat I-III shaxs olmoshlargina birikadi. Ismlarga birikkan olmoshlar qaratqich kelishigida bo'lib, tegishlilikni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, ism bilan olmosh izofa bo'ladi.

Masalan:

كِتَابُكَ قَلَمُهَا

I shaxs يَ (y) (يَا) sidan boshqa barcha olmoshlar ismlarga birikkanda ismning kelishik harakatlari (okonchaniyalar) saqlanib qoladi.

Masalan:

كِتَابُكَ كِتَابُكَ كِتَابُكَ

Agar ism تَ (tamarbuta)ga tugagan bo'lsa, olmosh birikkanda oddiy تَ (t) aylanadi.

Masalan:

مَدْرَسَتُكَ - مَدْرَسَةُكَ

Agar ikki kelishikli ismlarga olmoshlar biriksa, uch kelishikli ism kabi turlanadi.

Masalan:

رَأَيْتُ أَحْمَدَكَ kabi va سَلَّمْتُ عَلَى أَحْمَدِكَ

Ohiri (a) va (y) ga tugagan ismlarga olmoshlar biriksa quyidagicha bo'ladi.
 Bosh k. قَاضِيكَ
 Qaratqich k. قَاضِيكَ
 Tushum k. قَاضِيكَ

Bosh k.	Qarat. k.	Tush. k.
عَصَاكَ	عَصَاكَ	عَصَاكَ
فَتَاكَ	فَتَاكَ	فَتَاكَ
ذَكَرَاكَ	ذَكَرَاكَ	ذَكَرَاكَ

Ohiri (hamza) ga tugagan ismlarga olmoshlar birikkanda hamza yozish qoidalariga amal qilinadi.

1 shaxs (y)si oxiri soqlom harfga tugagan ismlarga qo'shilsa, (y) bevosita qo'shiladi va barcha kelishiklarda turlanganda o'zgarmaydi.

Agar (y) alif va (y) ga tugagan ismlarga qo'shilsa (ya) ko'rinishida bo'ladi.
 Masalan:

عَصَاً - عَصَايَ kabi.

Agar 1 shaxs (y)si oxiri (iy) yoki (ay) -ga tugagan ismlarga qo'shilsa, unda ikkala (y) tashdid bilan yoziladi.

Masalan:

مُعَلِّمَيْنِ - مُعَلِّمَيَّ	جَوَارِي - جَوَارِيَّ
قَاضِي - قَاضِيَّ	مُعَلِّمِينَ - مُعَلِّمِيَّ

Quyidagi ismlar arab tilida boshqa ismlardan ajratilib أَسْمَاءُ السَّنَةِ (asmaus sittati) deyiladi: أَبٌ ، أَخٌ ، حَمٌّ ، هُنٌّ ، فَمٌّ ، ذُو

Avvalo bu olti ism nima uchun alohida o'rganiladi, boshqa ismlardan nima farqi bor? Bu savolga shunday javob beramiz: Bu olti ism birikma olmoshlari yoki birorta ism bilan izofaga kirganda, e'robi, ya'ni ismning oxirgi harfining harakatlari zoxir bo'lmaydi, balki uning o'rniga boshqa harflar bilan e'roblanadi.

Bunda bosh kelishikda damma o'rniga vov bilan e'roblanadi.

Masalan:

جاء أبوك ذهب أخوك

Qaratqich kelishigida esa, kasra o'rniga (y) bilan e'roblanadi.

Tushum kelishigida esa fatha o'rniga alif bilan e'roblanadi.

Bu ismlarning harakat o'rniga harflar bilan e'roblanishining 4 sharti bor.

1. Bu ismlarning birlikda bo'lishi.
2. Bu ismlarning izofa bo'lishi
3. Kichraytirilmagan siyg'asi (مُكَبَّرٌ) bo'lishi.
4. Izofasi 1 shaxs (y)ga bo'lmasligi.

Agar bu ismlar birlikda bo'lmay, ikkilik yoki ko'plikda bo'lsa, «Asmaus sitta» qoidalariga javob bermay, ikkilik va ko'plik qoidalariga bilan e'roblanadi.

Masalan:

أَخَوَانِ	أَبَوَانِ
أَخَوَيْنِ	أَبَوَيْنِ
أَبَاءٍ	أَبَاءٍ

Agar izofada bo'lmasa, unda uch kelishikda to'la turlanaveradi.

Agar kichraytirilgan siyqasi (مُضَعَّرٌ) bo'lsa ham uch kelishikda, zoxir harakatlar bilan turlanadi.

Masalan:

أَخِي - أَخِيَّ - أَخِيَّ	أَبِي - أَبِيَّ - أَبِيَّ
---------------------------	---------------------------

Agar izofasi 1 shaxs (y) siga bo'lsa,

Masalan: أَبِي va أَخِي kabi unda uning e'robi ي (y)dan oldingi harfning taqdiridagi harakati bilan bo'ladi.

Bu qoidalar حَنْ ، حَمْ ، أَحْ ، أَبْ larga tegishli bo'lib دُو va فَمْ larga tegishli alohida qoidalar bor.

Masalan: دُو ning «al-asmaus sitta» qoidalarida e'roblanishi uchun, u صاحب ya'ni, *ega* ma'nosida bo'lishi kerak.

Masalan:

Agar u *ega* ma'nosida bo'lmay, الذي ma'nosida bo'lsa, unda bu qoidadan chiqib ketadi.

Masalan: جاءني ذو قلم , aslida esa, جاءني الذي قلم

فَمْ esa, «asmaus sitta» qoidalarida bo'yicha e'roblanishi uchun م (m) harfidan holi bo'lishi kerak.

Masalan:

رَأَيْتُ فَاهُ ، أَعْجَبْتُ فِيهِ ، هَذَا فُوهُ

Agar فَمْ ning م (m)i tushib qolmasa unda oddiy e'robda e'roblanadi.

Masalan:

هَذَا فَمْ ، رَأَيْتُ فَمًا ، أَعْجَبْتُ بِفَمٍ

SAVOLLAR

1. Olmoshlarning qanday turlari mavjud?
2. Birikma olmoshlari nimalarga qo'shilib keladi?
3. Birikma olmoshlari fe'llarga qo'shilganda qanday o'zgarishlar yuz beradi?
4. Birikma olmoshlari otlarga qo'shilganda qanday o'zgarishlar yuz beradi?

TAYANCH IBORALAR

1. Olmosh
2. Kishilik olmoshlari
3. Birikma olmoshlari
4. Ko'rsatish olmoshlari
5. So'roq olmoshlari

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A.«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

20-MAVZU: ARAB TILIDA SON KATEGORIYASI. OT KESIMLI GAP.

REJA:

1. Birlik
2. Ikkilik
3. Ko'plik

Ma'lumki, ismlardan 2 turdagi ko'plik soni yasaladi: 1. Tog'ri ko'plik. 2. Siniq ko'plik.

Siniq ko'plik yasashning juda ko'p turlari mavjud. Ba'zi so'zlardan barovariga bir necha variantlarda siniq, ko'plik hosil qilish ham mumkin. Birlikdagi so'zlar siniq ko'plikka

aylanayotganda aniq bir formaga tushmaydi. Uni lug'at orqali yodlab qolish bilan o'zlashtiriladi. Siniq ko'plik hosil qilish yo'llari quyidagicha:

1. قَاعِلٌ qolipidan فَعْلٌ varianti orqali hosil qiladi.
2. فَعْلٌ qolipidagi rang, jismoniy kamchiliklarni bildiradigan hamda فَعْلٌ qolipidagi otlardan فَعْلٌ formasi orqali ko'plik yasaladi.

Masalan:

أَحْمَرٌ - حُمْرٌ أَسْوَدٌ - سُودٌ
أَسَدٌ - أُسْدٌ

فُعْلَةٌ , فُعْلَى , فُعْلَةٌ ba'zan فُعْلَةٌ qoliplaridagi so'zlardan فُعْلٌ formasi orqali ko'plik yasaladi.

Masalan:

تُحَفَّةٌ - تُحَفٌّ دَوْلَةٌ - دَوْلٌ

Shuningdek فُعْلٌ , فَعْلٌ , فُعِلٌ , فَعَالٌ , فُعِلٌ , فُعُولٌ , أَفْعَالٌ , فَعْلَةٌ , فَوَاعِلٌ , أَفَاعِلٌ , فُعْلَةٌ variantlarida ham siniq ko'plik hosil qilinadi.

Masalan:

سَاحِلٌ - سَوَاحِلُ سُؤَالٌ - أَسْئَلَةٌ وَزِيرٌ - وَزَرَاءُ

Bundan tashqari 4 o'zakli fe'llarga yana alohida variantlar beriladi. Yuqorida keltirganimizdek, bu formadan bu forma keladi deb yodlagandan, so'zning o'zi va ko'pligini yodlab qolish osonroq.

Siniq ko'plikdagi tanvinsiz جَرَاءٌ damma bilan tugasa 2 kelishikli hisoblanadi.

جَرَاءٌ Q.T.k. جَرَاءٌ B.k.

Faqatgina izofaning bir bo'lagi va ال olsa 3 kelishikliga aylanadi:

جَرَاءٌ Q.k. الجَرَاءُ T.k. الجَرَاءُ B.k.

Siniq ko'plikning qolgan formalari turlanmaydi.

Moslashuvda siniq ko'plik umumiy qoidaga bo'ysinadi. YA'ni aniqlanmish bilan aniqlovchi to'liq moslashadi.

Masalan:

الرجال العقلاء

Aniqlanmish qayri oqil bo'lsa, aniqlovchisi odatdagidek muannas birlikda beriladi.

Masalan:

البيوت الجديدة

Aniqlovchi vazifasida ko'rsatish olmoshlari kelganida hali yuqoridagi qoida to'liq saqlanadi.

هؤلاء الرجال هذه البيوت

SAVOLLAR

1. Ismlardan necha hil ko'plik yasaladi?
2. Necha hil siniq ko'plik yasash yo'lini bilasiz?
3. Barcha siniq ko'plikdagi ismlar 3 kelishiklimi?
4. Siniq ko'plik vaznlarini sanang?

TAYANCH IBORALAR

1. Tog'ri ko'plik
2. Siniq ko'plik
3. Qolip

4. Ikki kelishikli
5. Tanvinsiz damma
6. Turlanmaslik

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

21-MAVZU: ARAB TILIDA TO`G`RI KO`PLIK.

Reja:

1. Muzakkar to`g`ri ko`plik yasalishi.
2. Muannas to`g`ri ko`plik yasalishi.

So`zning oxiriga ma`lum qo`shimchalari qo`shish bilan xosil qilinadigan ko`plik to`g`ri ko`plik deyiladi. To`g`ri ko`plik quydagicha hosil bo`ladi.

1. Kasb-hunar , mansab , qarindosh-urug`chilik munosabatlarini bildiruvchi muzakkar so`zlardan oxiridagi tanvinni olib tashlab, **فَلَاحٌ** una qo`shimchasini qo`shish bilan. Masalan;

مُهَنْدِسٌ → **مُهَنْدِسُونَ** erkak injenerlar

فَلَاحٌ → **فَلَاحُونَ** erkak dehqonlar

ال artikli bilan kelgan so`zlardan ham yuqoridagi qo`shimchalar yordamida shakllanadi.

Masalan;

المُهَنْدِسُونَ → **الفَلَاحُونَ**

2. Bu qo`shimcha yordamida ba`zan erkak kishini bildirmaydigan so`zlardan xam ko`plik hosil buladi.

Masalan;

سِنُونَ → **سَنَةٌ** yillar

3.Kasb-hunar , mansab , qarindosh-urug`chilik munosabatlarini bildiruvchi muannas so`zlardan oxiridan -atun, qo`shimchasini olib tashlab , -aatun qo`shimchasini qo`yish bilan.

Masalan;

طَالِبَاتٌ → **طَالِبَةٌ** student qizlar

تَلْمِيذَاتٌ → **تَلْمِيذَةٌ** o`quvchi qizlar

4.Bunday ko`plikdagi so`zlar aniq holatda bo`lsa, tanvin qo`shimchasisiz yoziladi.

Masalan;

تَلْمِيذَاتٌ → **تَلْمِيذَاتُ الطَّالِبَاتِ** → **طَالِبَاتٌ**

5. Ayrim jonsiz predmet yoki abstrakt tushunchani ifodalovchi so`zlardan xam shu yo`sinda ko`plik hosil bo`ladi. Masalan ;

اِتِّفَاقَاتٌ → **اِتِّفَاقَةٌ** qo`zg`olonchilar

مُظَاهَرَاتٌ → **مُظَاهَرَةٌ** namoyishchilar

6.Odamni bildirmaydigan ayrim muzakkar so`zlardan ham shu yo`sinda ko`plik hosil qilindi. Masalan ;

إِعْلَانَاتٌ → **إِعْلَانٌ** e`lonlar

امْتِحَانَاتٌ → **امْتِحَانٌ** imtihonlar

SAVOLLAR

1. Ismlardan necha hil ko`plik yasaladi?
2. Necha hil to`g`ri ko`plik yasash yo`lini bilasiz?
3. To`g`ri ko`plikdagi ismlar 3 kelishiklimi?

1. Tog'ri ko'plik
2. Ikki kelishikli
3. Tanvinsiz damma
4. Turlanmaslik

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

22-MAVZU: ARAB TILIDA SINIQ KO`PLIK.

Reja:

1. Siniq ko`plik.
2. Siniq ko`plik vaznlari.

So'zninig orasidagi tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilar o'zgarishi , noo'zak undoshlarining kirishi , umaman, so'z ichki tarkibining uzgarishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik siniq ko'plik deyiladi. Masalan;

كُتِبَ → كِتَابٌ odamlar أَنْسَ → أَنْسَانٌ kitoblar

Siniq ko'plik xar bir so'zdan o'ziga hos vaznda hosil bo'ladi. Bu vaznlar anchagina bo'lib , ularni ma'lum qoida asosida qolipga solib bo'lmaydi. Birlik sonda bir xil vaznda bo'lgan so'zining ko'pligi har hil vaznda bo'lishi yoki birlikda har xil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi bir xil vaznda bo'lishi mumkin. Arab tilida siniq ko'plikning eng ko'p uchraydigan vaznlari quyidagilar

أَفْعَالٌ →	قَلَمٌ →	أَقْلَامٌ	qalamlar
	نَهْرٌ →	أَنْهَارٌ	daryolar
فُعُولٌ →	طَيْرٌ →	طُيُورٌ	qushlar
	قَلْبٌ →	قُلُوبٌ	yuraklar
فِعَالٌ →	رَجُلٌ →	رَجَالٌ	odamlar
	جَمَلٌ →	جَمَالٌ	tuyalar
فُعْلٌ →	رَسُولٌ →	رُسُلٌ	elchilar
	مَدِينَةٌ →	مُدُنٌ	shaxarlar
فُعَالٌ →	طَالِبٌ →	طُلَّابٌ	talabalar
	كَاتِبٌ →	كُتَّابٌ	yozuvchilar
أَفْعَلَةٌ →	مَتَاعٌ →	أَمْتِعَةٌ	matohlar
	رَغِيقٌ →	أَرْغِفَةٌ	obinonlar
فُعْلٌ →	غُرْفَةٌ →	غُرَفٌ	xonalar
	خُلْسَةٌ →	خُلُسٌ	g'animat paytlar
فَعَائِلٌ →	جَرِيدَةٌ →	جَرَائِدٌ	gazetalar
	رِسَالَةٌ →	رِسَائِلٌ	maktublar
فَوَاعِلٌ →	قَاعِدَةٌ →	قَرَاعِدٌ	qoidalar
	عَامِلَةٌ →	عَوَامِلٌ	omillar
أَفْعُلٌ →	لِسَانٌ →	أَلْسُنٌ	tillar
	بَحْرٌ →	أَبْحُرٌ	dengizlar
فُعَلَاءٌ →	خَلِيفَةٌ →	خُلَفَاءٌ	xalifalar
	أَمِيرٌ →	أَمْرَاءٌ	amrlar
أَفْعِلَاءٌ →	قَرِيبٌ →	أَقْرِبَاءٌ	qarindoshlar
	وَلِيٌّ →	أَوْلِيَاءٌ	avliyolar
فُعَلَانٌ →	بَلَدٌ →	بُلْدَانٌ	o'lkalar
	قَضِيبٌ →	قُضَبَانٌ	tayoqlar

فَعَالِلٌ	→	تَرْجَمَةٌ	→	تَرَاجُمٌ	tarjimonlar
مَفَالِيلٌ	→	دَسَكْرَةٌ	→	دَسَاكِرٌ	qishloklar
مَفَالِيلٌ	→	مَنْظَرٌ	→	مَنَاظِرٌ	manzillar
فَعَالِلٌ	→	مَجْلِسٌ	→	مَجَالِسٌ	yiginlar
فَعَالِلٌ	→	سُلْطَانٌ	→	سَلَاطِينٌ	podshohlar
مَفَاعِيلٌ	→	عُصْفُورٌ	→	عَصَافِيرٌ	chumchuqlar
مَفَاعِيلٌ	→	مِفْتَاحٌ	→	مِفْتَاحٌ	kalitlar
فَعَالِي	→	مَسْكِينٌ	→	مَسَاكِينٌ	bechoralar
فَعَالِي	→	مَرِيضٌ	→	مَرَضَى	bemorlar
	→	مَيِّتٌ	→	مَوْتِي	o'liklar

Arab tilida kamroq uchraydigan boshqa vazndagi ko'plik xam uchrab turadi.

Bu ko'pliklarni oxiridagi qo'shimchasiga qarab , uch guruhga ajratish mumkin;

1. Tanvin qo'shimchasi bilan tugaydigan ko'plik vaznlari;

فَعَالٌ أَفْعَلَةٌ فَعُلٌ فُعُولٌ فُفْعُلٌ

2. Tanvin qo'shimchasi bilan tugamaydigan ko'plik vaznlari;

مَفَاعِيلٌ مَفَاعِلٌ مَفَاعِلٌ أَفْعَلَاءُ فَوَاعِلٌ فَعَالِلٌ

3. Alif yoki alif maqsura bilan tugaydigan ko'plik vaznlari;

فَعَالَا فَعَالِي فَعَالِي

Bular kelishikda turlanganda har xil qo'shimchalar qabul qiladi. SHuning uchun bularga ko'prok e'tibor berish kerak.

YUqorida aytgandek , siniq ko'plikning shakllanishida ma'lum qonuniyat yo'q. SHu sababli har bir so'z o'zining ko'plik bilan birga o'rganilgani maqsadga muvofiqdir.

SAVOLLAR

1. Ismlardan necha hil ko'plik yasaladi?
2. Necha hil siniq ko'plik yasash yo'lini bilasiz?
3. Barcha siniq ko'plikdagi ismlar 3 kelishiklimi?
4. Siniq ko'plik vaznlarini sanang?

TAYANCH IBORALAR

1. Tog'ri ko'plik
2. Siniq ko'plik
3. Qolip
4. Ikki kelishikli
5. Tanvinsiz damma
6. Turlanmaslik

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A.«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
- 7.

23-MAVZU: ARAB TILIDA SIFAT.

REJA:

1. Sifat haqida ma'lumot.
2. Sifatni misollar orqali tushuntirish.
3. Sifatning eng ko'p ishlatiladigan vaznlari.

Bizga ma'lumki arab tilida sifatlar fe'llardan yasaladi. Arab tilidagi sifatlar ham o'zbek tilidagi sifatlar kabi predmet yoki shaxsning belgisini, ya'ni rangini, hajmini, ta'mi va hokazolarni anglatishda ishlatiladi. Shunday qilib predmetning shaklini, hajmini rangini, muvazunini bildirib, uni darajalab ko'rsata oladigan so'zlar sifatlar deyiladi.

Sifatlar arab tilida ham 3 hil darajaga ega: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja.

1. Biz shu vaqtgacha ko'rib kelgan sifatlar, sifatning oddiy darajasiga kiradi.

Masalan:

قريب حسن كبير

2. Qiyosiy daraja.

qiyosiy daraja uch undoshli fe'lni أَفْعُلُ (afalu) formasiga tushirish va مِنْ (min) predlogini orttirish orqali hosil qilinadi. Bunda qaysi bir predmet yoki shaxs, qaysi bir predmet yoki shaxsning belgisi qiyoslanayotgan bo'lsa o'sha so'z مِنْ (min) prelogidan keyin keladi, sifat darajasi esa sonda va jinsda o'zgarmaydi.

Masalan:

الكتاب أكبر من المجلة - Kitob jurnal dan kattaroq

أختي أصغر مني - Singlim mendan kichikroq

Misollardan ko'rinib turibdiki sifatning qiyosiy darajasi o'zbek tiliga «roq» qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi.

Agar مِنْ (min) predlogidan keyin bevosita fe'l kelsa, prelogdan keyin (ma) yuklamasi orttiriladi;

Masalan:

الطقس اليوم أحر من كان أمس - Ob-havo bugun kechagidan issiqroq.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, agar bir predmet, shu predmetning o'ziga, ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin qiyoslanadigan bo'lsa predmetni 2 marta takrorlamaslik uchun o'ziga tegishli olmoshni qo'ishi mumkin.

Masalan:

3. Ortirma daraja.

Orttirma daraja o'z navbatida 2 ga bo'linadi: a) mutloq orttirma daraja;

b) qiyosiy orttirma daraja;

Mutloq orttirma daraja.

Mutloq orttirma daraja va qiyosiy orttirma daraja ham أَفْعُلُ (af'alu) vaznida bo'lib, mutloq orttirma daraja moslashgan aniqlovchilarday bo'lib keladi, shuning uchun ham u sifatlanmish bilan to'la moslashadi (holatda, kelishikda, jinsda va hokazoda) va o'zbek tilida «...eng...» deb tarjima qilinadi.

Ko'plik	Ikkilik	Birlik	Jins.
أَفْعَالُ	أَفْعَالَانِ	أَفْعُلْ	M.z.
فَعْلَائِيَّاتُ	فَعْلَائِيَّانِ	فَعْلَى	M.n.

Masalan:

العامل الأحسن - Eng yahshi ishchi

الغرفة الكبرى - Eng katta hona

الطلاب الأشهر - Eng mashhur studentlar

الطالبات الحسنيات - Eng go'zal talabalar

Qiyosiy orttirma daraja.

Qiyosiy orttirma daraja أَفْعُلُ (af'alu) o'zidan keyin kelayotgan ismni qaratqich kelishigida va aniq holatda bo'lishini talab qiladi, bu vazndagi sifat jinsda o'zgarmaydi.

Masalan:

من أحسن الطالبات - Eng yahshi student qizlardan

من أحسن الطلاب - Eng yahshi studentlardan

أَفْعُلُ (af'alu) qolipidan keyin ism birlikda noaniq holatda va qaratqich kelishigida kelsa, «eng...lardan biri» deb tarjima qilinadi.

Masalan:

أحسن طالبة - Eng yahshi student qizlardan biri

أحسن طالب - Eng yahshi studentlardan biri.

القاهرة أجمل مدينة - Qoxira eng chiroyli shaharlardan biri.

Bulardan tashqari yana, فَعْلَاءُ - أَفْعَلُ (af'alu-fa'lau) shaklidagi sifatlardan, belgini bildiruvchi sifatdoshlardan va nisbiy sifatlardan qiyosiy va ortirma daraja sintaktik yo'l bilan ya'ni ، أَكْثَرُ ، أَقْلُ kabi so'zlar va undan keyin solishtiriladigan belgi shu o'zakdan hosil bo'lgan tushum kelishigidagi noaniq holatda turgan masdar yordamida hosil qilinadi.

Masalan:

هذه الوردة أشد حُمرةً من تلك - Bu atirgul narigisidan qizilroq.

أخي أَقْلُ اجتهدا من صديقه - Ukam o'rtoqidan ko'ra kamroq tirishqoqdir.

خَيْرٌ (hayrun) yahshi, شَرٌّ (sharrun) yomon kabi sifatlardan أَفْعَلُ (af*alu) vaznida emas, shu sifatlarning o'zidan hosil bo'ladi.

Masalan:

الصلاة خيرٌ من النوم - Nomoz uyqudan yahshiroqdir.

شَرُّ البلادِ مكانٌ لا صديقَ به - Yurtlarning eng yomoni do'sti bo'lmagan yurtdir.

Arab tilida sifatlarning 20 dan oshiq vazni mavjud. SHulardan quyidagi uchasi eng ko'p uchraydigan vaznlardir.

	Vaznlar		Misollar
	mz	mn	
1	فَاعِلٌ	فَاعِلَةٌ	بارِدَةٌ -- بارِدٌ sovuq
2	فَعِيلٌ	فَعِيلَةٌ	حَامِضَةٌ -- حَامِضٌ nordon
3	فُعْلٌ	فُعْلَةٌ	كَبِيرَةٌ -- كَبِيرٌ katta
4	فِعْلٌ	فِعْلَةٌ	طَوِيلَةٌ -- طَوِيلٌ uzun
5	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	صَلْبَةٌ -- صَلْبٌ qattiq
6	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	مُرَّةٌ -- مَرٌّ achchiq
7	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	تَعِبَةٌ -- تَعٍ charchoq
8	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	خَشِيبَةٌ -- خَشِيبٌ dag'al
9	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	صَعْبَةٌ -- صَعْبٌ qiyin
10	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	بَخْسَةٌ -- بَخْسٌ arzon
			حَسَنَةٌ -- حَسَنٌ yaxshi
			جَيِّدَةٌ -- جَيِّدٌ yangi
			لَيِّنَةٌ -- لَيِّنٌ yumshoq
			جَسُورَةٌ -- جَسُورٌ jasur
			رَؤُوفَةٌ -- رَؤُوفٌ raxmdil
			أَبْيَضَةٌ -- أَبْيَضٌ oq
			أَعْرَجَةٌ -- أَعْرَجٌ oyoqsiz
			ظَمَنَى -- ظَمَانٌ chanqoq
			عَطَشَى -- عَطْشَانٌ tashna
10	فَعْلَانٌ	فَعْلَى	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki فُعُولٌ vaznidagi sifat muzakkar va muannas jinsda o'zgarmaydi.

Bu vaznlar ichida eng ko‘p uchraydigani **فَعِيلٌ** va **فَعْلٌ** vaznlardadir. Qolganlari nisbatan kamroq uchraydi.

Bularning ichida **أَفْعَلٌ** (mn **فَعْلَاءٌ**) vazni tanvin qo‘shimchasi qabul qilmaydi. Bu vazndagi sifatlar asosan rangni va jismoniy xususiyatni ifodalovchi sifatlardir. Masalan;

- أَخْضَرُ** - **خَضِرَاءُ** zangor,
أَحْمَرُ - **حَمْرَاءُ** qizil
أَهْدَبُ - **هَدْبَاءُ** uzun kiprikli
أَشْهَلُ - **شَهْلَاءُ** ko‘k ko‘z

Bu sifatlarning ko‘pligi siniq ko‘plik vaznidadir.

SAVOLLAR

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Arab tilida sifat darajalari qanday bo‘ladi?
3. Sifat darajalari haqida gapirib bering va misollar keltiring?

TAYANCH IBORALAR

1. Sifat darajalari.
2. Oddiy daraja.
3. Qiyosiy daraja.
4. Ortirma daraja.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz’ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.

24-MAVZU: ARAB TILIDA NISBIY SIFAT.

REJA:

1. Nisbiy sifat haqida ma’lumot.
2. Nisbiy sifatni misollar orqali tushuntirish.
3. Ikki o‘zak undoshdan iborat ayrim otlardagi nisbiy sifat.
4. Siniq ko‘plikdagi otlarda nisbiy sifat.

Nisbiy sifat predmetning belgisini boshqa predmetga yoki tushunchaga nisbatan bildiradi. U ko‘pincha belgisi aniqlab kelayotgan aniqlanmishning ishlangan materialini, Kelib chiqqan joyini, biror predmetga mansubligini va shunga o‘hshash boshqa belgilarini bildiradi.

Nisbiy sifat ham asliy sifat kabi muzakkar va muannas shakllariga ega.

Nisbiy sifatning muzakkari asosan otdan oxiridagi-un qo‘shimchasini olib tashlab, o‘rniga **ِيّ** iyyun qo‘shimchasini qo‘yish bilan hosil bo‘ladi. Muannas nisbiy sifat esa, ko‘pchilik sifat qatori muzakkar oxiriga **ِة** - atun qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Masalan:

خَشَبٌ - **خَشَبِيّ** - **خَشَبِيَّةٌ**
البيتُ خشبيٌّ **الملعقة خشبيَّةٌ**

ا yoki ي harfi bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil bo'lganda ئ qo'shimchasidan oldin ا yoki ي harflari و ga aylanadi.

Masalan:

دنيا - دنيوي
آسيا - آسيوي

Bu so'zlardan ba'zan nisbiy sifat boshqacharoq shaklida ham hosil bo'ladi:

دنيا - دنيوي

Ayrim so'zlardan esa, oldingi ا (alif) tushib qolib, ي (iyyun) -qo'shimchasi qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Masalan:

فرنسا - فرنسي
أوروبا - أوروبي

ة (ta'marbuta) bilan tugagan so'zlardan nisbiy sifat hosil bo'lganida mazkur harf tushib qoladi.

Masalan:

خرافة - خرافي - خرافية
جمهورية - جمهوري

Ayrim otlardan nisbiy sifat hosil bo'lganida so'zning vazni ham biroz o'zgaradi.

Masalan:

مدينة - مدني - مدنيّة
فرضة - فرضي - فرضيّة

Ikki o'zak undoshdan iborat ayrim otlardan nisbiy sifat hosil qilishganida, (vov) harfi orttiriladi.

Masalan:

يد - يدوي - يدويّة
سنة - سنوي - سنويّة

Ba'zi so'zlardan ikki hil nisbiy sifat hosil bo'ladi.

Masalan:

روح - روحي - روحية
روح - روحاني - روحانية

Nisbiy sifatlar gapda ko'pincha moslashgan aniqlovchi bo'lib keladi.

Masalan:

البيستاني يعمل في البستان
ابن عمي بستاني

Geografik nomlardan hosil bo'lgan nisbiy sifat o'sha yerli yoki o'sha yerda tug'ilgan vazifasida kelishi mumkin.

Masalan:

مصر - مصري - مصريّة

Nisbiy sifat gapda moslashgan aniqlovchi vazifasidan boshqa ega, kesim vazifalarida ham kelishi mumkin.

Masalan:

البيستاني يعمل في البستان - Boqbon boqda ishlaydi. (ega).
ابن عمي بستاني - Amakimning og'li boqbondir. (kesim).

SAVOLLAR

1. Nisbiy sifat nima?
2. Nisbiy sifatga misollar keltiring.
3. Nisbiy sifat kelganda yuz beradigan o'zgarishlar.
4. Nisbiy sifat vazifalari.

TAYANCH IBORALAR

1. Nisbiy sifat
2. Muzakkar jins.
3. Muannas jins.
4. Moslashuv

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
- 7.

25-MAVZU: ARAB TILIDA MOSLASHGAN ANIQLOVCHI.

REJA:

1. Aniqlovchi-aniqlanmish munosabati.
2. Aniqlovchi vazifasidagi ko'rsatish olmoshlari
3. Sondagi moslashuv

Moslashgan aniqlovchi odatda predmetning belgisini bildiruvchi sifatlovchi aniqlovchidir. Moslashgan aniqlovchi ko'pincha asliy yoki nisbiy sifatlar, tartib sonlar, aniq va majhul nisbiy sifatdoshlar, ko'rsatish olmoshlari va boshqalar bilan ifodalanadi.

Agar moslashgan aniqlovchi sifat, tartib son, sifatdosh bilan ifodalangan bo'lsa, aniqlanmishdan keyin keladi va u bilan to'rt holatda moslashadi.

1. Jinsda, ya'ni aniqlanmish qaysi jinsda bo'lsa, aniqlovchi ham o'sha jinsda bo'ladi.
Masalan:

بيتٌ جديدٌ	- yangi uy
مدينةٌ جميلةٌ	- chiroyli shahar.
بابٌ قديمٌ	- eski eshik.
يدٌ طويلةٌ	- uzun qo'l

2. Sonda, ya'ni aniqlanmish qaysi sonda bo'lsa aniqlovchi ham o'sha sonda bo'ladi.
Masalan:

بيتان جديدان	- Ikkita yangi uy.
بابان قديمان	- Ikkita eski eshik.
طلابٌ مجتهدون	- Tirishqoq talabalar.

3. Kelishikda, ya'ni aniqlanmish qaysi kelishikda bo'lsa, aniqlovchi ham o'sha kelishikda bo'ladi.

Masalan:

درس سهل - *oson dars*

1. Arab tilida uyushiq bo'laklar.
2. Bog'lovchilar

Gapning biror bo'lagiga teng ravishda bog'langan, ammo o'zaro mustaqil bo'lgan ikki yoki undan ortiq bo'laklariga gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Gapning uyushiq bo'laklari bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib keladi. Gapning bosh bo'laklari ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin.

Uyushgan ega, ismiy kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hollar bir xil kelishikda bo'ladi, uyushgan fe'l-kesimlar esa bir xil shaxs, jins va maylda bo'ladi.

Ular bir-biri bilan ushbu bog'lovchilar vositasida bog'lanadi:

1. Teng bog'lovchilar. ...وَ – va; ...ف – keyin; ...ثُمَّ – so'ngra kabilar bo'lib, ...وَ bog'lovchisi gapning ikkita uyushiq bo'lagini to'g'ridan-to'g'ri bog'lasa, ...ف bog'lovchisi ularning ketma-ketligini, ثُمَّ bog'lovchisi esa orada biroz muddat o'tganini bildiradi:

Mahmud va Umar kirib
o'tirishdi, so'ngra muallim kirdi.

دَخَلَ مُحَمَّدٌ وَعُمَرُ فَجَلَسَا ثُمَّ الْمُعَلِّمُ.

2. Zidlovchi bog'lovchilar. لَا – emas; بَلْ – emas, balki; لَكِنْ – lekin kabi zidlovchi bog'lovchilar uyushgan bo'laklardan birini boshqasiga zid (qarshi) qo'yish uchun ishlatiladi:

Zayd emas, balki Umar keldi.

مَا جَاءَ زَيْدٌ بَلْ عُمَرُ.

Qoida bir odam uchun emas,
barchagadir.

الْقَاعِدَةُ عَامَّةٌ لَا خَاصَّةٌ.

3. Ayiruvchi (yoki ajratib ko'rsatuvchi) bog'lovchilar. أَوْ – yoki; أَمْ – yoki (so'roq gaplar uchun); وَإِمَّا – yoki, ...yoki; kabi ayiruvchi bog'lovchilar uyushgan bo'laklarning faqat bittasini ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi:

Uyqudan avval sut yoki sharbat
ich!

اشْرَبِي قَبْلَ النَّوْمِ لَبَنًا أَوْ عَصِيرًا!

YOki sariyog' egin, yoki pishloq!

كُلْ إِمَّا زُبْدَةً وَإِمَّا جُبْنَةً!

4. "أَيّ" - ya'ni " sharhlovchi bog'lovchi ham uyushiq bo'lakli gaplarda ishlatiladi:

Abdulkarim, ya'ni o'qituvchi keldi.

جَاءَ عَبْدُ الْكَرِيمِ أَيُّ الْمُعَلِّمِ.

SAVOLLAR

1. Arb tilida uyushiq bo'laklar qaysilar?
2. Arab tilida bog'lovchilar necha xil?

TAYANCH IBORALAR

1. Uyushiq bo'laklar
2. Bog'lovchilar
3. Teng bog'lovchilar
4. Zidlov bog'lovchilar
5. Ayiruvchi bog'lovchilar

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

40-MAVZU: TO'LDIRUVCHI.

REJA:

1. To'ldiruvchi haqida ma'lumot.
2. To'ldiruvchining turlari.

Fe'l kesim o'zi bilan to'ldiruvchi olib kelishi mumkin. Odatda to'ldiruvchi o'timli fe'llardan keyin keladi. to'ldiruvchilar *kimni, nimani, kimga, nimaga, kim bilan, nima bilan?* so'roqlariga javob bo'ladi. To'ldiruvchilar vositali va vositasiz bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchi o'timli fe'l bilan boshqariladigan va ish harakat bevosita unga yo'naltirilgan ismdir. To'ldiruvchi ism kelishigidagi ism bo'lib odatda egadan keyin keladi.

Bunday to'ldiruvchini arab grammatistlari *المفعول به* deyдилar va bu to'ldiruvchi *kimni, nimani?* so'roqiga javob bo'ladi. Ba'zi hollarda to'ldiruvchini ajratib ko'rsatish uchun egadan oldin ham qo'yish mumkin.

Agar ega bilan to'ldiruvchi alif maksuraga tugagan bo'lsa, ular kelishiklarda o'zgarmaydi. Bunday holatda ega to'ldiruvchidan albatta oldin keladi.

Bulardan tashqari kabi to'ldiruvchilar ham bor. Masalan: Bajarilgan ishni navini, sonini va turini bildiradi.

المفعول فيه (Maf'ul fihi) - bu *في* (fiy) ma'nosini o'z ichiga olgan to'ldiruvchidir.

المفعول معه (Maf'ul maahu) – *مع* (maa) ma'nosidagi to'ldiruvchidir.

المفعول له (Mafu'l lahu) - bir maqsadni mo'ljallab bajarilgan ish harakatni bildiradi.

Barcha turdagi to'ldiruvchilar yuqoridagi misollarda ko'rinib turgani kabi mansub (tushum kelishigida) bo'ladi.

Fe'l ifodalanga ish harakatni ish- harakatni mazmuman to'ldirib, *kimni, nimani, kimdan, qaysi narsadan, kimda, nimada, kimga, qaysi narsaga* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagi to'ldiruvchi deyiladi.

To'ldiruvchi vositali va vositasiz bo'ladi.

Ish harakatning obyektini bildirib, *kimni nimani* so'rogiga javob bo'luvchi to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi. (men kitobni o'qidim . sen Ahmadni uchratdingmi?)

Arab tilida fe'l kesimli gaplarda gapning ega va kesimidan keyin bevosita vositasiz to'ldiruvchi keladi va u tushum kelishida qo'yiladi. Masalan:

كَتَبَ الطَّالِبُ الْوَاجِبَ – student vazifani yozdi.

فَهَمَّتْ زَيْنَبُ الْمُضَوِّعَ – Zaynab mavzuni tushundi.

Vositali to'ldiruvchi *kimni* va *nimani* so'roqlaridan boshqa so'roqlarga javob bo'luvchi to'ldiruvchilar. U ham arab tilida gapning bosh bo'laklaridan keyin u yoki bu predlog bilan va, tabiiyki, qaratqich kelishigida keladi. Masalan,

سَمِعْتُ مِنَ الْوَلَدِ – men otamdan eshitdim.

يَكْتُبُ صَدِيقِي بِقَلَمِ الْجَبْرِ – do'stim ruchkada yozadi.

Agar gapda ham vositasiz, ham vositali to'ldiruvchi mavjud bo'lsa, avval vositasiz, so'ng vositali to'ldiruvchi o'rin oladi. Masalan,

أَكَلَ الطِّفْلُ الطَّعَامَ بِالْمَلْعَقَةِ - go'dak taomni qoshiq bilan yedi.

أَخَذْتُ الْمَجْلَةَ مِنَ الْمُدْرَسِ – jurnalni o'qituvchidan oldim.

Bunday to'ldiruvchilar o'z navbatida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilarga ega bo'lishi mumkin. Bunda aniqlovchilar yuqoridagi qoidalarga muvofiq qo'yiladi.

Masalan:

قَرَأْتُ الْمَجْلَةَ الْجَدِيدَةَ – yangi jurnalni o'qidim

قَرَأْتُ مَجْلَةَ الْمُصَوِّرِ – “Almusavvir” jurnalini o'qidim

قَرَأْتُ مَجْلَةَ الْمُصَوِّرِ الْمِصْرِيَّةَ – Misrning “Almusavvir” jurnalini o'qidim

سَمِعْتُ هَذَا الْخَبَرَ مِنْ طَالِبٍ كَلْبَيْنَا – bu xabarni fakultetimiz studentidan eshitdim.

أَكَلَ الطِّفْلُ الطَّعَامَ بِالْمَلْعَقَةِ الْخَشَبِيَّةِ – Go'dak ovqatni yog'och qoshiq bilan yedi.

Arab tilida harakatni bildiruvchi *جَاءَ* - kelmoq, *ذَهَبَ* – ketmoq, *وَصَلَ* - kelmoq, *رَجَعَ* – qaytmoq, *أَتَى* - kelmoq, *قَدِمَ* - kelmoq kabi o'timsiz fellar mavjudki, harakat obyektini bildiruvchi so'zdan oldin *بِ* predligini keltirish bilan ular o'timli felga aylanadi.

جَاءَ بِاَلْكِتَابِ – kitobni olib kelmoq,

ذَهَبَ بِالْكِتَابِ – kitobni olib ketmoq,
وَصَلَ بِالْخَبَرِ – xabar olib kelmoq,
رَجَعَ بِالْبَشَرِ – xushxabar olib qaytmoq.

Yana ayrim shunday o'timsiz felar ham mavjudki, ular bilan ishlatilgan vositali to'ldiruvchi yoki hol tushum kelishigida keladi. Masalan ,

رَكِبَ السَّيَّارَةَ – mashinaga o'tirmoq,
دَخَلَ الْغُرْفَةَ – xonaga kirmoq,
سَأَلَ الْمُعَالِمَ – o'qituvchidan so'ramoq.

Eslatma. دَخَلَ - feli biror odam oldiga kirish ma'nosida ishlatilganida, shu feldan keyin عَلَي predlogi qo'llaniladi. Masalan,

دَخَلَ عَلَي الدَّيْكَانِ dekan huzuriga kirmoq.

SAVOLLAR

1. To'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
2. To'ldiruvchilar necha hil bo'ladi?
3. Mansubotlar guruhiga nimalar kiradi?
4. Qachon to'ldiruvchini egadan oldin qo'yish mumkin?
5. Qachon to'ldiruvchini egadan oldinga qo'yib bo'lmaydi?

TAYANCH IBORALAR

1. To'ldiruvchi.
2. Vositali to'ldiruvchisi.
3. Vositasiz to'ldiruvchisi.
4. Mutloq to'ldiruvchisi.
5. Birgalik to'ldiruvchisi.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
 2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
 3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
 4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
 5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
 6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
- Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

41-MAVZU: ARAB TILIDA SON.

REJA:

1. Arab tilida son.
2. Sanoq sonlar
3. 1-10 gacha bo'lgan sanoq sonlar
4. 11-19 gacha bo'lgan sanoq sonlar
5. Yuzliklar va mingliklar

Arab tilida ham sonlar sanoq va tartib sonlarga bo'linadi. Sanoq sonlar ham, tartib sonlar ham, raqamlarni ifodalovchi quyidagi so'zlar yordamida yasaladi:

Raqamlar	Mz.	Mn.
Bir	واحد	واحدة
ikki	اثنان	اثنتان
uch	ثلاث	ثلاثة
to'rt	أربع	أربعة
besht	خمس	خمسة

olti	ست	ستة
yetti	سبع	سبعة
sakkiz	ثمان	ثمانية
tog'qiz	تسع	تسعة
o'n	عشر	عشرة
yigirma	عشرون	عشرون
o'ttiz	ثلاثون	ثلاثون
qirq	أربعون	أربعون
ellik	خمسون	خمسون
oltmish	ستون	ستون
yetmish	سبعون	سبعون
sakson	ثمانون	ثمانون
tog'son	تسعون	تسعون
yuz	مئة (مائة)	مئة (مائة)
ming	ألف	ألف
million	مليون	مليون
milliard	مليار	مليار

Eslatma. Bu sonlar ichidan إحدى - kelishikda turlanmaydigan so'z, اثنان - ikkilik soni kabi turlanadigan so'z, 20 dan 90 gacha sonlar muzakkar tog'ri ko'plik kabi, qolganlari esa uch kelishikli so'zlardir.

أحد so'zi gapda «kimdir» gumon olmoshi yoki inkor gaplarda «hech kim» ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan:

Oldimga kimdir keldi. - جاءني أحد

Oldimga hech kim kelmadi. - ما جاءني أحد

1 dan 10 gacha sanoq sonlar

1 va 2 sanoq sonini ifodalash uchun sonni iishlatmaslik mumkin, chunki birlik va ikkilik grammatik kategoriyasi predmetning bitta yoki ikkitaligini ko'rsatib beradi. Mas.,

kitob - yoki bitta kitob, كتاب

Ikkita jurnal. - مجلتان

Lekin predmetning bitta yoki ikkitaligi ta'kidlanishi kerak bo'lsa, واحد (واحدة), اثنان sonlari sanalmish otdan keyin qo'yiladi va sanalmish ot bilan moslashgan aniqllovchi kabi to'rt jihatdan moslashadi. Mas.,

menda bitta kitob bor. - لي كتاب واحد

Bitta kitobda haqiqat bor. - في الكتاب الواحد حقيقة

Bitta kitob sotib oldim. - اشتريت كتابا واحدا

Ikki jurnalda ikki maqola bor. - في المجلتين الاثنتين مقالتان

3-10 gacha bo'lgan sonlar sanalmish bilan ikki usulda birikadi:

1. Son bilan sanalmish ot izofa tashkil etadi. Bunda son muzof ilayhi, bo'lib keladi.

Son sanalmish ot birligining jinsiga teskari jinsda keladi., sanalmish ot esa, noaniq holatda ko'plikda keladi. Mas.,

to'rtta uy, - أربعة بيوت

yettita hona, - سبع غرف

o'n kun, - عشرة أيام

8 soni muannas ot bilan ishlatilganda, kelishiklarda عال so'zi kabi turlanadi. Mas.,

8 soat. - ثماني ساعات

8 soatda - في ثماني ساعات

8 soat kutdik. - انتظرنا ثماني ساعات

Izofa qoidasiga muvofiq gapdagi bajarayotgan vazifasiga qarab, sonning kelishigi o'zgaradi, holos. Mas.,

To'rtta honada studentlar bor. - في أربع غرف طلاب

Universitet yettita uy sotib oldi. - اشترت الجامعة سبعة بيوت

عطلتنا الشتوية عشرة أيام - Qishki kanikulimiz o'n kun.

Umumiy qoidaga binoan bunday izofalar من predlogi yordamida ajratilishi ham mumkin. Mas.,

رأيت أربعة من الطلاب - To'rt studentni ko'rdim.

3-10 gacha bo'lgan ma'lum sonni bildirgan «bir necha» so'zi ham (بضع ، بضعة) sanalmish ot bilan 3-10 gacha bo'lgan son kabi izofa hosil qiladi. Mas.,

بضعة أيام - bir necha kun

بضع ليالٍ - bir necha tun

2. Avval sanalmish ot, so'ng son keladi. Bunda ham sonning jinsi sanalmish otning jinsiga teskari bo'lishi shart. Gapdagi vazifasiga qarab ikkovining kelishigi o'zgarishi mumkin. Mas:

الأركان الخمسة للإسلام - Islomning beshta rukni

الصلوات الخمسة - Besh vaqt namoz

11 dan 19 gacha bo'lgan sanoq sonlar

11-19 gacha bo'lgan sonlar sanalmish bilan quyidagicha munosabatda bo'ladi:

1. 11 soni sanalmish ot bilan jinsda tog'ri moslashadi va har uch kelishikda ham tanvinsiz tushum kelishigida keladi. 1 soni uchun واحد – إحدى varianti ishlatiladi. Mas:

Shahrimizda 11 ta muzey bor - في مدينتنا أحد عشر متحفا

11 ta muzeyda - في أحد عشر متحفا

11 ta muzeyni tomosha qildik. - زرنا أحد عشر متحفا

2. 12 soni ham sanalmish ot bilan shunday munosabatda bo'ladi. Faqat 2 soni اثنا – اثنتا shaklida, qaratqich va tushumda esa اثني – اثنتي shaklida bo'ladi. Mas:

Qo'shnimizning 12 ta bolasi bor. - لجارنا اثنا عشر ولدا

12 ta uyda - في اثني عشر بيتا

12 ta kutubhonada - في اثنتي عشرة مكتبة

3. 13-19 gacha bo'lgan sonlar har doim tanvinsiz tushum kelishigida bo'ladi. Birlar honasining jinsi sanalmish ot jinsiga teskari, o'nlar honasining jinsi sanalmish ot jinsi bilan bir hil bo'ladi. Mas:

17 yil - سبعة عشر عاما

17 yilda - في سبعة عشر عاما

14 ta stol - أربع عشرة طاولة

20-99 gacha bo'lgan sonlarning ishlatilishi

Bu sonlarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. 21,31,41 va boshqalardagi 1 raqami uchun واحد – واحدة varianti olinadi va u sanalmish ot bilan jinsda tog'ri moslashadi. Birlar honasi bilan o'nlar honasi bog'lovchisi yordamida bog'lanadi hamda sanalmish ot birlikda noaniq holatda tushum kelishigida keladi. Sonlar esa har uch kelishikda uch hil turlanadi:

31 metr - واحد و ثلاثون مترا

31 metrda - في واحد و ثلاثين مترا

21 ta jurnal og'idim. - قرأت واحدة و عشرين مجلة

2. 22, 32, 42 kabi sonlarda 2 raqami uchun اثنتان – اثنتان so'zlari olinadi va u sanalmish bilan jinsda tog'ri moslashadi. Bu sonlarning sanalmish ot bilan birikuvi 21 , 31 , 41 kabilarning birikuvi bilan bir hil bo'ladi. Mas:

22 ta kitob - اثنتان و عشرون كتابا

22 ta kitobda - في اثنتين و عشرين كتابا

52 ta jurnal - اثنتان و خمسون مجلة

52 ta jurnalda - في اثنتين و خمسين مجلة

3. 23, 33, 43 va undan yuqori sonlarda birlar honasi sanalmish ot bilan teskari moslashadi. O'nlr honasi bilan و bog'lovchisi yordamida birikadi. O'ar uch kelishikda turlanadi. Sanalmish ot birlikda noaniq holatda tushum kelishigida keladi. Mas:

49 metr - تسعة و أربعون مترا

49 metrda - في تسعة و أربعين مترا

86 ta pero sotib oldim. - اشتريت ستا و ثمانين ريشة

100 va undan ortiq sanoq sonlar

Bu sonlarni ishlatishda quyidagilarni bilish kerak:

1. 100, 1000 kabi yahlit sonlar sanalmish ot bilan izofa hosil qiladi. Muzof ilayhi bo'lib kelgan sanalmish ot noaniq holatda birlikda keladi. Mas:

100 oqshom - مائة مساء

100 oqshomda - في مائة مساء

1000 kecha - ألف ليلة

1000 kechada - في ألف ليلة

2. 200 va 2000 kabi yahlit sonlar ham shu tahlit yasaladi. Faqat bu sonlarning ikkilik shakli olinadi. Mas:

200 oqshom - مائتا مساء

2000 kecha - ألفا ليلة

2000 kechada - في ألفي ليلة

3. 1000 gacha bo'lgan yuzliklarda yuz so'ziga sanalmish ot sifatida qaraladi, lekin u birlikda keladi. Sanalmish ot bilan esa izofa zanjiri hosil qilinadi. Mas:

300 - ثلاثمائة yoki ثلاث مائة

500 - خمسمائة yoki خمس مائة

300 ta studentdan - من ثلاثمئة طالب

4. YAhlit sonlardan keyin 1 yoki 2 soni qo'shilsa u quyidagicha bo'ladi:

502 ta qalam - خمسمئة قلم و قلمان

1001 kecha. - ألف ليلة و ليلة

SAVOLLAR

1. Son necha hil bo'ladi?
2. 1-10 gacha bo'lgan sanoq sonlar sanalmish bilan qanday moslashadi?
3. 21-99 gacha bo'lgan sanoq sonlarning sanalmish bilan moslashuvi qanday bo'ladi?
4. «Bir necha» so'zi qanday beriladi?
- 5.

TAYANCH IBORALAR

1. Son
2. Sanalmish
3. Moslashuv
4. Izofa shakli
5. Bir necha
6. Ko'makchi

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

42-MAVZU: ARAB TILIDA TARTIB SON.

REJA:

1.Tartib sonlar

2.Tartib sonlarning moslashish qoidalari

1 dan 10 gacha sonlar sodda sonlar bo'lib, biz ular bilan tanishmiz. 10 dan yuqorisi esa murakkab sonlarga kiradi. Sodda sanoq sonlarning sanalayotgan ism (bundan buyog'iga *sanalmish*) bilan bo'lgan sintaktik bog'lanishi turli shakllarda bo'lishi mumkin.

1) 1 va 2 sonlarini ifodalashda sanoq sonni ishlatmasa ham bo'ladi, chunki birlik yoki ikkilik sonligi uning bitta yoki ikkitaligini ko'rsatib turadi:

ikkita qalam -

قَلَمٌ qalam (bitta qalam) -

Agar sanalmishning bitta yoki ikkitaligini ta'kidlash zarur bo'lsa "bir" va "ikki" sonlari xuddi moslashgan aniqlovchi kabi sanalmishdan keyin qo'yiladi va u bilan moslashgan aniqlovchi kabi tiliq moslashadi:

bitta jurnal

مَجَلَّةٌ وَاحِدَةٌ

bitta qalam

قَلَمٌ وَاحِدٌ

ikkita jurnal

مَجَلَّتَانِ اثْنَتَانِ

ikkita qalam

قَلَمَانِ اثْنَانِ

2) 3 dan 10 gacha sanoq sonlar sanalmish bilan izofa birikmasi tuzib keladi. Bunda son aniqlanmish, sanalmish esa unga izofa bo'lib ko'plik sonda keladi. Sonning jinsi sanalmishning birlik sonidagi jinsiga teskari jinsda bo'lishi kerak:

uchta jurnal

ثَلَاثُ مَجَلَّاتٍ

uchta qalam

ثَلَاثَةُ أَقْلَامٍ

to'rtta jurnal

أَرْبَعُ مَجَلَّاتٍ

to'rtta qalam

أَرْبَعَةُ أَقْلَامٍ

8 soni "illatli harf" bilan tugagan soz bo'lgani uchun u izofaga aniqlanmish bo'lsa yoki "al" artikli olsa, "yashirinib" turgan "ي" harfi yuzaga chiqadi:

Sakkizta jurnal -

ثَمَانِيَةَ مَجَلَّاتٍ sakkizta qalam -

ثَمَانِيَةُ أَقْلَامٍ

Bunday izofa birikmasini soddalashtirish uchun uni "مِنْ" old ko'makchisi bilan bo'lib tashlash mumkin. Bu erda ham jinslar qarama-qarshiligi saqlanadi:

8 ta jurnal-

ثَمَانٍ مِنَ الْمَجَلَّاتِ

7 ta qalam-

سَبْعَةٍ مِنَ الْأَقْلَامِ

3) Sanalmish va sanoq son moslashgan aniqlovchi birikmasi tuzib, unda avval sanalmish, so'ngra son keladi. Ikkovining jinsi yuqoridagi kabi bir-biriga teskari bo'lishi va sanalmish ko'plik sonda bo'lishi shart. Masalan:

oltita qalam
beshta qoida

← الْأَقْلَامُ السِّتَّةُ
← الْقَوَاعِدُ الْخَمْسُ

أَقْلَامٌ سِتَّةٌ
قَوَاعِدُ خَمْسٍ

“أَحَدٌ – bir” سىزى ham sanoq sonni anglatadi, ammo u murakkab sonlar tarkibida keladi. Bundan tashqari أَحَدٌ سىزى gapda yana “kimdir” gumon olmoshi yoki inkor gaplarda “hech kim” ma’nosida ham ishlatiladi:

دَحَلَ أَحَدٌ Kimdir kirdi. مَا دَحَلَ أَحَدٌ. Hech kim kirmadi.

3 dan 10 gacha bʻilgan noaniq sonni بَضْعُ (muannas jinsda بَضْعَةٌ) – bir necha” سىزى ifodalaydi. Sanalmishga nisbatan u ham teskari jinsda bʻiladi va u bilan izofa birikmasi tuzib keladi:

بَضْعُ سَنَوَاتٍ bir necha yil بَضْعَةُ أَشْهُرٍ bir necha oy

4) 11 dan 19 gacha bʻilgan murakkab sanoq sonlar -birlik va ʻmlikdan tashkil topadi. 11 sonidagi “bir”ni أَحَدٌ (muannas jinsda إِحْدَى) سىزى, 12 sonidagi “ikki”ni esa اِثْنَانِ (muannas jinsda اِثْنَانِ) سىزى ifodalaydi. Bunda birlik son 10 soni bilan har ikkala komponenti tanvinsiz, faqat tushum kelishigida bʻilgan, kelishikda ʻzgarmas birikma tuzib keladi (12 dan tashqari). 11 va 12 sonlarida birlik va ʻmlik bir hil jinsda, 13 sonidan boshlab esa bir-biriga teskari jinsda bʻiladi. Sanalmish esa noaniq holatda, tushum kelishigida va birlik sonda keladi. 11 dan 99 gacha bʻilgan sanoq sonlarning 3 sonidan boshlab birligi sanalmishning jinsiga teskari jinsda bʻiladi. Ammo 1 va 2 sonlarining jinsi sanalmishning jinsi bilan bir xil jinsda bʻiladi.

11 dan 20 gacha bʻilgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi:

tarjimasi	Sanalmish muannas jinsda bʻilsa	tarjimasi	Sanalmish muzakkar jinsda bʻilsa
11 11ta jurnal	إِحْدَى عَشْرَةَ مَجَلَّةً	11ta kitob	أَحَدَ عَشَرَ كِتَابًا
12 12ta jurnal	اِثْنَانِ (اِثْنَيْنِ) عَشْرَةَ مَجَلَّةً	12ta kitob	اِثْنَانِ (اِثْنَيْنِ) عَشَرَ كِتَابًا
13 13ta jurnal	ثَلَاثَ عَشْرَةَ مَجَلَّةً	13ta kitob	ثَلَاثَةَ عَشَرَ كِتَابًا
14 18ta jurnal	ثَمَانِيَةَ عَشْرَةَ مَجَلَّةً	18ta kitob	ثَمَانِيَةَ عَشَرَ كِتَابًا
20 20ta jurnal	عِشْرُونَ مَجَلَّةً	20ta kitob	عِشْرُونَ كِتَابًا
21 21ta jurnal	وَاحِدَةً وَعِشْرُونَ مَجَلَّةً	21ta kitob	وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ كِتَابًا

1 DAN 20 GACHA TARTIB SONLARNING SANALMISH BILAN KELISHI

10 gacha bʻilgan tartib sonlar va ularning sanalmish bilan kelishi bizga "Moslashgan aniqllovchi" darsidan ma’lum.

11 dan 19 gacha bʻilgan tartib sonlar ham sanoq sonlar kabi mabniy sonlardir. Sanalmish bilan kelayotganda ularning ikkala komponenti ham tushum kelishigida bʻiladi va faqat birliklari ا l artikli oladi. Tartib sonlarning ʻmlik, yuzlik, minglik va ulardan katta yaxlit sonlari sanoq son shaklida bʻiladi. “Birinchii” سىزى ʻmida حَادٍ (الْحَادِي) muannas jinsda حَادِيَّةٌ (الْحَادِيَّةُ) سىزى ishlatiladi. Masalan:

tarjima	sanalmish muannas jinsda bʻilsa	tarjima	sanalmish muzakkar jinsda bʻilsa
11-kecha	اللَّيْلَةُ الْوَاحِدَةُ عَشْرَةَ	11- dars	الدَّرْسُ الْوَاحِدُ عَشَرَ
12-kecha	اللَّيْلَةُ الثَّانِيَةُ عَشْرَةَ	12- dars	الدَّرْسُ الثَّانِي عَشَرَ
13-	اللَّيْلَةُ الثَّالِثَةُ عَشْرَةَ	13- dars	الدَّرْسُ الثَّالِثُ عَشَرَ

SAVOLLAR

1. Son necha hil bo'ladi?
2. 1-10 gacha bo'lgan tartib sonlar sanalmish bilan qanday moslashadi?
3. 21-99 gacha bo'lgan tartib sonlarning sanalmish bilan moslashuvi qanday bo'ladi?
4. «Bir necha» so'zi qanday beriladi?

TAYANCH IBORALAR

1. Son
2. Sanalmish
3. Moslashuv
4. Izofa shakli
5. Bir necha
6. Ko'makchi

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvveshenii. M., 1998.

43-MAVZU: ARAB TILIDA KUNLAR, OYLAR VA YILLARNING IFODALANISHI. REJA:

1. Kunlarning ifodalanishi
2. Oylarning ifodalanishi
3. Yillarning ifodalanishi

Dunyo mamlakatlarining aksariyatida yil hisobi Iso Masihning tug'ilgan kunidan boshlanadi. Bu taqvim "milodiy" (milod-tug'ilish) deb ataladi. Milodiy taqvim bo'yicha bir yil 365 kun (har to'rt yilda bir keladigan kabisa yili 366 kun)dan iborat.

Musulmon mamlakatlarining asosiy ko'pchiligida Muhammad (s.a.v.)ning 622 milodiy yilda Makkadan Madinaga *hijrat* (ketish, ko'chish) qilganlaridan boshlanadigan yil hisobi ham joriy etilgan. Bu taqvim "hijriy taqvim" deyiladi. Hijriy taqvim "qamariy" yoki "shamsiy" bo'ladi.

Hijriy-qamariy taqvimda hisob oyning samodagi holatiga ko'ra olib boriladi. Bir oy 29 kun bo'lsa, keyingi oy 30 kun, undan keyingisi yana 29 kun bo'ladi va hokazo. SHunda bir yil 354 kundan iborat bo'ladi. Milodiy taqvimning 32 yili hijriy-qamariy taqvimning 33 yiliga tengdir. Milodiy yilning qaysi hijriy-qamariy yiliga to'g'ri kelishini quyidagicha hisoblab chiqariladi:

$$m-622+m622/32qh.$$

(Bunda m.-milodiy yilni, h.-hijriy yilni anglatadi).

Masalan: 2005m.-622+2005m.-622/32q1426h.

Demak 2005 m. yil 1426 hijriy-qamariy yilga to'g'ri keladi.

Hijriy-qamariy yilning qaysi milodiy yilga to'g'ri kelishi quyidagicha aniqlanadi:

$$H.-h./33+622qm.$$

Masalan: 1410h.-1410h./33+622q1990m.

Demak 1410h. qamariy yil 1990 m. yilga to'g'ri keladi.

Hijriy-shamsiy taqvim Eronda joriy qilingan. Bu hisob bo'yicha yilning uzunligi milodiy taqvimdagi kabi 365 kunga teng. Milodiy taqvim bilan hijriy-shamsiy taqvim o'rtasidagi farq-622 yil. Masalan, 2005m. yil 1383h. shamsiy yilga to'g'ri keladi (2005-622q1383).

Arab tilida yillar tartib son bilan ifodalanadi:

العام الألفان والخامس الميلادي yoki السنة الألفان والخامسة الميلادية-2005م. 2005m.yil-

-السنة الألف والأربعمئة والثانية والعشرون الهجرية- 1422هـ. 1422h.yil-

العام الألف والأربعمئة والثاني والعشرون الهجري

Yil sanoq sonlarda ko'rsatilib, عام, سنة so'zlaribilan izofa birikmasini hosil qilishi ham mumkin:

عام ألف وتسعمئة وتسعة وتسعين الميلادي-1999م. 1999m.-

سنة ألف وأربعمئة واثنى عشرة الهجرية- 1412هـ. 1412h.-

Oy nomlari

Arab mamlakatlarida milodiy taqvim bilan oylarning ikki xil-ovrupocha va suryoniycha nomlari ishlatiladi:

№	Oy	ovrupocha	suryoniycha
1	Yanvar	يَنَائِرُ	كانون الثاني
2	Fevral	فَبْرَائِرُ	شَبَّاطُ
3	Mart	مَآرِسُ	أَدَارُ
4	Aprel	أَبْرِيلُ	نَيْسَانُ
5	May	مَآيُو	أَيَّارُ
6	Iyun	يُونْيُو	حَزِيرَانُ
7	Iyul	يُولْيُو	تَمُوزُ
8	Avgust	أَغُسْطُسُ	أَبُ
9	Sentyabr	سَبْتَمْبَرُ	أَيْلُولُ
10	Oktyabr	أَكْطُوبَرُ	تَشْرِينُ الْأَوَّلُ
11	Noyabr	نُوفَمْبَرُ	تَشْرِينُ الثَّانِي
12	Dekabr	دِسْمَبَرُ	كانون الأول

Hijriy-qamariy taqvim bilan esa, Islomgacha bo'lgan davrda ham ishlatilgan asli arabcha oy nomlari qo'llaniladi. Ular quyidagilar:

المَحْرَمُ، صَفَرٌ، رَبِيعُ الْأَوَّلِ، رَبِيعُ الثَّانِي، جُمَادَى الْأَوَّلِ، جُمَادَى الْآخِرَةِ، رَجَبٌ، شَعْبَانُ، رَمَضَانُ، شَوَّالٌ، ذُو الْقَعْدَةِ، ذُو الْحِجَّةِ

Oy kunlari quyidagicha ifodalanadi:

أول أيلول yoki اليوم الأول من شهر أيلول – 1 sentyabr

ثامن ديسمبر yoki اليوم الثامن من شهر كانون الأول (ديسمبر) – 8 dekabr

Hafta kunlari

Arab mamlakatlarida haftaning birinchi kuni shanba, oxirgi kuni juma hisoblanadi. Hafta kunlarining nomlari quyidagilar:

SHanba	السَّبْتُ	Seshanba	الثَّلَاثَاءُ
YAkshanba	الأَحَدُ	Chorshanba	الأَرْبَعَاءُ
Dushanba	الاِثْنَيْنِ	Payshanba	الْخَمِيسُ
الْجُمُعَةُ Juma			

Soatni ifodalash

Arab tilida soat tartib son bilan ifodalanadi:

Soat to'qqiz – الساعة التاسعة

Soat ettida – في الساعة السابعة

Vaqtning belgilashda «Soat 17, 23» kabi 12dan ortiq sonlar ishlatilmaydi. SHuning uchun odatda, vaqtning belgilashda «ertalab – صباحا», «peshindan oldin» – قبل الظهر, «peshindan keyin» – بعد الظهر, «kechqurun» – مساءً, «tungi» – ليلاً so'zlari qo'shib aytiladi.

Daqiqalar miqdori soatni bildirgan raqamga «o'tdi», «oshdi» ma'nosidagi bog'lovchisi yo «kam» ma'nosini anglatadigan yuklamasi bilan bog'lanadi. Bu ma'nodagi yuklamasidan keyingi so'z tushum kelishigida bo'ladi. Misollar:

Ertalabki soat sakkizdan o'n minut o'tdi – الساعة الثامنة وعشر دقائق صباحاً

Kechki chorak kam beshda – في الساعة الخامسة إلا ربعاً مساءً

SAVOLLAR

1. Arab tilida kunlar qanday ifodalanadi?
2. Arab tilida oylar qanday ifodalanadi?
3. Arab tilida yillar qanday ifodalanadi?
4. Arab tilida soat qanday ifodalanadi?

TAYANCH IBORALAR

1. Kunlar
2. Oylar
3. Yillar
4. Soat
5. Bir necha
6. Ko'makchi

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

44-MAVZU: ARAB TILIDA KUNLAR, OYLAR VA YILLARNING IFODALANISHI.

REJA:

1. Buyruq mayli
2. Buyruq maylining yasaliishi
3. Buyruq maylining ishlatilishi
4. Istak maylining yasaliishi
5. Istak maylining ishlatilishi
6. Istak mayli yuklamalari
7. Istak maylini ifodalashda ishlatiluvchi yordamchi fe'llar

Buyruq maylidagi fe'l 2 va 3- shaxsdagi buyruq, iltimos ma'nolarini bildiradi (og'i, og'ing, og'isin, og'isinlar), 1 shaxsda esa hohish, istak ma'nolarini ifodalaydi (og'iy, og'iylik).

Buyruq mayli arab tilida **فعل الأمر** deb yuritiladi va u shart mayli asosida yasaladi. 2 shaxs uchun buyruq shart mayli oldidagi **ت** qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan hosil qilinadi. Bunda so'z boshidagi yonma-yon turgan va bir bog'in ichidagi ikkita undosh tovush ular oldiga vaslali hamzani qo'yish bilan ikki bog'inga ajratiladi.

Masalan:

فَتَحَ - تَفْتَحُ - تَفْتَحْ - اِفْتَحْ
دَخَلَ - تَدْخُلُ - تَدْخُلْ - اَدْخُلْ
جَلَسَ - تَجْلِسُ - تَجْلِسْ - اِجْلِسْ

Buyruq maylidagi fe'l oldiga qo'yilgan vaslali hamzaning harakati felning hozirgi-kelasi zamondagi o'rta o'zak undoshi harakatiga bog'liq. Agar o'rta o'zak undoshining harakati - **و** «damma» bo'lsa, vasali hamza - **و** og'iladi.

دَخَلَ - تَدْخُلُ - تَدْخُلْ - اَدْخُلْ

Agar o'rta o'zak undoshi harakati fatha yoki kasra bo'lsa, vaslali hamza kasra harakatini oladi.

اِجْلِسْ اِجْلِسْ

Agar buyruq maylidagi fe'l gapning o'rtasida bo'lsa va undan oldingi so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, vaslali hamza qoidasiga binoan yoziladi, lekin og'ilmaydi:

قُلْتُ اِجْلِسْ

Ikkinchi shaxs buyruq mayli son va jinsda quyidagicha tuslanadi:

Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
Muzakkar	أَدْخُلُوا	أَدْخُلَا	أَدْخُلْ
Muannas	أَدْخُلْنَ	أَدْخُلَا	أَدْخُلِي

Buyruq maylining 1 va 3 shaxslari shu shaxsdagi fe'lning shart mayli oldiga **ل** yuklamasini qo'yish orqali yasaladi:

لِنَدْخُلْ لِنَدْخُلْ

Hamma shaxslar uchun buyruq maylining inkor shakli shart mayli oldiga **لَا** yuklamasini quyish orqali hosil qilinadi:

لَا تَجْلِسِي لَا يَكْتُبُوا

Ba'zan 3 shaxsga nisbatan buyruq mayli o'rnida o'tgan zamon fe'li ham ishlatilishi mumkin:

عَاشِ السَّلَامَ
طَابَتْ لَيْلَتُكُمْ

Fe'llarning istak mayli hozirgi-kelasi zamon shaklidan oxirgi undosh harakatini fathalash yo'li bilan yasaladi.

Shahs	Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
I		نَكْتُبْ	-	أَكْتُبْ
II	m.z.	نَكْتُبُوا	تَكْتُبَا	تَكْتُبْ
II	m.n.	تَكْتُبْنَ		تَكْتُبِي
III	m.z.	يَكْتُبُوا	يَكْتُبَا	يَكْتُبْ
III	m.n.	يَكْتُبْنَ	تَكْتُبَا	تَكْتُبْ

Istak mayli quyidagi vazifalarda ishlatiladi.

1. Ish-harakatni bajarishdan ko'zlangan maqsadni ifodalash uchun feldan oldin **ل** yoki **ي** yuklamasi ishlatiladi. **ل** yuklamasi istak maylidagi fe'lga qo'shib yoziladi.

Masalan:

لِيُزُورُوا - Ular ziyorat qilishlari uchun, ular ziyorat qilsinlar deb.

كَيْ أَفْهَمَ - Tushunishim uchun, tushunishim maqsadida.

Bu ibolralar oldidan o'tgan yoki hozirgi-kelasi zamondagi fe'l ham kelishi mumkin.

أسمع كي أفهم - *Tushunishim uchun quloq solyapman*

ذهب الطلاب ليزوروا - *Studentlar ziyorat qilish uchun ketdilar.*

Ba'zan har ikkala yuklama qo'shilib kelishi mumkin va u ham yuqoridagi ma'noni anglatish uchun ishlatiladi.

Masalan:

أسمع لكي أفهم - *tushunishim uchun quloq solyapman*

Agar istak maylidagi fe'l inkor ma'noda bo'lsa, mazkur yuklamalardan keyin لا yuklamasi qo'yiladi:

ل + كي + لا = لكيلا

لا تظلم لكيلا تظلم - *Zulm ko'rmayin desang, zulm qilma*

2. Istak, maqsad, niyat, zarurat, imkoniyat, qaror, rozilik, man' etish, buyruq, iltimos, hursandchilik, qo'rquv, taajjub va shunga o'hshash turli hissiyotlarni ifodalovchi fe'llardan keyin o'sha fe'llarning ikkinchi komponenti sifatidagi fe'l istak maylida keladi va istak maylidagi fe'ldan oldin أن, agar istak mayli inkor ma'noda bo'lsa لا + أن = yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

اسمح لي أن أقرأ - *og'ishimga ruhsat bering*

قصدت أن أدخل غرفة العميد - *Dekan honasiga kirishga jazm qildim*

Istak mayli mazkur ma'noda ishlatilganda undan oldin (يريد) أراد استطاع, *qo'lidan kelmoq, qila olmoq* fe'llari ishlatiladi:

نريد أن نرجع إلى بيتنا - *Uyimizga qaytmoqchimiz*

نستطيع أن نكتب بالعربية - *Biz arabcha yoza olamiz*

3. Zaruriyatni, imkoniyatni bildiruvchi ayrim fe'llardan keyin yuklamasi bilan birga ishlatiladi.

Bu fe'llarning xususiyati shuki, shaxs va sonda tuslanmasdan, bir hil qolipda ishlatiladi va ish-harakatning kimga tegishli ekanligini va shu fe'ldan keyingi predlog yoki shu fe'ling o'ziga qo'shilib kelgan olmoshlar orqali ifodalanadi. Bular quyidagi fe'llardir: يجب على - kerak, lozim, يمكن - mumkin, ينبغي ل - kerak.

Masalan:

يجب عليه أن يسكت - *u jim turishi kerak*

يجب عليك أن تكدح - *sen mehnat qilishing kerak*

ينبغي لك أن ترجع - *sen qaytishing kerak*

يمكنني أن أذهب - *borishim mumkin*

Ayrim hollarda zaruriyatni ifodalovchi bu fe'llar tushib qolib, ulardan keyingi predloglarning o'zi shu fe'l bildirgan ma'nolarda ishlatilishi mumkin:

علينا أن نذهب - *biz ketishimiz kerak*

لكم أن تفهموا - *sizlar tushunishingiz kerak*

4. Ba'zan istak maylidagi fe'l بعد, قبل predloglaridan keyin ham ishlatilishi mumkin:

إغسل يديك قبل أن تأكل - *ovqatlanishdan oldin qo'lingni yuv*

5. Istak mayli حتى yuklamasidan keyin ham ishlatiladi va «gacha» ma'nosini bildiradi:

سهرت حتى ينتصف الليل - *tun yarim bo'lguncha bedor bo'ldim*

6. أن inkor yuklamasidan keyin istak mayli ishlatiladi va kelasi zamonda mutlaqo amalga oshmaydigan ish-harakatni ifodalaydi:

لن أذهب معك أبدا - *men hech qachon sen bilan bormayman*

TAYANCH IBORALAR

1. Istak mayli
2. Istak mayli yuklamalari
3. استطاع fe'li
4. Buyruq mayli

SAVOLLAR

1. Istak mayli qanday yasaladi?

2. Istak mayli nimalarni ifodalashda ishlatiladi?
3. Istak maylida qaysi yuklamalardan foydalaniladi?
4. Istak maylida inkor qanday ifodalanadi?
5. Buyruq mayli qanday ifodalandi?
6. Buyruq mayli nimalarni ifodalashda ishlatiladi?

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.

45-MAVZU: ARAB TILIDA SIFATDOSHLAR.

REJA:

1. Sifatdoshlar haqida ma'lumot.
2. Sifatdoshlarning turlari.
3. Aniq daraja sifatdoshlari.
4. Majhul daraja sifatdoshlari.
5. Sifatdoshlarning gapdagi vazifasi.
6. O'sila boblarida sifatdoshlar.

Sifatdoshlar arab tilida fe'ldan hosil bo'lgan va o'zida ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlarni mujassamlashtirilgan so'zlardir. Arab tilidagi sifatdoshlarning o'zbek tilidagidan farqi shuki, o'zbek tilida ular zamonga qarab o'zgarsa (borgan, borayotgan) arab tilida barcha zamonlar uchun bir hil shaklga ega.

Sifatdoshlar ikki hil bo'ladi:

1. Aniq nisbat sifatdoshlari. Bular 1 bob fe'lidan فَاعِلٌ qolipida hosil bo'ladi va fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini (sub'ektini) bildiradi.

Masalan: شَرِبَ - شَارِبٌ - kiruvchi. دَخَلَ - دَاخِلٌ - ichuvchi

Bu so'zlar ism toifasidagi boshqa so'zlar kabi ال artiklini olishi, jinsda va sonda hamda kelishikda turlanishi mumkin.

Masalan: الدَاخِلُونَ - الدَاخِلَان - الدَاخِلُ
الدَاخِلَاتُ - الدَاخِلَتَان - الدَاخِلَةُ

2. Majhul daraja sifatdoshlari. Bular 1 bob fe'lidan مَفْعُولٌ vazniida hosil bo'ladi, hamda fe'l ifodalangan ish-harakat ob'ekti bo'lgan predmetni yoki ish-harakat natijasida hosil bo'lgan natijani (ish-harakat natijasini) bildiradi.

مَفْتُوحٌ - فَتَحَ - ochilgan.

مَشْرُوبٌ - شَرِبَ - ichilgan.

مَقْتُولٌ - قَتَلَ - o'ldirilgan

Bular ham aniq daraja sifatdoshlari kabi ismlarga hos umumiy xususiyatlarga ega.

Agar majhul daraja sifatdoshi o'zidan keyin u yoki bu predlogni talab qiladigan fe'ldan yasalgan bo'lsa, u jinsda va sonda o'zgarmasdan har doim muzakkar birlikda ishlatiladi. Jins va sonda esa sifatdoshdan keyin keluvchi predlogga qo'shilib kelgan olmosh moslashadi.

غَضِبَ عَلَى - غَاظِبٌ عَلَيْهِ - غَاظِبٌ عَلَيْهَا

Aniq va majhul daraja sifatdoshlar gapda turli vazifalarni bajaradi:

1. Ular masdar kabi otlashishi va gapda ot bajaradigan vazifani bajarishi mumkin:

Masalan:

عالم - biluvchi - olim.

2. Sifatdoshlar ko'pmncha gapda moslashgan aniqlovchi vazifasida keladi.

Masalan:

عالم مشهور - mashhur olim

3. Gapning kesimi vazifasini bajaradi va bunda nutq so'zlashib tungan paytda amalga oshayotgan ish-harakatni ifodalaydi.

أنا ذاهب

O'sila boblarida aniq va majhul daraja sifatdoshlari hozirgi kelasi zamon - aniq va majhul daraja fe'llari oldidagi qo'shimchasini olib, o'rniga qo'shimchasini qo'shish va oxirgi o'zakni tanvinlash yo'li bilan yasaladi.

Aniq va majhul daraja sifatdoshlari.

boblar	Aniq daraja sifatdoshlari	Majhul daraja sifatdoshlari
I	فَاعِلٌ	مَفْعُولٌ
II	مُفَعِّلٌ	مُفَعِّلٌ
III	مُفَاعِلٌ	مُفَاعِلٌ
IV	مُفَعِّلٌ	مُفَعِّلٌ
V	مُتَفَعِّلٌ	مُتَفَعِّلٌ
VI	مُتَفَاعِلٌ	مُتَفَاعِلٌ
VII	مُتَفَعِّلٌ	مُتَفَعِّلٌ
VIII	مُتَفَعِّلٌ	مُتَفَعِّلٌ
IX	مُفَعِّلٌ	مُفَعِّلٌ
X	مُسْتَفَعِّلٌ	مُسْتَفَعِّلٌ

SAVOLLAR

1. Sifatdoshlar nima?
2. Sifatdoshlarning turlari.
3. Aniq daraja sifatdoshlari.
4. Sifatdoshlarning gapdagi vazifasi.
5. Hosila boblarida sifatdoshlar.

TAYANCH IBORALAR

1. Sifatdosh.
2. Aniq daraja sifatdosh.
3. Majhul daraja sifatdosh.
4. Hosila boblarida sifatdoshlar.
5. Aniqlovchi.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

46-MAVZU: ARAB TILIDA II BOB FE'LI.

REJA:

1. Fe'llarning ikkinchi bobi
2. Ikkinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. Ikkinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. Ikkinchi bob fe'lining ma'nolari

II bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
نُقِبْتُ	----	أُقِبْتُ	لُقِبْنَا	----	أُقِبْتُ	muz. I sh. muan.
نُقِيبُونَ	نُقِيبَانِ	نُقِيبُ	لُقِيبُكُمْ	لُقِيبُمَا	لُقِيبُ	muz. II sh. muan.
يُنُقِبُونَ	يُنُقِيبَانِ	يُنُقِيبُ	لُقِبُوا	لُقِبَا	لُقِبَ	muz. III sh. muan.
يُنُقِبْنَ	يُنُقِيبَانِ	نُقِيبُ	لُقِبْنَ	لُقِبَا	لُقِبْتُ	

II bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. Ish-harakatni bironvaga qildirish- kauzativlik ma'nosi. Bunda o'timsiz fe'l o'timli, o'timli fe'l esa o'ta o'timli (ya'ni ikkita to'ldiruvchini boshqarib keladigan) fe'lga aylanadi:

U <u>yozishni</u> bildi.	I عِلْمَ الْكِتَابَةِ
U o'quvchigayozishni o'rgatdi.	II عِلْمَ التَّلْمِيزِ الْكِتَابَةِ

2. Ish-harakatni kuchaytiradi:

maydalab tashlamoq	قَطَعَ (يَقْطَعُ) تَطْلِيعُ II	<u>bo'lmoq</u> <u>kesmoq</u>	I قَطَعَ
vayron qilmoq	حَطَمَ (يُحْطِمُ) تَحْطِيطُ II	buzmoq	I حَطَمَ

3. Ismning ma'nosini fe'llashtiradi - ismni fe'lga aylantiradi:

arablashtirmoq	عَرَبَ (يُعَرِّبُ) II	arab	عَرَبِيٌّ
yogʻoch qilib chiqmoq	حَسَبَ (يُحَسِّبُ) II	yogʻoch	حَشَبٌ
devor bilan oʻrab chiqmoq	سَوَّرَ (يُسَوِّرُ) II	devor	سُورٌ

4. "...deb bilmoq", eʼlon qilmoq maʼnolarini bildiradi:

rost deb bilmoq; ishonmoq	صَدَّقَ (يُصَدِّقُ) II	rost soʻzlamoch	I صَدَقَ
yolgʻon deb bilmoq; rad qilmoq	كَذَّبَ (يُكَذِّبُ) II	yolgʻon soʻzlamoch	I كَذَّبَ

II bob feʼlining mayllari biz yuqorida tanishib oʻtgan (I bob feʼliga oid boʻlgan) qoidalar asosida hosil qilinadi.

SAVOLLAR

1. Arab tilida II bob feʼli?
2. Ikkinchi bob feʼli qanday vazlarda yasaladi?
3. Ikkinchi bob feʼining majhul nisbati qanday yasaladi?
4. Ikkinchi bob feʼlining oʻtgan zamon shakli qanday yasaladi?
5. Ikkinchi bob feʼlining hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?
6. Ikkinchi bob feʼlining maʼnolari?

TAYANCH IBORALAR

1. Vazn.
2. Oʻtgan zamon shakli.
3. Hozirgi-kelasi zamon shakli.
4. Majhul nisbat shakli.
5. Inkori shakli.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yazʼka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

**46-MAVZU: ARAB TILIDA III BOB FE'LI.
REJA:**

1. Fe'llarning uchunchi bobi
2. Uchunchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. Uchunchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. Uchunchi bob fe'lining ma'nolari

III bob fe'li masdari **فَعَالٌ** qolipida ham hosil qilinadi. Ba'zi III bob fe'llarning masdari har ikkala qolipda hosil qilinadi.

III bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

Hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
تُسَافِرُونَ	تُسَافِرَانِ	تُسَافِرُ	سَافَرْنَا	سَافَرْتُمْ	سَافَرْتُ	muz. I sh. muan.
تُسَافِرُونَ	تُسَافِرَانِ	تُسَافِرُ	سَافَرْنَا	سَافَرْتُمْ	سَافَرْتُ	muz. II sh. muan.
يُسَافِرُونَ	يُسَافِرَانِ	يُسَافِرُ	سَافَرْنَا	سَافَرْتُمْ	سَافَرْتُ	muz. III sh. muan.

III bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. Ikki shaxs yoki ikki tomon o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydi:

yo'zishmoq	كَتَبَ (يَكْتُبُ) مُكَاتَبَةٌ III	yo'zmoq	كَتَبَ I
bellashmoq	سَبَقَ (يُسَابِقُ) مُسَابَقَةٌ ، سَبَاقٌ III	o'zib ketmoq	سَبَقَ I
kurashmoq	نَاضَلَ (يُنَاضِلُ) مُنَاضَلَةٌ ، نِضَالٌ III		نَاضَلَ I

1. Bir shaxsga xos bo'lgan ish yoki xususiyatni boshqa shaxsga nisbatan qo'llash—ishlatish ma'nosini beradi:

sadoqatli bo`lmoq	صَادَقَ (يُصَادِقُ) مُصَادَقَةٌ III	rost gapirmoq, sodiq bo`lmoq	صَدَقَ I
----------------------	-------------------------------------	---------------------------------	----------

3. III bob fe'llari ichida ma'nolari yuqoridagi ma'nolarga mos kelmagan bir necha fe'llar ham bor:

latifa aytib (birovning) ko`nglini xush qilmoq	نَدَرَ (يُنَادِرُ) مُنَادَرَةٌ III	kamyob, nodir bo`lmoq	نَدَرَ I
---	------------------------------------	--------------------------	----------

SAVOLLAR

1. Arab tilida III bob fe'li?
2. Uchunchi bob fe'li qanday vazlarda yasaladi?
3. Uchunchi bob fe'ining majhul nisbati qanday yasaladi?
4. Uchunchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli qanday yasaladi?
5. Uchunchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?
6. Uchunchi bob fe'lining ma'nolari?

TAYANCH IBORALAR

1. Vazn.
2. O'tgan zamon shakli.
3. Hozirgi-kelasi zamon shakli.
4. Majhul nisbat shakli.
5. Inkor shakli.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

47-MAVZU: ARAB TILIDA IV BOB FE'LI.

REJA:

1. Fe'llarning to'rtinchi bobi
2. To'rtinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. To'rtinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. To'rtinchi bob fe'lining ma'nolari

IV bob fe'lining barcha shakllarining boshida kelgan hamza qat'iy (o'qiladigan) hamzadir. U vasi qilinmaydi.

IV bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

Hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
تُكْرَمُونَ	----	أَكْرَمُ	أَكْرَمْنَا	----	أَكْرَمْتُ	muz. I sh. muan.
تُكْرَمُونَ	تُكْرَمَانِ	تُكْرَمُ	أَكْرَمْتُمْ	أَكْرَمْتُمَا	أَكْرَمْتُ	muz. II sh. muan.
تُكْرَمُونَ	تُكْرَمَانِ	تُكْرَمِينَ	أَكْرَمْتُنَّ	أَكْرَمْتُمَا	أَكْرَمْتُ	muz. III sh. muan.
يُكْرَمُونَ	يُكْرَمَانِ	يُكْرَمُ	أَكْرَمُوا	أَكْرَمَا	أَكْرَمَ	muz. III sh. muan.
يُكْرَمُونَ	تُكْرَمَانِ	تُكْرَمُ	أَكْرَمْنَا	أَكْرَمْنَا	أَكْرَمْتُ	muz. III sh. muan.

IV bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. II bob fe'lidagi kabi o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga, o'timli fe'lni esa o'ta o'timli fe'lga aylantirib, qisqa muddatli ish-harakatni bildirib keladi:

bildirmoq	IV أَعْلَمَ (يُعْلِمُ) إِعْلَامٌ	o'rgatm oq	II عَلَّمَ	I عَلِمَ
tushuncha bermoq	IV أَفْهَمَ (يُفْهِمُ) إِفْهَامٌ	tushuntir moq	II فَهَّمَّ	I فَهِمَ

1. Ismning ma'nosini bildirgan tarafga qarab yo'l olish ma'nosini bildiradi:

dengizga yo'l olmoq	IV أَبْحَرَ (يُبْحِرُ) إِبْحَارٌ	dengiz	بَحْرٌ
------------------------	----------------------------------	--------	--------

2. Ushbu bobdagi ba'zi fe'llar o'timsizligicha qoladi:

meva qilmoq	IV أَثْمَرَ (يُثْمِرُ) إِثْمَارٌ	meva	ثَمَرٌ
-------------	----------------------------------	------	--------

SAVOLLAR

1. Arab tilida IV bob fe'li?
2. To'rtinchi bob fe'li qanday vazlarda yasaladi?
3. To'rtinchi bob fe'lining majhul nisbati qanday yasaladi?
4. To'rtinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli qanday yasaladi?
5. To'rtinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?
6. To'rtinchi bob fe'lining ma'nolari?

TAYANCH IBORALAR

1. Vazn.
2. O'tgan zamon shakli.
3. Hozirgi-kelasi zamon shakli.
4. Majhul nisbat shakli.
5. Inkori shakli.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

48-MAVZU: ARAB TILIDA V BOB FE'LI.

REJA:

1. Fe'llarning beshinchi bobi
2. Beshinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. Beshinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. Beshinchi bob fe'lining ma'nolari

V bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

Hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
نَفَعُوا	----	نَفَعْتُ	نَفَعْنَا	----	نَفَعْتُ	muz. I sh. muan.
نَفَعُونَ	نَفَعَانِ	نَفَعُ	نَفَعْتُمْ	نَفَعْتُمَا	نَفَعْتَ	muz. II sh.
نَفَعْنَ	نَفَعَانِ	نَفَعِينَ	نَفَعْتُمْ	نَفَعْتُمَا	نَفَعْتَ	

						muan.
يَفْتَحُونَ	يَفْتَحَانِ	يَفْتَحُ	تَفْتَحُوا	تَفْتَحَا	تَفْتَحْ	muz.
يَفْتَحْنَ	تَفْتَحَانِ	تَفْتَحْ	تَفْتَحْنَ	تَفْتَحَا	تَفْتَحْ	III sh.
						muan.

V bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. V bob fe'li II bob fe'li oldiga ت qo'shimchasini qo'shib yasalgani uchun bu bob fe'li ifodalagan ma'noni o'zlik ma'noda ifodalaydi:

gaplashmoq	تَكَلَّمَ (يَتَكَلَّمُ) V	gapirmoq	كَلَّمَ II
o'rganmoq	تَعَلَّمَ (يَتَعَلَّمُ) V	o'rgatmoq	عَلَّمَ II

2. V bob fe'li I bob fe'li ifodalagan ma'noni o'zida mujassamlashtirish yoki unga o'xshashga urinish ma'nosini ifodalaydi:

o'zini katta tutmoq	تَكَبَّرَ (يَتَكَبَّرُ) V	katta bo'lmoq	كَبُرَ I
chiroyli bo'lishga intilmoq	تَجَمَّلَ (يَتَجَمَّلُ) V	chiroyli bo'lmoq	جَمَّلَ I

SAVOLLAR

1. Arab tilida V bob fe'li?
2. Beshinchi bob fe'li qanday vazlarda yasaladi?
3. Beshinchi bob fe'lining majhul nisbati qanday yasaladi?
4. Beshinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli qanday yasaladi?
5. Beshinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?
6. Beshinchi bob fe'lining ma'nolari?

TAYANCH IBORALAR

1. Vazn.
2. O'tgan zamon shakli.
3. Hozirgi-kelasi zamon shakli.
4. Majhul nisbat shakli.
5. Inkor shakli.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.

3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A«Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvveshenii. M., 1998.

49-MAVZU: ARAB TILIDA VI BOB FE'LI.

REJA:

1. Fe'llarning oltinchi bobi
2. Oltinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. Oltinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. Oltinchi bob fe'lining ma'nolari

VI bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

Hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
تَتَعَامَلُ	----	أَتَعَامَلُ	تَعَامَلْنَا	-----	تَعَامَلْتُ	muz. I sh. muan.
تَتَعَامَلُونَ نَ	تَتَعَامَلَانِ	تَتَعَامَلُ	تَعَامَلْتُمْ	تَعَامَلْتُمَا	تَعَامَلْتُ	muz. II sh. muan.
تَتَعَامَلُونَ	تَتَعَامَلَانِ	تَتَعَامَلِينَ	تَعَامَلْتُمْ	تَعَامَلْتُمَا	تَعَامَلْتُ	muz. III sh. muan.
يَتَعَامَلُونَ نَ	يَتَعَامَلَانِ	يَتَعَامَلُ	تَعَامَلُوا	تَعَامَلَا	تَعَامَلَ	muz. III sh. muan.
يَتَعَامَلُونَ	يَتَعَامَلَانِ	يَتَعَامَلُ	تَعَامَلْنَا	تَعَامَلْنَا	تَعَامَلْتُ	muz. III sh. muan.

VI bobning quyidagi ma'nolari bor:

1. Ko'pchilik o'rtasidagi o'zaro, bir-biriga nisbatan qilingan ish-harakatni ifodalaydi:

o'zaro muzokara olib bomoq	تَخَاطَبَ (يَتَخَاطَبُ) تَخَاطَبُ VI	muzokara olib bomoq	خَاطَبَ III
bir — biri bilan musobaqalashmoq	تَسَابَقَ (يَتَسَابَقُ) تَسَابَقُ VI	musobaqalashmoq	سَابَقَ III

1. Ish-harakatning bajarilish jarayonida uning tadrijiy suratda ko`payib borishi yoki kamayishini ifodalaydi:

asta-sekin	تَهَيَّأُ (يَتَهَيَّأُ) تَهَيَّأُ	pasaymoq, qo`nmoq	هَبَّأُ
pasaymoq			
buyuklashmoq	تَعَظَّمُ (يَتَعَظَّمُ) تَعَظَّمُ	buyuk bo`lmoq	عَظُمَ

2. O`zini biror holatga solib ko`rsatish, mug`ombirlik qilish ma`nosi:

o`zini bilmaganga olmoq	تَجَاهَلَ (يَتَجَاهَلُ) تَجَاهَلَ	ilmsiz bo`lmoq	جَهَلَ
yolg`ondan oqsamoq	تَعَارَجَ (يَتَعَارَجُ) تَعَارَجَ	oqsamoq	عَرَجَ

SAVOLLAR

1. Arab tilida VI bob fe`li?
2. Oltinchi bob fe`li qanday vazlarda yasaladi?
3. Oltinchi bob fe`lining majhul nisbati qanday yasaladi?
4. Oltinchi bob fe`lining o`tgan zamon shakli qanday yasaladi?
5. Oltinchi bob fe`lining hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?
6. Oltinchi bob fe`lining ma`nolari?

TAYANCH IBORALAR

1. Vazn.
2. O`tgan zamon shakli.
3. Hozirgi-kelasi zamon shakli.
4. Majhul nisbat shakli.
5. Inkor shakli.

ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz`ka, 1981.
2. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995.
3. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.
4. M.Hasanov., Arab tili darsligi, Toshkent, 2007.
5. Kovalyov A.A., SHarbatov G.SH. «Uchebnik arabskogo yazika» M., 2000.
6. Kuzmin S.A. «Uchebnik arabskogo yazika». M., 2001.
7. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshenii. M., 1998.

50-MAVZU: ARAB TILIDA VII BOB FE`LI.

REJA:

1. Fe'llarning yettinchi bobi
2. Yettinchi bob fe'lining o'tgan zamon shakli
3. Yettinchi bob fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli
4. Yettinchi bob fe'lining ma'nolari

28	Birikma olmoshining ko`makchilarga birikib kelishi, birikma olmoshlarining predloglarga birikib kelishi.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Fevral
29	Arab tilida gap va uning turlari, so`roq gap,</p> <p>Arab tilida ismiy gap.</p> <p>Arab tilida f`el kesimli gap.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Fevral
30	Arab tilida moslashmagan aniqlovchi, arab tilida "Izofa" va uning ifodalanishi. Izofa zanjiri.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Fevral

31	Izofaning gapdagi vazifasi.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Mart
32	“كَانَ” fe’li to’g’risida va “لَيْسَ” fe’li to’g’risida umumiy ma’lumot.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Mart
33	Fe’l haqida umumiy ma’lumot va uch o`zak undoshli fe’llar.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Mart
34	Arab tilida fe’l boblari. Fe’lning o`tgan zamoni. O`timli va o`timsiz fe’llar.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Mart
35	Arab tilida hozirgi-kelasi zamon.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Mart
36	Fe’llarga qo`shiluvchi birikma olmoshlari	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun	Mart

		qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	
37	Gapning uyushiq bo`laklari.  Arab tilida bog`lovchilar.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Aprel
38	Arab tilida to`ldiruvchi.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Aprel
39	Arab tilida son. "أَسْمُ الْغُدَرِ" Arab tilida sanoq son.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Aprel
40	Arab tilida fe`l mayllari.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Aprel
41	Fe`l kesimli gaplar va ularning tez aniqlanish ko`nikmasini hosil qilish va to`ldiruvchi va uning	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va	Aprel

	gaplarda kelish xususiyatlarini o`rgatish.	matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	
42	Uyushiq gap bo`laklari va fe'liy jumalarda bosh bo`laklarning uyushib kelishini o`rgatish.	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	Aprel
43	Fe'lning arab tilidagi o`rnini va ahamiyati uqtirish, uning zamonlarda tushlash xususiyatlarini o`rgatish	Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo`shimcha kitoblardan notanish mashqlar va matnlar ustida mustaqil ishlash va tarjima qilish, tahlil qilish.	May
44	Talabalarda harflarni to`g`ri talaffuz qilish ko`nikmalarini tarbiyalash, harflarni talaffuz qilganda muayyan qoidalarga amal qilishga o`rgatish, harflar ishtirokida berilgan so`zlarni tez va to`g`ri talaffuz qilishlariga erishish.	Harflarni talaffuz qilganda qoidaga asosan talaffuz qilishini o`rgatish, talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin harflar o`rtasidagi farqni farqlashga, ko`proq eshitish ko`nikmasini hosil qilishlarni o`rgatish.	May
45	Hamza tovushi, aniqlik belgisi “-al”, shamsiy va qamariy harflarining yozuvdagi o`rinlarini belgilashga o`rgatish	Berilgan hamzalik so`zlardan qat'iy va vaslali so`zlarni ajratib yozish; shamsiy va qamariy harflari bilan boshlangan so`zlarga “-al” qo`shish	May
46	Arabcha matnlarni to`g`ri o`qish va tarjima qilishda predloglarning	"حَاسَّةُ السَّمْعِ" matnidagi predloglarning tarjimasida uning o`rniga to`g`ri	May

	ahamiyatini uqtirish; pauzal o`qish qoidalarini o`rgatish	e'tibor qilib, matndagi so`zlarning pauzali o`qilishini ham o`rganish.	
47	Arab tilidagi so`zlarni lug`atdan topishda malaka va ko`nikmalarni shakllantirish, so`z turkumlarini amalda qo`llay bilish malakasini hosil qilish	Matndagi so`zlarning asl o`zagini topish va noo`zak harflarni aniqlash; berilgan tarqatma materialdagi so`zlarni 3 turkumga bo`lib chiqish	May
48	Arab tilidagi kishilik va ko`rsatish olmoshlarining gaplardagi o`rni, tarjimasini to`g`ri qilish va ularning matnlarda kelish qoidalariga o`rgatish va ularni qo`llashni o`rgatish.	"في غُرْفَةٍ دَرَسَ" matning tarjimasi ustida ishlash va matndagi olmoshlarning tarjimasi va o`qilishiga ahamiyat berish.	May
49	Arab tilida ko`plik, to`g`ri ko`plik va sinig ko`pliklarning bir-biridan farqi va sinig ko`plikning qoliplari ustida ikop`proq ishlash va takrorlashni o`rgatish.	Matnlarda kelgan so`zlarning to`g`ri va sinig ko`pligini tezroq toppish uchun ular ustida ko`proq ishlash.	Iyun
50	Fe'l kesimli gaplar va ularning tez aniqlanish ko`nikmasini hosil qilish va to`ldiruvchi va uning gaplarda kelish xususiyatlarini o`rgatish.	امس matnidagi fe'l kesimli gaplarni aniqlash va to`ldiruvchilarni toppish shu qoliplardagi gaplar tuzish tuzilgan gap tarkibida f`el kesimli gap va to`ldiruvchilar ishtirok etishi.	Iyun
51	Uyushiq gap bo`laklari va fe'liy jumalalarda bosh bo`laklarning uyushib kelishini o`rgatish.	يوم العمل matnidagi uyushiq bo`laklarni toppish va ular ustida talaba mustaqil ishlashini	Iyun

		tashkil etish.	
52	Fe'lning arab tilidagi o`rnini va ahamiyati uqtirish, uning zamonlarda tushlash xususiyatlarini o`rgatish	“رحلة الى القرية” matnidagi fe'llarning zamonlarini aniqlash va ular yordamida fe'liy jummlalar tuzish	Iyun

FANNI O'ZLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni tug'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish kiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Talabalar mustaqil ishini baholash. TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tug'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan ayrim interfaol usullar

"Aqliy hujum" usuli-g'oyalarni ishlab chiqish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar:uni echish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar. "Aqliy hujum" quyidagi qoidalar bo'yicha o'tkaziladi: -fikir hech qanday cheklanmagan holda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim;-har qanday fikrni aytish mumkin, u qabul qilinadi; -g'oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifalarga bevosita bog'liq holda aytiladi; -takliflar berish to'xtatilmaguncha, aytilgan g'oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar: **1.**Ishtirokchilarni majburiy bo'lmagan holda o'tkazing. **2.**Fikrlarni bayon qilish uchun qog'oz va doskani tayyorlang. **3.**Aqliy hujum ishtirokchilariga muammoni etkazish kerak. **4.** Ish tartibini aniqlang: **a)** fikrlar tashlanganda ularni baholamang **b)** doimiy fikrlash ozodligi **v)** qancha aqli fikr ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi **g)** "ushlang", "tuting" boshqalarning fikrlarini rivojlantiring **5.**Fikrlar to'g'risida surishtiring va tezda ularni yozing. **6.**Qog'oz varag'i to'ldirilganda, uni muhokama uchun qo'ying. **7.**O'z g'oyalarigizni qo'shib yangi g'oyani rag'batlantiring. **8.**Boshqalar fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo'l qo'ymang.

Aqliy hujumning asosiy ko'rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdur. Agar ish daliliy axborotga bog'liq bo'lsa, unda ta'lim oluvchilarga dalillar ro'yxatini tuzish taklifi beriladi. Ikki daqiqadan so'ng individual ishdan keyin ular bir-birlari bilan muloqotda bo'lib muhokama qiladilar va o'zlarining ro'yxatlarini birlashtiradilar.

"Charxpalak" texnologiyasi-ushbu texnologiya ta'lim oluvchilarni o'tilgan barcha mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida ularni baholay olishga qaratilgan. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biror-bir bo'limi tugallanganda o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan.

O'tkazish texnologiyasi: **1.**Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'lib olinadi (sharoitga qarab). **2.**Mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish. **3.**Guruh ishtirokchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar. **4.**Har bir guruh ishtirokchisi o'zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining biror bir belgisini chizib qo'yishi kerak. **5.**Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga tarqatiladi. **6.**YAngi guruh a'zolari berilgan materiallarni o'rganib, unga o'z o'zgartirishlarini kiritadilar. **7.**Tuzatish, o'zgartirish kiritilgan materiallar yana bir marta boshqa guruhlariga uzatiladi (guruhlar soniga qarab). **8.**Guruhlar materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so'ng har bir guruh ishtirokchisi o'zining birinchi to'ldirgan materialini (guruh raqami va o'zi qo'ygan belgi asosida) tanlab oladilar. **9.**Har bir

guruh ishtirokchisi tarqatma materialdagi o'zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ishtirokchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar. **10.** Ta'lim beruvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o'qib, guruhlar bilan to'g'ri javobni belgilaydilar. **11.** Har bir ishtirokchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to'playdi va o'z-o'zini baholaydi.

Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/Bh/B) - biror matn yoki mavzuni interfaol o'qish-o'zlashtirish usullaridan biri bo'lib, jadval ko'rinishida bajariladi va quyidagicha qo'llaniladi: ta'lim oluvchilarga biror mavzu e'lon qilinadi. Bu to'g'rida ularga ma'lum bo'lgan axborotlarni jadvalning "Bilaman" qismiga, mavzu bo'yicha yana qanday ma'lumotlarni bilishni xohlashsa, ularni jadvalning "Bilishni xohlayman" qismiga yozadilar. So'ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi. Ular mikroguruhlar tarkibida matnni mustaqil o'zlashtirib, jadvalning "Bildim" qismini to'ldiradilar. Har bir guruh sardori tuzilgan jadvallarni taqdim qiladi. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanadi.

"FSMU" texnologiyasi –ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozarlar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, biror bir bo'lim o'rganilgandan so'ng qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga ham tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. **F**-fikringizni bayon eting, **S**-fikringiz bayoniga biror bir sabab ko'rsating, **M**-ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring, **U**-fikringizni umumlashtiring

"Davra suhbat" -aniq ish tajribasini o'rganish, axborot almashish kabi faoliyatlarni o'tkazishda ko'maklashadi. Davra suhbatini ikki xil shaklda o'tkazish mumkin: **1) YOzma davra suhbat**-o'zaro hamkorlikda muammo yoki g'oya-fikrlarni samarali usulini topishning usuli. A'zolar ko'rilayotgan u yoki bu masala yuzasidan o'z g'oyasi yoki taklifini yozadi, so'ng yozilgan qog'ozni yonidagi a'zoga uzatadi. Navbatdagi a'zo berilgan g'oya yoki taklif yuzasidan mustaqil bilimi va qarashlariga asoslangan holda tushuncha va izohlarini qo'shimcha qiladi va navbatdagi a'zoga uzatadi. Har bir ishtirokchi fikrlarini o'zi tanlagan rangli qalam bilan yozadi. Bu har bir ishtirokchining suhbatda qatnashganlik darajasini yaqqol ko'rsatadi. Jarayon to barcha a'zolar o'rganilayotgan masala yuzasidan o'z bilim va munosabatlari asosida mustaqil fikr yoki savollari bilan ishtirok etib bo'lishlariga qadar davom ettiriladi. **2) Og'zaki davra suhbat**-bu yuqorida ko'rsatilgan usulga o'xshash bo'lib, faqatgina og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbat bilan, undan oldin taklif etilgan fikrlarni qabul qilib olib, uni rivojlantiradi.

"Taqdimot". Taqdimotni muvaffaqiyatli amalga oshirishda e'tibor qaratiladigan jihatlar: **1.** Qaysi masala yuzasidan fikr yuritmoqchi bo'lsangiz, uni har jihatdan mukammal o'rganing. Uch aniq vazifani amalga oshirish asosida masala har jihatdan samarali yoritilishiga erishish mumkin. A) YOritib beriladigan masalaning asosiy mazmun-mohiyati nimada? degan savolga javob topish. B) YOritib beriladigan masala yuzasidan shaxsiy nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so'zlari, tezislar, dalillarni kema-ket tartibda belgilash. V) Taqdimot o'tkazilgandan so'ng, sizga nisbatan auditoriyaning munosabati qanday bo'lishi to'g'risida o'ziga xayolan savol bilan murojaat etish. **2.** Masala yuzasidan yoritadigan materiallarni tizimlashtirish: kalit so'zlar, tezislar, dalillar uchun qisqa, aniq va lo'nda jumlar tuzish. Har bir jumlaning qo'llab quvvatlovchi uchta asosni tanlab, belgilab oling. Masalani har tomonlama yoritib berishga qalban ishonch uyg'otish; -nutq so'zini juda ham ma'nodor epigraf bilan boshlash; masalani mazmun-mohiyatini ochib beruvchi, asoslangan ochiq so'zlarga ega bo'lish. **3.** Tajribadan o'tkazish asosida puxta tayorgarlik ko'rish. Taqdimot materiallarini tizimlashtirib bo'lgandan so'ng, quyidagi jadvalni tayorgarlik ko'rish uchun ishlatish: Masala nomi. Ustuvor tamoyillar. Nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so'zlar. Qo'llab-quvvatlovchi asoslar. Tarixiy manbalar.

“Bumerang”. Mazkur texnologiya bir mashg’ulot davomida o’quv materialini chuqur va yaxlit holatda o’rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo’naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo’lgan mavzularni o’rganishga yaroqli bo’lib, o’z ichiga og’zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg’ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan ta’lim oluvchi yoki ta’lim beruvchi rolda bo’lishi, kerakli ballni to’plashiga imkoniyat beradi. Asosiy tushunchalar quyidagilar: Ochiq savollar-bu savollar muomala, so’zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. YOpiq savollar-bu savollar oldindan “ha” yoki “yo’q” tipidagi to’g’ri, ochiq javoblarni berishni ko’zda tutadi. Ko’ndalang so’roq-bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo’lib, bu o’ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko’ndalang so’roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Sinkveyn” usuli-o’rganilayotgan materialni to’laqonli anglash uchun qo’llaniladi. Sinkveyn-fransuzcha besh qatorli o’ziga xos, qofiyasiz she’r bo’lib, unda o’rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to’g’risidagi axborot yozilgan holda o’quv so’zi turli varintlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish qoidasi quyidagicha:-birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so’z, odatda ot so’z turkumi bilan ifodalanadi.(kim? nima?). –ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi.(qanday? qanaqa).-uchinchi qatorga mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so’z (fe’l) bilan ifodalanadi.-to’rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvur anglatuvchi va to’rtta so’zdan iborat bo’lgan fikr yoziladi.-oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga o’xshash bo’lgan bitta so’z (sinonim) yoziladi.

“Klaster” (g’uncha, bog’lam) usuli ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bemaolol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster usuli aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Muayyan mavzuning ta’lim oluvchilar tomonidan puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatini bir maromda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Usuldan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Bunda ilgari surilgan g’oyalarni umumlashtirish va ular o’rtasidagi aloqalarni topish imkoniyati yaratiladi. Klaster usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

-nimaniki o’ylagan bo’lsangiz shuni qog’ozga yozish; -fikringizning sifati to’g’risida o’ylab o’tirmay, ularni shunchaki yozib borish;-so’zlardagi imlo xatolar va boshqa jihatlariga e’tibor bermaslik; -belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to’xtamaslik;-agar ma’lum bir muddat biror bir g’oyani o’ylay olmasangiz, u holda qog’ozga biror narsani rasmini chiza boshlash, bu harakatni yangi g’oya tug’ulguniga qadar davom ettirish;-muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko’proq yangi g’oyalarni ilgari surish hamda g’oyalar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ko’rsatishga harakat qilish; -g’oyalar yig’indisining sifati va ular o’rtasidagi aloqalarni ko’rsatishni cheklamaslik.

O’quv o’yinlari – ta’limning yangi metodi

Bolalar yoshligidan turli o’yinlar bilan shug’ullanib keladilar. O’yin – bolalarning hayotiy ehtiyojiga aylangan soha desak xato qilmagan bo’lamiz, chunki o’yinning bola tarbiyasidagi o’rni, uning tarbiyaviy ahamiyati katta. O’yin yosh tanlamaydi, deyiladi. Haqiqatan ham, qaysi yoshdagi kishiga biror o’yin taklif etilsa, imkon boricha unga qatnashish xohishini bildiradi. O’yin – faqat o’yinning o’zginasi emas. O’yin ta’lim – tarbiyada juda boy imkoniyatlarga ega vosita hamdir.

O’yinni yangi pedagogik texnologiyaning eng samarali usullaridan biri sifatida tan olinishi ham uning muhim usul ekanligidan dalolat beradi. Hozirda o’yinli texnologiyalar

haqida ko'p ma'lumotlar bor. Ko'plab olimlarning bu sohadagi asarlari chop etilgan. Bu kitoblarda o'yinli texnologiya imkoniyatlaridan ta'lim–tarbiya sohasida keng foydalanishning metodikasi ishlab chiqilgan. Ayniqsa, fanlarni maktabda va oliy o'quv yurtlarida o'quvchi – talabalarga tushuntirishda uning cheksiz imkoniyatlari borligi ta'kidlanayapti.

O'yinli texnologiyadan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra, mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxs o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leont'ev o'yinga shaxsning hayotidagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv;

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni taxlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'kt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi.

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi.
- o'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'iy nazar, ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi, o'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;
- o'qitishning muammoligi.

A.A. Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarini qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yinning asosiy syujet mavzusi bo'yicha o'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;
- amaliy guruhlarining ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- o'yin jarayoni va ishtirokchilar hatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- echimni tashkil qilish bosqichi.

Y.A.S. Ginzburg va N.M Koryak o'yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo'lmaslik xarakteri.

Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlarini yaratish murakkabligini hisobga olgan holda har bir yaratilgan o'quv o'yini barcha arab tili o'qitiladigan maktab, litsey, institutda qo'llash uchun mos bo'lishi kerak. O'quv o'yinlaridagi materiallar mazkur kurs rejasiga to'g'ri kelishi kerak hamda o'sha kurs darsligi mazmuniga mos tushishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak.

O'quv o'yinlarini tayyorlashda darslikdagi ma'lumotlar o'yin shakliga keltiriladi. O'quv o'yinlari talabalarning darsda olgan nazariy bilimlarini amaliy ko'rinishdagi varianti deb aytsa bo'ladi. Bu "sinov maydoni"da sinash va sinalishga tayyor bo'lish uchun talaba o'tilgan barcha o'quv mavzularini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. O'quv o'yinlari jarayonida talaba oddiy darsga qaraganda bu o'yinga qiziqibroq yondoshadi va bimalol faoliyat ko'rsatadi.

Har bir oliy o'quv yurtida talabalarga qo'yiladigan asosiy talab – mutaxassisligidan ularda malaka va ko'nikma hosil qilishdir. Ayni o'quv o'yinlari ana shunday malaka va ko'nikma hosil qilish vositasi, payti hisoblanadi.

Qidiruv ekspeditsiyasida shunday naql bor: "Ryukzakka ishlatiladigan – asqotib qoladigan narsani emas, balki usiz biror ish bitmaydigan narsalarni ol!" (Beri v ryukzak ne to, chto mojet prigoditsya, a to, bez chego sovershenno nevozmojno oboytis!). Tibbiyot institutida o'quv o'yinlari jarayonida talabalar mulyaj shaklidagi "kasal"ni xohlaganlaricha "operatsiya" qilib, uning ustida turli tajribalar – eksperimentlar o'tkazishlari mumkin.¹ Lekin tilni o'rgatishda talaba eksperiment qiladigan mulyaj yo'q. O'yinga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan talaba o'yin talabalariga javob bera olmaydi va u bu o'yinni ijobiy yakunlanishiga putur etkazishi mumkin. Pedagogik tajribalar har qanday ta'lim usulini ilmiy asosga ko'taradi. Unga fikrlashning ob'ektiv baholash usuli deb qarash mumkin. SHuning uchun pedagog eksperiment qilish yo'llarini egallashi muhim vazifadir. Alohida ta'kidlash lozimki, o'yin avvalo o'qitishning bir usulidir. U talabalarni nazorat qilish quroli, imtihon yoki talabalar uchun jazo emas.

Xuddi shu ma'noda o'yinni yaratuvchi va olib boruvchi o'qituvchini shogirdlarini murakkab musobaqalarga tayyorlovchi murabbiy-trenerga qiyos qilsa bo'ladi. U o'z shogirdlarini kelajakdagi musobaqalarda uchrashi mumkin bo'lgan maksimal qiyinchiliklarni engishga o'rgatadi. Ustoz talabalarda shunday ko'nikmalarni tarbiyalagandagina ular har qanday sinovlarda yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. O'qituvchining talabalarda keyinchalik har qanday kasbiy qiyinchiliklarni engib o'tishdek malakalarni tarbiyalashi kelgusida yaxshi mutaxassis bo'lib etishishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi ("Mashqda qiyin bo'lsa, jangda engil bo'ladi" maqoliga asosan).

¹ Наумов Л.Б. Учебные игры в медицине Т. 1986

O'yinda ishtirok etmoqchi bo'lgan talaba albatta unga tayyorgarlik ko'rish etapini o'tishi lozim. O'yinga eksrompt usulida birdaniga kirishib bo'lmaydi.

Tajriba shundan dalolat beradiki, har qanday tayyorgarlik ko'rilmay o'tkazilgan o'yinda uning ishtirokchilarining malakasi va yoshidan qat'iy nazar ular o'ng'aysiz holatga tushib qoladilar. SHuning uchun o'yinni o'quv amaliyotiga tadbqiq qilishdan avval quyidagi pedagogik-psixologik masalalar hal etilishi zarur. Har bir talaba o'yinga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagilarni bilishi lozim:

- o'yinning maqsadini;
- o'yinning vazifasini;
- o'yinning rejadagi qaysi mavzuga taalluqliligini;
- avvalgi o'yinlarda shakllangan malaka va ko'nikmalarni keyingi o'yinlarda ham qo'llay olishi.

O'quvchi va talabalar uchun shunday texnologik o'yinlar yaratish kerakki, ular shogirdlarda qiziqish uyg'otsin, ularning ehtiyojlarini qondirsin, ularga tezda singadigan bo'lishi lozim. Har qanday o'yinni o'quvchilar ko'rigidan muvofaqiyatli chiqishi maqsad qilinadigan bo'lsa, albatta eksperiment-tajriba, kuzatish olib borilishi zarur. Bunday jarayonda qaysi o'yin o'quvchilar talablariga mos kelgan, kelmaganligi aniqlanadi. O'quvchilar e'tiborini qozonaolmaydigan "sun'iy o'yinlar" shogirdlar vaqtini behudaga olmasligi kerak. SHuning uchun muayyan talabalar guruhi yoqtiradigan o'yinlarni, ularning yuraklarini haqiqiy jizzillatadigan o'yinlar topmoq lozim. Bu mezonga to'g'ri keladigan o'yinlar darajasini o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan tajribalar aniqlab beradi. Sinab ko'rilmaguncha o'yinning talabalarga mos yoki mos emasligini aniqlab bo'lmaydi. Har bir o'qituvchi muayyan o'yinlardan foydalanayotganida tanlash erkinligiga ega ya'ni, shu o'yinga o'xshatish yoki butunlay boshqa variantini izlab topish huquqiga ega. Bu esa o'qituvchining harakatiga bog'liq.

"Harflar olami" o'yini

Bu o'yin asosan arab tilidagi 28 ta harf o'tib bo'lingandan keyin o'tkaziladi. O'yinni o'tkazish tartibi quyidagicha: stol ustiga qo'yilgan 3ta qutining birinchisida cho'ziq unlilar, ikkinchisida oy harflari va uchinchisida quyosh harflari joylashgan bo'ladi. Talabalar navbat bilan chiqib tartib bilan xohlagan qutilaridan harflarni olib ulardan so'z tuzadilar. Bunda talabaga ana o'sha 3ta harflarning o'rinlarini almashtirib turli so'zlar tuzishlariga ijozat beriladi. M: talaba اكل harflarini oldi, deyaylik. Bu 3ta harfdan talaba كل كل مأكل kabi so'zlarni tuzishi mumkin. Bunda talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beriladi. Qolgan talabalar ham shunday yo'l bilan so'zlar tuzib daftarlariga yozadilar.



Izoh: Agar chiqqan harflardan so'z yasash iloji bo'lmasa, o'qituvchi yordam berishi kerak.

Bu o'yin talaba va o'quvchilarning harflarni tezda tanib olishlariga, harflardan tez so'z tuzishlariga va shu asosda ularning so'z boyliklarining boyib borishiga yordam beradi.

To'pni oling, so'zni ayting

Bu o'yin qiz bolalarning yoshligida to'pni bir-biriga otib o'ynaydigan o'yinga o'xshaydi. Mazkur o'yin o'qituvchi tomonidan sinfda o'tkaziladi. O'qituvchi qo'lidagi to'pni o'quvchilarga tezda otib, o'zbekcha so'zni aytadi, o'quvchi to'pni olishi bilanoq o'sha so'zning arabchasini aytib, to'pni yana o'qituvchisiga qaytaradi. Bu o'yinni o'quvchi-talabalar olib borishiga ham ruxsat berish mumkin. Bunda o'qituvchi o'yinni kuzatib turadi.

Bu o‘yinning ham o‘ziga xos qoidalar mavjud – bir so‘z ikki marta takrorlanmasligi lozim, javob berayotgan o‘quvchilarga yordam berish ta‘qiqlanadi, javob to‘pni qo‘lga olishi bilan berilishi lozim. Agar javob belgilangan muddatda o‘quvchi tomonidan aytilmasa, u o‘yindan chiqadi. Qaysi o‘quvchi o‘yinning boshidan oxirigacha xatosiz va tezda so‘zni ayta olsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib deb topiladi.

Bu o‘yin o‘quvchilarni faollikka va hozirjavoblikka o‘rgatadi. Bunday xislatlarni o‘quvchilarda shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

“Kim tez so‘z tuza oladi?” o‘yini

Talabalar maxsus qutidan biror harfni oladilar va shu zahoti mana shu harf ishtirok etadigan so‘zlarni og‘zaki aytib berishlari zarur. Bu usul ikki guruhga bo‘lingan talabalarga qo‘llansa samaraliroq chiqadi. Har bir talaba aytayotgan so‘zlarining sonini o‘qituvchi doskadagi o‘sha guruh nomi yozilgan joyga bir 111 raqamlarini ketma-ket yozish bilan belgilab boradi. Bu darsning oxirida o‘qituvchi biror talabani chiqarib doskadagi har bir guruh nomi ostidagi belgilangan raqamlarning sonini hisoblab umumiy natijani e‘lon qilishni taklif etadi. Qaysi guruh a‘zolari aytgan so‘zlarning soni ko‘p bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib deb topiladi.

Bu usul talabalarni o‘tilgan harflar ishtirok etgan so‘zlarni tez aytish va uni to‘g‘ri yozib berishlariga yordam beradi.

“Tez so‘z aytish” o‘quv o‘yini

O‘quvchilarni arab tiliga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini oshirish maqsadida “So‘z aytish” usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda o‘quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo‘linadilar¹. Birinchi guruh a‘zolari so‘z aytishni boshlashadi - بدأ Ikkinchi guruh a‘zosi so‘zning oxirgi harfi ا ga أخذ so‘zini aytadi, uchunchi guruh a‘zosi esa, aytilgan so‘zning oxirgi ذ harfiga ذهب so‘zini keltiradi va hakoza shunday davom etadi. Bunday usul talaba va o‘quvchilarni topqirlikka, arab tili grammatikasidagi muammolarni tez hal etishga o‘rgatadi. Quyida bu usulning borish jarayonini namuna sifatida beramiz. Guruh a‘zolarining aytgan so‘zlari shunday tizimni tashkil etishi mumkin:

عَيْن – نادر	بدأ – أخذ
رمان – نسيج	ذهب – باب
جمع – عامل	ببر – رجل
لاعب – بصر	لبن – نور
رفيق – قاعة	ريف – فائدة
تمر – رشيد	تعب – بدي

Bu o‘yinda raqib guruhni mag‘lubiyatga uchratish uchun qarshi o‘ynayotgan guruhni iloji boricha kam uchraydigan so‘zlarni aytishlariga majbur qilishlari lozim. Bu o‘yinnig siri mana shu. Mazkur o‘yinning o‘ziga xos qoidalar mavjud.

- 1) arab tilida “ta marbuta” qo‘shimchasi bilan tugagan muannas jinsdagi so‘zlar ko‘p bo‘lganligi sababli, javob berganda bunday so‘zlarni ko‘p ishlatish mumkin emas;
- 2) fe‘llarni uch zamonda keltirish mumkin, lekin ularni ketma-ket takrorlash ta‘qiqlanadi;

¹ Талабаларни гурухларга бўлиш ҳам муҳимдир. Уларни ҳар бир ўйин олдида янги таркибда бўлишига ҳаракат қилиш керак. Мақсад-ҳар бир гуруҳда фаол ва пасив талабаларнинг сони бир хил бўлишига эришишдир. Гурухларга бўлиниш вақтида ҳар бир гуруҳ сардори чиқиб, стол устидаги номлари яширинган гуруҳдошлари фамилияларини танлаб гуруҳ ҳосил қилади. Бу усул фаолларнинг битта гуруҳда тўпланиб қолишларининг олдини олади.

3) arab tilida uchta “s” س ص ث, ikkita “a” أ, uchta “h” ه ح خ, uchta “z” ز, د, ذ, ض, ikkita “t” ط ت, ikkita “d” د, م mavjud bo‘lganligi uchun so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, ana o‘sha harfning o‘zi bilan boshlangan so‘zni aytish kerak bo‘ladi. Masalan:

ناس – سلاح	حمار – رصاص
حب – بط	صباح – حرص
ط – بطيخ	صنع – عين

va hokazo

Bunday shartlarga rioya qilmagan guruhlariga o‘yinni kuzatayotgan o‘qituvchi yoki hay’at a’zolari tanbeh berishlari mumkin. Agar biror guruhning a’zosi o‘zining navbatida biror so‘zni ayta olmasa, unga minus ball beriladi va o‘yinni keyingi guruh davom ettiraveradi. Mazkur o‘yinda qatnashayotgan har bir guruh a’zolari o‘zlarining so‘z boyliklaridagi so‘zlarni ishlatishga harakat qiladilar. Ushbu bahsning finaliga ikki talaba etib keladi va bunda qaysi qatnashchi so‘z keltira olmasa, o‘sha talaba mag‘lub hisoblanadi. Bunday o‘yinning uzoq davom etishi har bir guruh a’zolarining so‘z boyligining naqadar ko‘p yoki ozligiga bog‘liq. Bu singari o‘yinga hamma talaba ham qatnasha olmaydi, lekin o‘yinga qatnashmayotgan-kuzatuvchi talabalarda ham keyingi shunday so‘z bahsida qatnashish rag‘bati uyg‘onadi, yangi so‘zlarni ko‘proq yod olishga harakat qiladilar. Bu o‘yinning o‘ziga xos ahamiyati shundaki, u passiv talabalarni ham faollar qatoriga qo‘shilishlariga undaydi. O‘yinda tomoshabin bo‘lib ishtirok etgan talabalarda ijobiy o‘zgarish ro‘y beradi. Ular o‘qituvchi tomonidan beriladigan savollarga zudlik bilan javob berishga harakat qiladilar. Bu tajribalarda o‘zini oqlagan usullardan biridir.

Har bir o‘yinning afzal tomonlari, samaradorligi uning natijalarini tahlil qilgandan keyin ayon bo‘ladi. SHuning uchun o‘qituvchi o‘yinda qatnashgan har bir talabaning ishtiroki, o‘yinning qiziqarli o‘tishiga qo‘shgan ulushini alohida e’tiborga olishi kerak va o‘yinning natijalari yangi va eski usullarning farqini aniqlash ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin nihoyasida o‘qituvchi talabalar bilan o‘yin davomida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tahlil qiladilar va keyingi o‘yinlarda shunday kamchiliklar takrorlanmasligiga harakat qiladilar. Arab tilini o‘qitish jarayonida o‘rgatilayotgan mavzular mutaxassislik nuqtai nazaridan qaraganda yo‘l qo‘yilgan xatolarga qarab ta’limning mezonini aniqlab olish mumkin. Bunda xato qancha kam bo‘lsa, kasbiy tayyorgarlik darajasi va sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Lekin ba’zi o‘qituvchilar xatolarga uncha e’tibor bermaydilar. SHuning uchun avvallari qo‘llanilgan “Xatolar ustida ishlash” usuliga qaytish – talabalar bilimining puxta chiqishida ahamiyati kattadir.

“Sirli rishta” o‘yini

O‘yinning boshida o‘qituvchi bu o‘yinnig vazifasini tushuntiradi. O‘yinga avvaldan tayyorgarlik ko‘riladi. O‘yinga kerak bo‘lgan 4-5 xil rangdagi iplar hozirlanadi. Masalan, 10ta qizil rangdagi ipning har biriga bittadan jami 10ta arabcha maqollar yozilgan karton yoki qalin qog‘oz ulab qo‘yiladi. 4 xil ipga 10tadan maqol yozilgan qog‘oz bilan birlashtirilsa, jami 40ta maqollar to‘planadi. Iplarning ikkinchi uchi tortish uchun tayyorlab qo‘yiladi. Maqollar yozilgan qog‘ozlar did bilan yasalgan bir qutining ichiga joylashtiriladi. O‘yin boshlanadi. O‘quvchilar stol ustidagi qutidan chiqib turgan 4xil rangdagi iplarning to‘rtala xilidan bittadan tortadilar va ana shu 4ta arabcha maqolni olib joylariga o‘tiradilar va ular o‘z guruh a’zolari bilan har bir maqolni o‘zbek tiliga tarjima qilish va uni sharhlab berish uchun tayyorgarlik ko‘radilar. Agar tortilgan ipning o‘rtasida tugun bo‘lsa, o‘sha guruh 5 ball yo‘qotgan bo‘ladi. Agar javob berish jarayonida har bir arabcha maqolning o‘zbekcha o‘xshashini ham keltirsalar, bu ish maqtovg’a sazovor bo‘ladi.

Mazkur o‘yin – darsning maqsadi – o‘quvchi talabalarning avvaldan yodlagan arabcha maqollarini qanday o‘zlashtirganliklarini sinashga qaratilgan. Bu usuldagi sinovni har bir o‘quvchi uchun yoki guruhlariga bo‘lib ham o‘tkazsa bo‘ladi. O‘yinning oxirida o‘qituvchi unga yakun yasaydi va guruhlarini baholaydi.

"ب bilan boshlanuvchi so‘zlarni kim ko‘p yoza oladi?" o‘yin darsi

O'qituvchi bu o'yin – darsning maqsadi, ya'ni arab tilidagi harf bilan boshlanuvchi so'zlarni tez va to'g'ri yozishni mashq qilish qoidalarini tushuntirib bergandan so'ng ikki talaba doskada, qolgan talabalar esa o'z daftarlariga aytilgan harf bilan boshlanadigan so'zlarni iloji boricha ko'proq yozishga harakat qiladilar. Darsning yakuniy qismida eng ko'p so'z yozgan talaba doskaga chiqab o'zining yozgan so'zlarini o'qiydi. Qolganlar esa, o'zlaridagi o'xshash so'zlarni belgilab boradilar. Darsning oxirida boshqa talabalarda yo'q so'zlarni doskadagi talaba doskaga yozadi. Talabalar uchun yangi hisoblangan bu so'zlarni o'tirganlar ko'chirib oladilar va yodlaydilar. Kim mazkur harf bilan boshlanadigan so'zlarni ko'p va bexato yozgan bo'lsa, o'sha talaba g'olib deb topiladi. M:

بترول، بارز، برتقال، بداية، بديهة، ببر، باخرة، باب، بدأ، برق، بنس، بشر، برد، بدء، بصل، برق، بغداد، بدلة، بدن، بطيخ، باهر، بكر، بسيط، برج، بطل، بضعة، بحث، بدوي، بربر، بصر، بقرة

O'yin paytida o'qituvchi qanday ish bilan shug'ullanishi kerak degan tabiiy savol tug'iladi. U o'yin paytida doska oldida yoki o'yin qatnashchilari oralarida yurib, ularning ko'ngillarini ko'taradigan gaplar bilan ularni g'alabaga chorlashi kerak. Albatta, talabalarga o'yin paytda bunday emotsional muhit yaratish ularning ijobiy natijalarga erishishlariga yaxshi ta'sir etadi. O'qituvchi o'yin jarayonini boshidan oxirigacha magnit lentasiga yozib olishi mumkin. Bu yozuv o'yinning oxirida tahlil etishda zarur bo'ladi. *“Faqat suvgina oqqushni oqqush qiladi, suvsiz oqqush g'ozning o'zidir”*. Jilber Sesbron. Mutafakkirning bu so'zida katta ma'no bor. Bu so'zni o'qituvchi va uning faoliyatiga yo'ysak, shunday xulosa qilish mumkin – o'qituvchi o'z nomi bilan o'qitib, uqib turishi lozim, o'qimagan ustoz suvdan qolgan daraxtga o'xshaydi. O'qituvchini o'qituvchi qilib turgan narsa – uning bilimi, harakati, yangilikka intilishi va tajribasidir. Bu xislatlarsiz o'qituvchi bo'ladimi? *“O'qituvchi - bu shunday insonki, u avval bitta fikr o'sgan joyda ikkita fikrni o'stiradi”*, degan edi Elbert Xabbard.

“Antonim so'zlar” o'yini

Bu o'yin qiziqarli va ehtirosli o'tadi. O'yinda talabalar jiddiy holatda o'ynay olmaydilar, chunki o'yin kulgi va xazil mutoyiba asosida o'tadi. Bunda xar bir guruhdan bittadan talaba o'yinga qatnashish uchun doskaga chiqadi. Qur'aga ko'ra birinchi talaba biror so'zni aytadi, uning raqibi esa o'sha so'zning teskari ma'nosidagi so'zni keltiradi. Bu o'yinda barcha talabalarining ishtirok etishlarini ta'minlash uchun o'yinda qatnashayotgan ikki talaba faqat belgilangan 4-5 tadan so'zlarni aytadi holos. Keyingi ikki talaba ham shu tartibda bir – birlarini sinaydilar. So'z bahsida qaysi guruh talabasi yutsa unga “to'liq oy” shaklidagi yashil qog'oz, yutqizsa, “yarim oy” shaklidagi yashil qog'oz beriladi.

O'yin oxirida tarqatilgan yashil qog'ozlar hisoblanganda qaysi guruhning g'alaba qozonganligi aniq bo'ladi. Mazkur o'yinga avvaldan tayyorgarlik ko'rish lozim. Talabalarga antonim so'zlar beriladi va uni yodlaydilar.

كبير	-	صغير	جميل	-	قبيح
قريب	-	بعيد	لذيذ	-	مر
ثقیل	-	خفيف	أبيض	-	أسود
بصير	-	أعمى	مجتهد	-	كسلان

Sinonim so'zlar o'yini ham shu tartibda o'tadi.

Bu o'yinlarning yana bir ijobiy jihati shundan iboratki, talaba keyinchalik arab tilida so'zlashayotgan paytda o'yindan olgan malakalari unga asqotadi, ya'ni, antonim va sinonim

soʻzlarni bemalol qoʻllash koʻnikmasiga ega boʻladi. Bunday xususiyat har qanday mashgʻulotda ham shakllanavermaydi. Oʻyin – darsining ahamiyati ham shunda.

“Raqamni tez toping” oʻyini.

ثلاثة / ثمان / ثلاث عشرة / أربعون / سبع وعشرون / ثمانية وتسعون / خمسة / تسعة عشر / أربعة وسبعون / أحد وخمسون / ستون / ثمان وأربعون / سبعة / ستة عشر / اثنا عشر / تسع وخمسون /	أحد عشر / ستة عشر / خمس / واحد / تسع عشرة / إثنان / سبعون / ثمان عشرة / تسع وعشرون / سبع عشرة / عشر / أربعة عشر / ثمان وعشرون / إحدى عشرة / تسعون / إحدى وعشرون / اثنتا عشرة / ثمانون
---	---

Bu oʻyin arab tilidagi sanoq sonlar mavzusi oʻtilgandan keyin oʻtkaziladi. Doska ikkiga boʻlinadi va oʻqituvchi uning har ikki tomoniga 1dan 100gacha boʻlgan sanoq sonlarni aralashtirib yozadi (jadvalga qarang). YOki avvaldan tayyorlangan koʻrgazmali vosita-katta oq qogʻozga yozilgan raqamlarni doskaga ilib qoʻyishi mumkin. Oʻqituvchi har bir guruh aʼzosiga bittadan raqamni arabcha talaffuz qiladi, talaba esa tezda raqamni doskadan koʻrsatishi lozim, koʻrsata olmasa unga minus ball yoziladi. Bunda har bir raqamni topish uchun maʼlum bir vaqt belgilab olinadi. Qaysi guruh raqamlarni tez va minus ballsiz topa olsa, gʻolib chiqadi.

Oʻquvchi yoki talabalarda arabcha nutqni shakllantirishda quyidagi usul ham qoʻl keladi. Dars jarayonida doskaga maktab, shahar, qishloq, oshxona, aeroport, mehmonxonani aks ettiruvchi rasmlardan biri qoʻyiladi. Bunda har bir oʻquvchi shu rasm asosida bittadan gap tuzishi kerak. Keyingi oʻquvchi avvalgi oʻquvchi aytgan gapni takrorlaydi va unga yana bitta jumla qoʻshadi. Uchinchi oʻquvchi ham oʻrtogʻi keltirgan va oʻzi qoʻshgan gapni qaytaradi. Keyingi oʻquvchilar ham shu zaylda davom etadilar. SHu bilan mazkur jarayon katta bir matn tuzilgunga qadar davom etadi. Bir oʻquvchi sinfdoshlari aytgan gaplarni doskaga yoki bir qogʻozga yozib borishi yoki har bir oʻquvchi shu jummalarni oʻz daftarlariga yozib borishlari mumkin. Bu oʻyin nihoyasida gaplar muhokama qilinadi, yoʻl qoʻyilgan xatolar tuzatiladi, faol oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

Muomala madaniyatini, nutqni shakllantirish, erkin fikrlashga daʼvat etuvchi oʻyinlar ham bor. Bunda oʻquvchilar oʻqituvchi aytgan “SHifokor huzurida”, “Bozorda”, “Bekatda”, “Kutubxonada”, “Mehmonda” kabi mavzular yuzasidan ssenariy tuzib, uni rollarga boʻlinib bajaradilar. Kimning sahna koʻrinishi ishonchli, qahramonlarning soʻzlari toʻgʻri tanlangan boʻlsa, oʻsha guruh gʻolib boʻladi. Bunday oʻyinlarning qanchalik jonli chiqishi va qiziqarli tarzda tashkil etilishi bevosita oʻqituvchining pedagogik mahoratiga bogʻliqdir. Oʻqituvchi oʻyinni qanchalik ehtirosli (qiziqarli) olib borishi, har bir oʻquvchini eʼtibordan chetda qoldirmay kuzatib borishi ham ijobiy natijalar beradi.

“Mezon” oʻyini

Bu oʻyin, asosan, talabalar faoliyatini oshirishga hamda sust talabalarni faollashtirishga qaratilgan. Oʻyin texnologiyasi quyidagicha: bu oʻyinda asosan tarozi kerak boʻladi. Tarozi (arabcha “ميزان”) stolning ustiga balandroq joyga oʻrnatiladi. Talabalarga avvaldan tayyorlangan savollar yozilgan karton qogʻozlar tarqatiladi. Qogʻozlarning ogʻirligi savollarning oson-qiyinligiga bogʻliq boʻladi. Savol engil boʻlsa, qogʻoz ham oʻshanga bogʻliq holda engil boʻladi. Agar savol qiyin boʻlsa, qogʻozning vazni ham ogʻir boʻladi. Oʻyin boshlanadi. Ikkiga boʻlingan guruh aʼzolari navbat bilan bitta oson, bitta qiyin savol olib, belgilangan muddatda savollarga javob yozib, tarozining oʻzlari tanlagan pallasiga

qo'yadilar. Savolga javob berib bo'lgan guruh navbatdagi savolni olaveradi, toki tarozining mili (strelkasi) aytilgan gramm yoki kilogrammga etguncha. Kim tezroq o'sha og'irlik nuqtasiga birinchi bo'lib etib borsa, o'sha g'olib bo'ladi. Lekin ba'zan durang hisob chiqishi mumkin. Unda o'qituvchi har bir guruhga bittadan murakkab savol beradi. Kim agar birinchi bo'lib o'yinni tugatsa va tekshirilganda javoblar bexato chiqsa, o'sha guruh tolibi g'olib deb topiladi.

“Ranglar o'yini”

O'qituvchining qo'lida oq, qora, qizil, yashil, sariq qog'ozlar bo'ladi. Navbat bilan ranglarni ko'rsatib, **أي لون هذا؟ أي الأشياء بهذا اللون؟** deb masalan oq rangni ko'rsatadi. Talabalar bu oq rang deb, javob beradilar va oq rangdagi predmetlarni sanaydilar: oq rangda qog'oz, gul, uzum, o'rik, qovun, uy, kiyim, sochiq, bino, shaftoli, qor, ayiq, mashina, laylak, kabutar, oqko'ngil, oq fotiha va kelinning oq libosi...

Bu o'yin talabalarga rang nomlarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga o'rgatadi.

“Sirli varaq” o'yini

Bunday o'yinlar turli yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan bo'lishi mumkin. Biz quyida uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi o'yinni e'tiboringizga havola etamiz. Bu o'yinda alohida qog'ozlarga muayyan hayvonlarning rasmlari chizilgan bo'ladi. Navbat bilan bittadan rasmlar doskaga teskari tomoni bilan qo'yiladi va o'quvchilarga “Qog'ozda qaysi hayvon tasvirlangan va u qanday ovoz chiqaradi?” deb savol beriladi. O'quvchilarga yordam sifatida doskaning bir qismiga it-vovullaydi, mushuk-miyovlaydi, ot-kishnaydi, bo'ri-uvillaydi, eshshak-hangraydi, ohu-ingraydi, tulki-ulyidi, mol mu'laydi, qo'y ba'laydi, echki ma'raydi deb arab tilida yozib qo'yiladi. O'quvchining vazifasi – qog'ozdagi hayvonning rasmini ko'rmay turib, avvalo uning qanday ovoz chiqarishini aytib topishi kerak. Belgilangan vaqt ichida o'quvchi mazkur hayvonni topaolsa, unga keyingi savollar beriladi. O'qituvchi **وكيف يرتفع صوته. ما هو هذا الحيوان؟** Bu qaysi hayvon? U qanday ovoz chiqaradi? deb so'raydi.

O'quvchilar navbat bilan qo'l ko'tarib o'zlari o'ylagan hayvonning nomini aytadilar. O'qituvchi har bir javobga “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” deb baho berib turadi. Bir o'quvchi qog'ozdagi “sir”ni ochdi, ya'ni tulkining rasmini topdi deb, faraz qilaylik. Bunda unga keyingi savol beriladi: “U nima deb ovoz chiqaradi?”. O'quvchi arabcha tulki uliydi deydi. Keyingi savol “U qaerda yashaydi?”. U o'rmonda yashaydi. “U nima bilan ovqatlanadi?” degan savolga o'quvchi “U go'sht eydi” deb javob beradi. “U ayyormi?” savoliga “Ha, tulki ayyor hayvon” degan javobni beradi.

15.	Biror harakatni bajarishga intilishni			+							
16.	I bob bildirgan ma'no biror kishiga nisbatan amalga oshirish ma'nosini			+							
17.	Ish harakat ko'pchilik tomonidan bajariladi					+					
18.	Ish-harakatni bajarishda tadrijiylilikni						+				
19.	I bob ma'nosini o'zi amalga oshirgan deb ko'rsatadi					+	+				
20.	I bob fe'lining o'timsiz yoki o'zlik-majhullik nisbatini bildiradi							+	+		
21.	I bob fe'li ma'nosini gapiruvchi o'zini ko'zlab bajarganligini bildiradi								+		+
22.	I bob fe'li ifodalagan ish-harakatni bajarishda iltimos qilish, qidirish, etishish ma'nolarini										+
23.	IV bobning o'zlik-majhullik nisbatini bildiradi										+
24.	Ot bildirgan mansabga tayinlashni bildiradi										+
25.	فعل vaznidagi rangni yoki jismoniy kamchiliklarni bildiradigan ismlardan fe'l yasaladi									+	
26.	Predmet anglatgan shaklga kirish yoki unga o'xshashlikni										+
27.	Ish-harakatni bajarishda sa'y-harakat qilish, musobaqalashish, raqobatni			+							
28.	Talab qilish, fe'l o'zagi anglatgan										+

	ma'noga erishish										
29.	Biror kishini fe'l o'zagi anglatgan ma'noga ega deb, hisoblashni										+
30.	O'zini ayyorlikka solishni					+					
31.	Otdan fe'l yasaydi		+			+		+			+
32.	ا، ل، ن، ي harflari bilan boshlangan fe'llardan qaysi bob fe'li yasalmaydi?						+				
33.	Takroriylikni bildiradi		+			+					
34.	Ish-harakatni ko'p ob'ektlarga qaratilganligini		+								
35.	Ish-harakatni o'zi uchun bajarishni							+			
36.	Biror shaxs tomonga yoki maqsadga qaratilgan ish-harakatni			+							
37.	Majburlash ma'nosini		+		+						
38.	Ish-harakatning uzoq davom etishini va majburlashni		+								
39.	Ish-harakatni qisqa vaqt ichida sodir etilishini va majburlashni				+						
40.	O'timli fe'lni ikki marta o'timli fe'lga aylantiradi		+		+						
41.	II bob o'timlilik va majburlash ma'nosi bo'yicha qaysi fe'l bobi ma'nosiga o'xshaydi?				+						
42.	ي bilan boshlangan fe'ldan qaysi fe'l bobi yasalmaydi?							+			
43.	Ismdan yasalgan fe'l shu ism o'zagi anglatgan ma'noga loyiq ish-harakatni bajarilishini		+								
44.	Ismdan yasalgan fe'l ba'zan mazkur ism o'zagi anglatgan xususiyatdan xolos bo'lish ma'nosini anglatadi.					+					

CHizmadagi xonalarning arabcha nomlarini to'g'ri joylashtiring

غرفة الجلوس	مكتب	غرفة النوم	غرفة الاطفال
	مطبخ	حمام	دورة مياه

Bu usuldan talabalarning esda olib qolish qobiliyatlarini sinashda foydalaniladi. Bir marta ushbu chizma talabalar e'tiboriga havola etilgandan so'ng, ulardan xonalarning joylashgan o'rinlarini mazkur chizmadagidek doskaga yoki daftarlariga chizib va arabcha so'zlarni yozib berishlari so'raladi.

YAngi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashda qo'llash uchun mashqlar

Quyidagi so'zlar qaysi jins kategoriyasiga taalluqli?

So'zlar		Muz.	Muan.	So'zlar		Muz.	Muan.
ام	Ona			إذا	agar		
خليفة	xalif			استاذة	ustozlar		
حامل	xomilador			ياء	yoy		
مريم	Maryam			مدينة	shahar		
الف	alif			ذكرى	yodga olish		
نكحة	xotinboz			تلامذة	o'quvchilar		
يد	qo'l			دنيا	dunyo		
مصر	Misr			صحراء	sahro		
ولد	bola			كبرياء	iftixor		
بغداد	Bog'dod			كلاب	itlar		
قریش	Quraysh			مدن	shaharlar		
علامة	alloma			اكواب	stakanlar		
اذن	quloq			بئر	quduq		
ذراع	bilak			ارض	er		
قدم	oyoq			شمس	quyosh		
معاوية	Muoviya			حرب	urush		
ريح	shamol			نفس	o'z		
فردوس	jannat			كسلى	yalqov		
جحيم	do'zax			عطشى	chanqoq		
كان	bo'lmoq			أعمى	ko'r		
ان	xaqiqatan			صغرى	eng kichik		
ما	nima			رجل	erkak kishi		

فرق أسماء المذكر والمؤنث

أرض – بيت – بئر – قوس – شمس – رأس – فأس – عمر – عصاً – عقرب – كرش – منزل – يمين – نار – اليمن – سوريا – الكويت –

السودان - نفس - سماء - سن - خمر - أرنب - ابن - أخت - قمر - سقر - سوق - نعل - ورك - عروس - طريق - منهب - ربح -
كتاب - دار - حزب - حرب - جحيم - جبل - حارس - صحراء - ذكرى - رجل - عين - العرب - خليفة - يد-معاوية -حامل-علامة-
نكحة

مؤنث	مذكر

Quyidagi soʻzlar qaysi soʻz turkumiga xosligini toping

	Soʻzlar	الإسم	الفعل	الحرف
1	سمع			
2	في			
3	خمس			
4	اقترب			
5	أل			
6	أمام			
7	إن			
8	مترجم			

Sinonim soʻzlarni toping

دری	ذهب	عاد	حضر	نال	
					أعطى
					وصل
					توجه
					عرف
					رجع
					...

Antonim soʻzlarni toping

	Bedor bo'lmoq	Olmoq	Qaytmoq	Himoya qilmoq	Sevmoq
Bermoq					
Bostirib kirmoq					
YOmon ko'rmoq					
Uxlamoq					
Bormoq					

Bunday usuldan foydalanish qoidalari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tushuntiriladi. O'quvchi yuqorida berilgan so'zlarga zid ma'no anglatgan chap tomondagi so'zlar ro'parasiga plyus belgisini qo'yishi kerak. Keyingi chizma va jadvallardan foydalanish qoidasi ham shunday bo'ladi.

الاسماء الستة - 6 ta o'ziga xos so'zlarni to'g'ri turlang

النصب	الجر	الرفع		
			اب	ota
			اخ	aka/uka
			ذو	sohibi, egasi
			فم	og'iz
			حم	qaynota
			هن	narsa

Mos so'zlarni belgilang

اسم المهن	اسم الآلة	اسم الزمان	اسم المكان	So'zlar
				مدخل
				ممسحة
				مكنسة
				ثلاجة
				مهندس
				لحام
				طيار
				فلاح

موعد				
مسجد				
مغرب				

Birlikdagi soʻzlarga mos siniq koʻpligini toping

Soʻzlar	نوافذ	شبابيك	أبواب	أقلام	مفاتيح
شباك					
نافذة					
باب					
مفتاح					
قلم					

Namunaga qarab fe'llarning tuslanish zanjirini yozing

HKZ majhul	Oʻtgan zamon majhul	بىلەن bilan	لم bilan	Amrning inkori	am r	Sifatdoshning darajasi		masda r	HK Z	Fe'l
						majhul	aniq			
يقال	قيل	لن تقول	لم يقل	لا تقل	قل	مقول	قائل	قول	يقول	قال
										نام
										سار
										نال

Fe'l boblarining “toʻgʻri” va “majhul” (oʻzlik) maʼnolarini anglatuvchi qoliplari oʻrtasiga chiziqlar torting

Qanday fe'llar toʻgʻri fe'llar deyiladi? Agar fe'l boblari tarkibida “إست/إن/ت” prefikslari boʻlmasa, ular majhullikni anglatmaydi va toʻgʻri fe'llar deyiladi. Agar fe'l boblari yuqoridagi prefikslar yordamida yasalgan boʻlsa, bunday fe'llar majhul (oʻzlik) fe'llar deyiladi.

Toʻgʻri	فَعَلَ
	فَعَّلَ
	فَاعَلَ

Majhul (o‘zlik)	أَفْعَلْ
	تَفَعَّلْ
	تَفَاعَلَ
	اِنْفَعَلَ
	اِفْتَعَلَ
	اِفْعَلَ
	اِسْتَفْعَلَ

Fe'llarning qaysi bobga tegishligini aniqlang

	Fe'llar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	انفعل										
2	تفعّل										
3	استفعل										
4	افتعل										
5	فاعل										
6	فعل										
7	تفاعل										
8	فعل										
9	أفعل										
10	أفعل										

Quyidagi _____ fe'lini boblarga qo'yib chiqing

	o'tgan zamon		Hozirgi-kelasi zamon		Buyruq mayli	Fe'ning ma'nosi	Fe'ning masdari	Sifatdosh	
	aniq	majhul	aniq	majhul				aniq	majhul
I									
II									
III									
IV									
V									
VI									
VII									
VIII									
IX									
X									

الجملة الفعلية

	إذا الفاعل...	موقف الفاعل والفعل	تبعية في:
1	اسم عاقل اسم غير عاقل (1,2)	فعل + الفاعل	جنس
2	اسم عاقل اسم غير عاقل (1,2)	الفاعل + فعل	جنس وعدد
3	اسم غير عاقل (1,2)	فعل + الفاعل / الفاعل + فعل	غائبة
4	ضمير	(الفاعل) فعل	جنس وعدد

Quyidagi jadvalni hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan to'ldiring

O'tgan zamon fe'li	هو	أنا	هم	هي	نحن
حمل					
ضحك					
شرب					
دخل					

Fe'l mayllarini aniqlang

Fe'llar	Aniqlik mayli	Istak mayli	SHart mayli	Buyruq mayli	Kuchaytirma mayl
أَنْ يَفْعَلَ					
إِنْ تَفْعَلَ					
لَنْ يَفْعَلَ					
يَفْعَلَنَّ					
كَيْ يَفْعَلَ					
لَوْ يَفْعَلُ					
لِكَيْلَا يَفْعَلَ					
لَنْذَهَبَ					
لَا تَفْهَمْ					
لَمْ يَقُلْ					
يَفْعَلْ					

Quyidagi jadvalni to'ldiring (buyruq mayli)

انتن	انتم	انتما	انتِ	انتَ	O'tgan zamon fe'li
					ذهب
					تحدث
					علم
					استعمل
					كان
					سابق
					تبادل

O'quvchi-talabalarni o'ylashga-mulohaza

qilishga chorlovchi mashqlar

Quyidagi namunalarga qarab so'z birikmalarini davom ettirib yozing.

Namuna:

جريدة جديدة من الجرائد الجديدة

رجل مفيد من الرجال المفيدين
طالب عربي من الطلاب العرب
شاب روسي من الشباب الروس

مدرس جديد من ..
سبورة دراسية من ...
حفلة كبيرة من ...
صحة قوية من ...
كلية أدبية من ...
جامعة اسلامية من ...
ساحة واسعة من ...
يوم جديد من ...
اسم حسن من ...
صورة ملونة من ...
حي قريب من ...

مدرسة عربية من ...
مسرح مشهور من ...
مكان مريح من ...
مصنع كبير من ...
كرسي صغير من ...
مفتاح جديد من ...
مطعم مريح من ...
دفتر نظيف من ...
طالب ذكي من ...
نائب مهم من ...
مترجم ماهر من ...
موظف كبير من ...

Quyidagi "...lardan biri" ma'nosini anglatuvchi iboralarga mos keladigan tarjimasini chiziqlar bilan birlashtiring

Katta zavodlardan biri	أحد الطلاب العرب
YAngi do'stlardan biri	إحدى الطالبات السودانيات
O'rta maktablardan biri	إحدى المصانع الكبيرة
Eski darslardan biri	إحدى المدن الشرقية
Uzun qalamlardan biri	أحد الأصدقاء الجدد
CHet el shaharlaridan biri	إحدى الطالبات الماهرات
YAngi daftarlardan biri	إحدى اللغات الأجنبية
Tirishqoq qizlardan biri	إحدى المدارس الثانوية
Arab talabalaridan biri	إحدى الأقلام الطويلة
Sudan tolibalaridan biri	إحدى المدن الأجنبية
SHarq shaharlaridan biri	أحد الدفاتر الجديدة
Faol o'qituvchilaridan biri	إحدى البنات المجتهدات
CHiroyli tillardan biri	أحد المعلمين النشطاء
Zo'r poytaxtlardan biri	إحدى اللغات الجميلة
Kambag'al dehqonlardan biri	إحدى الدروس القديمة
Mohir tolibalardan biri	إحدى العواصم الرائعة
CHet tillaridan biri	أحد التلامذة الصغار
Kichik o'quvchilardan biri	أحد الفلاحين الفقراء
O'zbek qizlaridan biri	إحدى الفتيات الأوزبكيات
CHet ellik kishilardan biri	أحد الرجال الأجانب
Mohir ustoz (ayol)lardan biri	إحدى الأستاذات الماهرات
Kutubxona kitoblaridan biri	إحدى كتب المدرسة

Quyidagi "...lardan biri" ma'nosiga to'g'ri keladigan "ulardan biri" iborasini chiziq bilan birlashtiring

Qalamlardan biri-ulardan biri	واحد من الأقلام – واحد منها
Qizlardan biri- ulardan biri	واحدة من الفتيات – واحدة منهن
SHaharlardan biri- ulardan biri	واحدة من المدن – واحدة منها
Qalamlardan biri- ulardan biri	قلم من الأقلام – واحد منها
Dehqonlardan biri- ulardan biri	فتاة من الفتيات – واحدة منهن
Do'stlardan biri- ulardan biri	مدينة من المدن – واحدة منها
Qizlardan biri- ulardan biri	واحد من الفلاحين – واحد منهم
SHaharlardan biri- ulardan biri	صديق من الأصدقاء – واحد منهم

Quyidagi izofa shaklidagi iboralarning to'g'ri tarjimasini chiziqlar bilan birlashtiring

Do'stlardan biri
O'rtoqlardan biri
Parklardan biri
Onalardan biri
Vrachlardan biri
Darslardan biri
Mehmonxonalardan biri
Tillardan biri
Tolibalardan biri
Zavodlardan biri

إحدى الفناديق
إحدى الطالبات
إحدى الدروس
إحدى المصانع
إحدى اللغات
أحد الأصدقاء
أحد الرفاق
أحد الأطباء
إحدى الحدائق
إحدى الأمهات

Quyidagi iboralar o'rtasida farq bormi?

أحد التلامذة الكبار
واحد من التلامذة الكبار
أحد من التلامذة الكبار
إحدى الكلمات الصعبة
واحدة من الكلمات الصعبة
إحدى من الكلمات الصعبة
كلمة صعبة من الكلمات الصعبة

Quyidagi berilgan so'z birikmalarini unga mos kelishiklar bilan chiziqlar orqali birlashtiring

Bosh kelishigi

إن أطباء نشطاء
عند أطباء نشطاء
أطباء نشطاء

Qaratqich kelishigi

عند رؤساء أجناب
الطالبات الماهرات
إن طالبات ماهرات
عند أولاد جدد

Tushum kelishigi



فلاحون عرب
إن أولاداً جدداً
إن فلاحين عرباً
أولاد جدد
رؤساء أجناب

Arab tilida jummalarni tahlil qilish

Ma'lumki, barcha tillarda bo'lganidek, arab tilida ham jummalarni sintaktik tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Jummalarni to'liq tahlil qila olish arab tili mutaxassislarining birinchi va asosiy ishi bo'lmog'i kerak. Buning uchun arab tili grammatikasidan etarli darajada bilim va malakaga ega bo'lish talab etiladi. Chunki, arab tili grammatikasini bilgan kishigina jumalarni to'g'ri tahlil qila oladi.

Sintaktik tahlil shunday boshlanadi: gapning sodda (yig'iq, yoyiqligi), darak, so'roq, undov, qo'shma gapligi aytiladi. Murakkab gap bu sodda yoyiq gapdir. Qo'shma gap bir necha sodda gaplardan tuzilgan bo'ladi, qo'shma gap esa bosh va ergash gapdan iborat bo'ladi. Masalan, ergash gapli qo'shma gap ikkita gapdan tuzilgan bo'lib, ular o'rtasida mantiqiy aloqadorlik mavjud.

SHundan keyin har bir gap bo'lagi bosh bo'lak va ikkinchi darajali bo'lak, bosh gap va ergash gaplar tarkibidagi so'zlarning tahlili boshlanadi. Bunda gaplardagi har bir so'z so'roq berish yo'li bilan qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanligi aniqlab olinadi va ularning ostiga tegishli tinish belgilari chiziladi.

Ega	
Kesim	
To'ldiruvchi	
Aniqlovchi	
Hol	
Bosh soʻz	
Ergash soʻz	
Bosh gap	
Ergash gap	

Ismiy jumlani tahlil qilishda ega va kesimning arabcha nomini bilish zarur. Ismiy jumlaning egasi **المبتدأ**, kesimi esa, **الخبر** deb nomlanadi. Quyidagi misollarni yodda saqlang:

المبتدأ	الخبر
الجو	بارد
أنا	معلم
الطير	فوق الشجرة
السلام	عليكم
الإنسان	يموت
هي	سعيدة
الحمد	لله
العلم	نور
الجو	معتدل
الطعام	لذيذ

Fe'liy jumlag a kelsak, uning egasi الفاعل, kesimi الفعل, to'ldiruvchi المفعول به deb ataladi. Quyidagi fe'liy jumalarning tahliliga e'tibor bering va yodlab oling.

المفعول به	الفاعل	الفعل
وجهي	نَتَّ	غسل
الرسالة	نَتَّ	كتب
الدرس	نَتَّ	فهم
الفنجان	نَا	كسر
الرفاق	نَا	ساعد

المفعول به	الفاعل	الفعل
------------	--------	-------

الملابس	الأم	غسلت
الإنسان	الله	خلق
المال	اللص	سرق
القلم	محمد	يشاهد

Demak, fe'liy jumlaning tahliliy chizmasi quyidagicha bo'ladi:

To'ldiruvchi مفعول	+	Ega فاعل	+	Fe'l فعل
------------------------------	---	--------------------	---	--------------------

Endi ismiy jumlaning arab tilida tahlil qilishga o'tsak bo'ladi.

“Talaba auditoriyada o'tiripti” jumlasining tahlili quyidagicha bo'ladi:

التدريس	غرفة	في	جالس	الطالب
مضاف إليه مجرور وعلامة جره الكسرة	اسم مجرور ومضاف وعلامة جره الكسرة	حرف جر	خبر مرفوع وعلامة رفعه الضمة	مبتدأ مرفوع وعلامة رفعه الضمة

Tirishqoq studentlar yorug' auditoriyada o'tirishibdi. – الطلاب المجتهدون جالسون في غرفة التدريس المنيرة

المنيرة	التدريس	غرفة	في	جالسون	المجتهدون	الطلاب
نعت مجرور وعلامة جره الكسرة	مضاف إليه مجرور وعلامة جره الكسرة	اسم مجرور ومضاف وعلامة جره الكسرة	حرف جر	خبر مرفوع وعلامة رفعه الواو	نعت مرفوع وعلامة رفعه الواو	مبتدأ مرفوع وعلامة رفعه الضمة لأنه جمع مذكر تكسير

YUqoridagi jumalarning tahlili va qoidalaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, ismiy jumla bilan fe'liy jumla ega va kesimlarining nomlari o'rtasida farq bor ekan. Ismiy jumlaning egasi **المبتدأ**, kesimi **الخبر** deb nomlansa, fe'liy jumla fe'l bilan bog'liq bo'lganligi uchun kesim ham, ega ham, to'ldiruvchi ham **فعل** o'zagidan yasalgan: kesim **الفعل**, ega **الفاعل**, to'ldiruvchi esa, **المفعول به** deb nomlanadi.

Sodda yoyiq jumla ikkita B.k. dagi ismdan iborat bo'ladi. Bunday gap egasi o'rnida ism ma'nosida keladigan hamma so'z turkumi turishi mumkin.

Arab tilida intonatsiya muhim o'rin tutadi- ovoz egada ko'tarilib, kesimda pasayadi.

Ismiy jumla kesimining qoidasi

Ismiy jumla kesimi quyidagilardan ifodalangan bo'lishi mumkin:

1. Otdan **طشقتد عاصمة، الصبر مفتاح الفرج** - Sabr osoyishtalikning kalitidir, Toshkent poytaxtdir.
2. Olmoshdan **أنت المترجم** - Tarjimon sen.
3. Sifatdan **الشارع عريض** - Ko'cha kengdir.
4. Sondan **البروج اثنا عشر** - Burjlar 12 tadir.
5. Sifatdoshdan **الكتاب مفتوح** - Kitob ochiqdir.
6. Predlogli ot orqali ifodalangan kesim (bunda o'rin va payt ma'nolarini anglatadi) **في** **البيت غرقتان، هو في المدرسة** - Uyda ikkita xona bor, u maktabda.
7. Ravishdan **الخروج غداً، كيف حالك** - CHiqish ertaga, ahvolding qalay.
8. Aniq holatdagi otdan **هذا الرجل هو الكاتب** - Bu kishi yozuvchidir.

9. Ba'zan ismiy jumla kesimini birikuvchi olmosh yoki moslashmagan aniqlovchi aniqlab kelishi mumkin. **هذا كتاب سليم وهذا دفتره** - Bu Salimning kitobi, bu esa uning daftaridir. Bunday jumlalarda kesim ish-harakatning o'rnini yoki predmetning joyini anglatadi. Kitob u erda **الكتاب هناك** -

10. Agar kesimdan oldin **ل** predlogi kelsa, aloqadorlik, tegishlilik ma'nolarini bildiradi. **المصانع للعمال** - Ishchilarning zavodlari bor.

Agar bu jumladagi ega va kesim o'rinlari almashtirilsa, shunday bo'ladi: **المصانع للعمال** - Zavodlar ishchilarga tegishli.

11. **ترايبها كمسك** predlogi yordamida taqqoslash, o'xshatish ma'nosini tushunish mumkin. **المياه كالفضة** - Uning tuprog'i muskusdek, uning suvlari esa kumushga o'xshaydi.

12. Boshqa turli ma'nolarda. **بلاء الإنسان من اللسان** - Insonga keladigan balo tilidandir. **لكل داء** - Har bir kasalning davosi bor.

Ismiy jumlar darak va so'roq gaplarga bo'linadi.

أين، من، ما so'roq gaplarda ega o'rnida so'roq so'zlar ma'nosini kelayapti. Kesim esa ko'rsatish va kishilik olmoshlari orqali ifodalanayapti. So'roq gapning javobida esa, ega kishilik yoki ko'rsatish olmoshi bo'lib keladi. Bunday jumlalarda bosh bo'lak o'zi bilan moslashgan aniqlovchi olib kelishi mumkin.

هذه المدينة جميلة. - Bu shahar chiroylidir.


ما هذا؟ هذا دفتر. - Bu nima? Bu daftar.

ما هذه؟ هذه شجرة. - Bu nima? Bu daraxt.

من هي؟ هي عاملة. - U kim? U ishchi ayol.

من هم؟ هم ضباط. - Ular kim? Ular zobitlar.

Ismiy jumlaning kesimi o'rnida predlogli yoki predlogsiz ot yoki ravish kelishi mumkin



Ismiy jumla egasining qoidasi

Quyidagi holatlarda ega doim birinchi o'rinda turadi.

1. Agar bosh bo'lakning ikkalasi ham aniq holatda bo'lsa:

المعلم صديقي - O'qituvchi mening do'stimdir.

أخوك معلم المدرسة - Sening akang maktab o'qituvchisi.

2. Agar ega so'roq olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa;

من عندك؟ - Sening xuzuringda kim bor?

3. Agar kesim **إنما** yoki **إلا** bilan cheklangan bo'lsa: **إنما زيد شاعر** - Darhaqiqat, Zayd shoirdir.

4. Agar ega kelishiklarda o'zgarmasa: **موسى** - Mustafoni Musoni ko'rdi.

Quyidagi misollarda yuqoridagi holatning teskarisi bo'ladi, ya'ni ega ikkinchi o'ringa o'tib qoladi.

1. Agar kesim o'rnida predlogli ot kelsa: **في الدار رجل** - Uyda kishi bor.

لكل جميل ثواب - Barcha xayrli ishlarning mukofoti bor.

2. Agar gap so'roq yoki inkor so'z bilan boshlansa:

أقيام رجال؟ - Kishilar tik turibtilarmi?

ما كبيرة القرية - Qishloq katta emas.

هناك ميدان - U erda maydon bor.

Misollardan ko'rinayaptiki, agar ega kesimdan keyin kelsa "bor" ma'nosida tarjima qilinadi.

Arab tilidagi ismiy jumlalarda boshqa tillarga o'xshagan fe'l-bog'lovchi yo'q.

Bunday jumalalarda predikativ bog‘lanish – moslashmaslik ko‘rinishiga ega, ya’ni ega al bilan, kesim esa, ال siz turadi. Rus tilidagi arab tili darsliklarida ega-tema, kesim-rema deb yuritiladi. Ismiy jumlada egadan keyin moslashgan aniqlovchi kelsa, u ega bilan jinsda, sonda va ikkalasi ham B.k. da turadi. Ega doim 1chi o‘rinda al bilan turadi va u ot, otlashgan sifat, sifatdosh va shuningdek, fe‘l shaklidagi أحمد يزيد تغلب يحيى kabi atoqli otlar bilan ifodalanadi. M: الطالب مجتهد، هو طالب، أحمد حي، يزيد غائب، - Zayd yo‘q, Ahmad hayot, u talaba, talaba qiz tirishqoqdir.

Quyidagi ikkita jumlani so‘z birikmasiga aylantirish uchun kesimiga ال qo‘shilsa, moslashgan aniqlovchiga-ya’ni so‘z birikmasiga aylanadi.

tirishqoq talaba qiz الطالبة مجتهدة-الطالبة المجتهدة talaba qiz tirishqoqdir.

tirishqoq o‘rtoq الرفيق مجتهد-الرفيق المجتهد o‘rtoq tirishqoqdir.

باب kesimiga ko‘rinishidagi jummalarni ham so‘z birikmasiga aylantirish uchun kesimiga aniqlik belgisi ال qo‘shilsa, moslashgan aniqlovchi hosil bo‘ladi, ya’ni kesim باب predikativlik xususiyatini yo‘qotib, egaga aylanadi.

Bu eshik - الباب هذا

Bunda ham الباب هذا ham aniq holatda turibdi va ikkalasi 4 ko‘rinishda- jinsda, sonda, kelishikda va holatda moslashayapti, shuning uchun uni jumla emas, so‘z birikmasi deb ataymiz.

Qachon ega bilan kesimning o‘rnini almashtirish mumkin? Agar kesim o‘rnida ravish (هنا، هناك) egalik iborolari va predlogli ot orqali ifodalangan kesim kelsa, ularning o‘rinlarini almashtirish mumkin bo‘ladi.

Menda gazeta bor - الصحيفة لي - لي صحيفة - Gazeta menda.

Bu erda daraxt bor هنا شجرة

Daraxt bu erdadir هنا الشجرة

Uyda ravishlari o‘zgarmas shaklga ega. Ularning aniq va noaniq holati bo‘lmaydi. Uyda velosiped bor - في البيت دراجة هناك

aniq holatda turipti, chunki kesimdan oldin kelgan ega doim aniq holatda turadi. Agar bu jumladagi ega bilan kesimning o‘rinlarini almashtiradigan bo‘lsak, bu jumla tekstdagi avvalgi jumalarda o‘rnida biror ega eslatilgan bo‘lsa, ana shunday shakldagi jumla ishlatilishi mumkin. jumlasini hosil bo‘ladi va undagi ega noaniq holatda turibdi. Bunga asos-kesimdan keyin keladigan ega noaniq xolatda turadi, degan qoida.

Misollardan ko‘rinayaptiki, ega birinchi va ikkinchi o‘rinda ham kelar ekan, lekin bunday jummalarni moslashgan aniqlovchiga aylantirib bo‘lmaydi, ya’ni ga ال qo‘shib bo‘lmaydi. Demak, jumla faqat bosh bo‘lakdangina tuzilgan bo‘lsa, sodda yig‘iq ismiy jumla deyiladi. Agar bosh bo‘lakka ikkinchi darajali bo‘lakning (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) biror turi qo‘shilsa, sodda yoyiq ismiy jumla hosil bo‘ladi. Mazkur jumla egasiga هذه moslashgan aniqlovchisi qo‘shilganda quyidagicha jumla hosil bo‘ladi.

هذه الدراجة في البيت uydadir velosiped Bu

sodda yoyiq ismiy jumlaning egasi الدراجة ni هذه ko‘rsatish olmoshi aniqlab kelayapti va bu ikkalasi moslashgan aniqlovchi hosil qilayapti, في البيت esa kesimdir.

Keyingi “Katta bino yangi maktabdir”- البناء الكبير مدرسة جديدة uning egasi محمد Keyingi محمد . Keyingi الجديدة مدرسة uning moslashgan aniqlovchisi الكبير, kesimi esa, مدرسة uning moslashgan aniqlovchisi محمد o‘zi bilan mashhur Muhammad boy savdogardir) (Mashhur Muhammad boy savdogardir) jumlasining egasi محمد o‘zi bilan mashhur moslashgan aniqlovchisini olib kelayapti. Kesim تاجر غني ham moslashgan aniqlovchini olib kelayapti. Eganing ال olmasligining sababi atoqli ot bo‘lganligidir.

Demak, bu jumladagi ega o‘rnida ham, kesim o‘rnida ham moslashgan aniqlovchi kelayapti.

YUqoridagi jumladagi ega va kesimning o‘rinlarini almashtirish mumkinmi? Mumkin, unda bu jumlaning tarjimasini “yangi maktab-katta binodir” - المدرسة الجديدة بناء كبير bo‘lib o‘zgaradi.

Bu jumladagi so‘z tartibi quyidagicha bo‘ladi:



YUqorida eslatganimizdek, arab tilida kesim oʻrnida predlogli ot (في البيت، على الطاولة) kelishi mumkin va u koʻrinishiga koʻra huddi vositali toʻldiruvchi yoki oʻrin holiga oʻxshab ketadi, uni bir-biridan toʻgʻri farqlash muhimdir. Bunda ularga savol berish usulidan foydalanish lozim.

Ismiy jumlada soʻz tartibi eganing aniq yoki noaniqligiga bogʻliq: agar ega aniq (malum) predmetni anglatlsa, u birinchi oʻringa, agar noaniq (nomalum) predmetni anglatlsa, ikkinchi oʻringa qoʻyiladi. Masalan, portfel stolning ustida - على الطاولة محفظة - المحفظة على الطاولة - Stolning ustida portfel bor.

Bazi ismiy jumalarning ega va kesimi bir emas, balki 2-3 tadan moslashgan aniqlovchi olib kelishi mumkin. في هذا الشارع الطويل العريض مدرسة جديدة Bu keng uzun koʻchada yangi maktab bor.

Bu ismiy jumlaning kesimi oʻzi bilan ikkita moslashgan aniqlovchi الطويل العريض olib kelayapti - ikkitasi oʻzidan keyin, bittasi هذا oʻzidan oldin turibdi. الأريكة الجديدة المريحة في "qulay yangi divan keng xonada" jumlasidagi birinchi kelgan ot ikkita, kesim esa bitta moslashgan aniqlovchi olib kelayapti.

Bazan ismiy jumlaning egasi va kesimi ham ikkita va undan ortiq boʻlishi mumkin. Bu stolning ustida gazeta, jurnal va kitoblar bor - على هذا الكرسي جريدة ومجلة وكتب Bu jumla ega va kesimlarining oʻrinlari almashtirilsa, quyidagichi boʻladi: الجريدة والمجلة والكتب على هذا الكرسي - gazeta, jurnal va kitoblar bu stolning ustidadir.

Baʼzan ismiy jumlaning egasi ham, kesimi ham al bilan kelishi mumkin. Bunda aniq holatdagi ega va kesimlar oʻrtasiga 3-shaxsdagi ajratuvchi olmoshi qoʻyiladi.

Bu oʻsha oʻqituvchim - هذا هو معلمي

Bu oʻsha talabalar - هؤلاء هم الطلاب

Bu xona auditoriyadir - هذه الغرفة هي غرفة التدريس

YUqorida taʼkidlaganimizdek, agar ega ham, kesim ham al bilan kelsa, ularning oʻrtasiga ajratuvchi olmoshi qoʻyiladi, lekin bazan 3-shaxs kishilik olmoshi bogʻlovchi sifatida noaniq holatdagi kesim oldida ham kelishi mumkin.

Rus mualliflarining arab tili darsliklarida الأسد قوي jumlasini predikativ - kesimlik xususiyati bor. (yani holatning turlicha boʻlishi) deb, الأسد القوي ni esa, atributiv (yani holatda moslashuv) deb atashadi.

Zayd gʻolib. أبي هو شيخ Otam qari. أبي هو شيخ

Bu ikkala misoldagi "u gʻolib" va "u qari" ismiy jumla shaklidagi kesimdir. Bunda زيد va va زيد ega, غالب va شيخ esa kesimdir, هو esa bogʻlovchi sifatida kelayapti. Arab nahvchilari bu olmoshni mano kuchaytiruvchi - takidlovchi (ضمير التأكيد) sifatida tariflaydilar.

Ega va kesimning ismiy jumladagi oʻrni quyidagicha boʻladi:

	Ega	Kesim	Misollar
1.	Ot	Ot	زيد معلم. Zayd muallim.
2.	Ot	Sifat	النهر واسع. Daryo kengdir.
3.	Kishilik olmoshi	Ot	هو مصور. U rassom.
4.	Kishilik olmoshi	Sifat	هي جميلة. U chiroyli.
5.	Koʻrsatish olmoshi	Ot	هذه طالبة. U toliba.
6.	Kishilik olmoshi	Ravish	هو هنا. U shu erda.
7.	Koʻrsatish olmoshi	Predlogli ot bilan ifodalangan kesim	اولئك في الغرفة. Oʻshalar xonada.
8.	Ega aniq holatda	Kesim aniq	صديقي معلم. Doʻstim oʻqituvchim.

		holatda	
9.	Ega- izofa	Kesim-izofa	معهدنا معهد الاستشراق. Institutimiz-sharqshunoslik institutidir.
10	Ega-otlashgan sifat	Kesim-otlashgan sifat	جميلة مترجمة. Jamila-tarjimon.
11	Ega- fe'l shaklidagi ism	Ot	احمد حداد. Ahmad-temirchi.
12	Ega- fe'l shaklidagi ism	Sifat	يحيى نشيط. YAh'yo faoldir.
13	Ega-otlashgan sifat	Sifat	المستخدمة ماهرة. Xizmatchi ayol mohirdir.
14	Ot	Egalik iborolari	لنا وطن عظيم. Bizda buyuk vatan bor.

Ismiy jumlada moslashuv

1) Agar ega siniq ko'plikda bo'lib, shaxs nomini anglatrsa, kesimi to'g'ri ko'plikda turadi. Masalan, الجوارى سالمة yoki الجوارى سالمات – joriyalar sog'lar.

2) Agar shaxsni anglatadigan yoki anglatmaydigan ega siniq ko'plikda tursa, ko'pincha kesim ham siniq ko'plikda turishi mumkin. Uning asosi mustahkamdir. الرجال – قواعد رواس. Kishilar karomatlidir.

3) كل va جميع dan keyin jamlovchi ot kelib, q.k. da tursa, kesim oxirgi so'z bilan moslashadi. كل نفس تلقى عقبه أعمالها – har bir kishi o'z qilmishining oqibatini uchratadi.

4) Agar ko'rsatish olmoshi ega o'rnida kelsa, moslashuv “teskari” bo'ladi, yani, ega kesim bilan jinsda moslashadi. هذه كتيبى Bu jumladagi ega, هذه esa kesim o'rnida kelayapti. Ikkalasi jinsda va sonda moslashayapti. Bu qoidaning isboti shunday bo'ladi: bu erda eganing muannas jinsda turishi kesimining muannas jinsda turganligidandir. Uning aksi emas.


هؤلاء أصدقائي - Bu mening do'stlarim jumlasidagi هؤلاء ega, أصدقائي kesimi bilan moslashayapti. Demak, bu ikkala misollarda ega kesim bilan moslashayapti (qoidaga ko'ra kesim bilan ega emas) yani, moslashuv “teskari” bo'layapti. M: quyidagi misol ham bu qoidani tasdiqlayapti.

هذه مدرسة وهذا بيت - Bu maktab, bu esa uy.

Izoh: Bu erda yuqoridagi qoidaning tasdig'i bo'layapti, yani, ko'rsatish olmoshi هذا ega, بيت kesimi bilan moslashayapti. Haqiqatdan ham, ko'rsatish olmoshi-ega, kesimning jinsiga qarab muzakkar jinsda turibdi.

هو جميل. ko'rinishidagi ismiy jumlarlar predmet, shaxs, voqea xususiyatini anglatishda ishlatiladi. Mazkur konstruksiyadagi ega kishilik olmoshi orqali, kesim esa sifat orqali ifodalanayapti. Bunday turdagi jumalarda kesim doim b.k.da va noaniq holatda turadi.

هذا shaklidagi so'z birikmalari konkret-aniiq, malum predmet yoki shaxsni atash uchun ishlatiladi. Ko'rsatish olmoshi هذا otdan oldin kelib, u bilan jinsda, sonda va kelishikda moslashib, moslashgan aniqllovchi hosil qilayapti. Ko'rsatish olmoshining kelishikda turlanishiga kelsak, birlik va ko'plikdagi أولئك، هؤلاء، kelishiklarda o'zgarmaydi, yani, turlanmaydi, ular “qotib qolgan” shaklga ega. Jumlada o'sha ko'rsatish olmoshlari ega, to'ldiruvchi, aniqllovchi bo'lib keladi.



Izofada ko'rsatish olmoshi (agar moslashgan aniqlovchi bo'lmasa) izofadan keyin yoziladi. Ko'rsatish olmoshlari bir xil ko'rinishga ega bo'lsada, ular predloglar va o'timli fellar tasirida Q.k. va T.k. da turishi mumkin.

B.k. Ular bu erdalar – أولئك هنا

Q.k. Bu uydin – من هذا البيت

T.k. Men bu xonani ko'rdim – رأيت هذه الغرفة

Ko'rsatish olmoshlarining ikkilik sondagisi ikki kelishikda turlanadi.

B.k. هاذان، هاتان، ذانك، تانك

Q.k. هذين، هاتين، ذينك، تينك

T.k.

Kishilik olmoshlari B.k.da tursa, gapning egasi bo'lib keladi, q.k.da tursa, birikuvchi olmoshga aylanadi. Masalan:

B.k.	أنا طالب	Q.k.	طالبي
B.k.	هو طالب	Q.k.	طالبه
B.k.	نحن مواطنون	Q.k.	مواطنونا

Agar birikma olmoshlari لكن، كان، أن، إن yuklamariga qo'shilsa, gapning egasi bo'lib keladi.

U biladiki, men ...يعرف أنني

Men o'yladimki, u ...ظننت أنه

B.M.Grandening "Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvещenii" kitobida ismiy jumlarlar mavzusiga زيد حداد، الأسد قوي، هذا ابنه kabi misollar berilgan. Bunda jumladagi ikkita so'z qiyoslanib, ularning biri ega, ikkinchisi (ot yoki sifat bo'lishi mumkin) kesimligi takidlanadi. زيد أبو مريض jumlasidagi زيد ning egaligi malum, chunki u birinchi o'rinda va aniq holatda turibdi, lekin kesim زيد أبو yani bir butun jumladir. Lekin nega "temirchi, unda it bor edi" كلب حداد له jumlasidagi حداد ال siz turibdi, degan tabiiy savol tug'iladi. Huddi shunga o'xshash كلب حي خير من أسد ميت yoki كلب بلا مطر yoki كلب بلا مطر عالم بلا عمل كسحاب بلا مطر yoki كلب حي خير من أسد ميت jumlalarini misol qilib, bundagi كلب va عالم larning alsiz turganligini muallif shunday izohlaydi: agar ismiy jumlaning boshida turgan eganing moslashgan yoki moslashmagan aniqlovchisi bo'lsa, ega alsiz keladi. Bu holat ko'pincha arab maqollarida uchraydi. Quyidagi

عابد (SHaytonga qarshi turishda bitta olim mingta ibodat qiluvchidan kuchliroqdir.) maqolidagi عالم egasi, واحد soni tomonidan aniqlanayotganligi uchun ال siz kelyapti. Demak, eganing moslashgan aniqlovchisi aniqlik belgisi ال ning o'rnini bosadi degan, xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

Бла so'zini عالم sifatini aniqlab kelayapti, ikkinchi jumlada soni tomonidan aniqlanayotganligi uchun ikkala ega ham al olmagan.

Mazkur kitobda ismiy jumlagi misol sifatida Abu Nuvasning sheridan bir parcha berilgan:

أربعة مذهب • لكل غم وحزن
لذيذة تحيى بها • روعي وطرفي والبدن
الماء، الخمرة والبستان والوجه الحسن

To'rtta (narsa) har qanday g'am, tashvish, qayg'uni tarqatadi(ketkazadi), (ular – 4-narsa) lazzatli, ular mening ruhimni, qarashimni (ko'zimni) va badanimni jonlantiradi, u – suv, vino, bog' va chiroyli yuz(chehra)dir.

Bu jumlaning grammatik tarkibini soddalashtirish uchun sher satrlari biroz o'zgartirilsa, quyidagicha bo'ladi:

أربعة مذهب لكل غم وحزن
أربعة لذیذة
أربعة تحيى بها روعي وطرفي والبدن
الماء، الخمرة والبستان والوجه الحسن

Gramatik nuqtai nazardan bu jumlagi ikki tomonlama qarash mumkin:

a) bu ismiy jumlaning to'rtta egasi bor – suv, vino, bog', chiroyli yuz, chunki u B.K.da turipti.

Undagi أربعة so'zi ismiy kesimdir. Qolgan so'zlar kesimni aniqlab kelayotgan aniqlovchilardir. Bu sherni so'zma – so'z tarjima qilganda, shunday mano anglatadi: to'rtta (narsa) har qanday g'am-tashvishni va qayg'uni tarqatadi. (Ular) lazzatli bo'lib, mening ruhimni, qarashimni (ko'zimni) va badanimni jonlantirayotgan (jon bag'ishlaydigan) suv, vino, bog' va chiroyli yuzdir.

b) bu ismiy jumladagi أربعة ning uchta uyushib kelayotgan روعي وطرفي والبدن kabi kesimlari bor. SHerning oxirgi satri egaga aniqlik kiritayapti. Endigi tarjima shunday bo'ladi: Har qanday g'am-tashvishni, qayg'uni (haydaydigan) ketkazadigan narsa to'rttadir, (4-narsa) lazzatli hisoblanadi.(to'rtta narsa) mening ruhimni, qarashimni(ko'zimni) va badanimni jonlantiradi. (Bu, o'sha) suv, vino, bog' va chiroyli yuzdir.

Birinchii kesim مذهب لكل غم وحزن feldan yasalgan sifatdosh (مذهب)ni ل predlogidan keyin kelayotgan غم وحزن aniqlovchilari aniqlab kelayapti, shuning uchun u ال siz turipti, ikkinchi kesim لذیذة dir. Uchinchi kesim – bir butun jumlani tashkil etadi: أربعة تحيى بها روعي وطرفي والبدن

To'rtalasi (بها ular bilan) mening ruhim, qarashim (ko'zim), badanimni jonlantiradi (tiriltiradi).

YOki zikr etilgan B.M.Grandening kitobidan olingan quyidagi sherni (jumlani) misol kilib keltirish mumkin.

ليل وبدر وغصن • شعر ووجه وقدّ

خمر ودرّ وورد • ريق وثغر وخذّ

Tun, oy, daraxt novdasi, sochlar, yuz, qomat.

Vino, dur(tishlar), gullar (lablar) va so‘lak, og‘iz, yuz. Bu so‘zlarning oddiygina ketma-ket kelishi emas, balki u his-tuyg‘uni anglatayotgan gapdir. Bu erda ishtirok etayotgan har bir so‘z kishining his-hayajonini bildirayotgan gap o‘rnida kelayapti.

Feliy jumlani tahlil qilish

Arab tilidagi fellar harakat va holatni anglatadi. Arab tilidagi har bir felning o‘zi bir feliy jumladir. فهم “u tushundi” jumlasining egasi va kesimi bor.

دخل الرجل البيت ثم خرج منه.

دخل الرجلان البيت ثم خرجا منه.

دخل الرجال البيت ثم خرجوا منه.

Misollardan ko‘rinayaptiki, birlikda, ikkilikda va ko‘plikda turgan feliy jumlaning egasidan oldin kelgan kesim, faqat birlikda turadi va ega bilan jinsda moslashadi. Egadan keyin kelgan kesim esa, ega bilan sonda va jinsda moslashadi.

Agar ega shaxsni anglatmaydigan so‘z bo‘lsa, egadan oldin kelgan fe‘l-kesim yuqoridagi qoidaga binoan yoziladi, lekin ko‘plikdagi shunday egadan keyin kelgan kesim birlikda va muannas jinsda turadi. Masalan,

أكل الكلب اللحم ثم هرب.

أكل الكلبان اللحم ثم هربا.

أكلت الكلاب اللحم ثم هربت.

Feliy jumladagi gap bo‘laklarining tartibi quyidagicha bo‘ladi.

Feliy jumlaning kesimi birinchi o‘rinda egadan oldin turadi va eganing qanday sonda turganligidan qat’iy nazar, birlik sonda keladi va ega bilan jinsda moslashadi. Feliy jumlada bir fel ishtirok etgan sodda hamda ikki va undan ortiq fel ishtirok etgan murakkab qo‘shma gaplar – ergashgan qo‘shma gaplar turlari mavjud. Biz quyida mazkur qo‘llanmaning hajmidan kelib chiqib, faqat bazi feliy jumalarning tahlilini berish bilan chegaralandik.

قرأ الطالب النشيط الدرس في الصف يوم الخميس امام رفاقه اطاعة لامر معلمه.

Holat holi	O‘rin holi	Payt holi	Vositati to‘ldiruvchi	Vositasiz to‘ldiruvchi	Eganing moslash. an-chisi	Ega ال bilan	Fe‘l-kesim
لأمر معلمه	أمام رفاقه	يوم الخميس	في الصف	الدرس	النشيط	الطالب	قرأ

Faol talaba darsni (tekstni) sinfdan payshanba kuni o'rtoqlari oldida o'qituvchisining buyrug'iga itoat qilgan holda o'qidi.

يدرس الطلاب الاوزبك اللغة العربية ، و الطلاب العرب يدرسون اللغة الاوزبكية.

O'zbek talabalari arab tilini, arab talabalar esa o'zbek tilini o'rganayaptilar.

خطف الهر ذات يوم جبنة من المطعم و هرب بها خوفا من الناس فتسلى شجرة قريبة من الدار.

YUqoridagi feliy jumlaning tahlili quyidagicha bo'ladi:

Birinchi gapning kesimi **خطف**, egasi **هر**, payt **يوم** **ذات**, vositasiz to'ldiruvchi - **جبنة**, vositali to'ldiruvchi - **من المطعم** **و** teng bog'lovchisi, ikkinchi gapning kesimi - **هرب**, vositali to'ldiruvchi - **بها**, **holat holi** - **خوفا**, vositali to'ldiruvchi - **من الناس**, uchinchi gapning kesimi esa, **فتسلى** (5- bob feli), fa **ف** teng bog'lovchi, vositasiz to'ldiruvchi - **شجرة قريبة**. Bunda **قريبة** so'zi **شجرة** so'zining moslashgan aniqlovchisi bo'lib kelyapdi.

“Mening do'stim menga shu universitetga kirish haqida bu ustozdan maslahat olmoqchi ekanligini aytdi”. Jumlaning tahlili: gapning kesimi (bo'sh fel), **egasi** **صديقي**, **vositali to'ldiruvchi**, **انه** “harf” turkumiga birikuvchi olmosh qo'shilgan, **keyingi gapning egasi**, **modal fel**, **felni istak maylida turishga majbur etadigan yuklama**, **istak maylidagi fel**, **ko'rsatish olmoshi** - **bu erda u vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelayapti**, **predlog**, **دخول هذه الجامعة**, “bu universitetga kirish” to'ldiruvchidir.

وأما اليتيم فلا تقهر، وأما السائل فلا تنهر.

Etimga kelsak, uni yakkalama, gadoyga kelsak esa, uni haydama.

Agar ega va kesim kelishikda o'zgarmasa (turlanmasa), ega kesimdan oldin turadi. Muso **زار موسى الفتى** – bolani ziyorat qildi

Agar inversiya holati ro'y bersa, ya'ni ega **موسى** bilan to'ldiruvchi - **الفتى** ning o'rinlari almashtirilsa, ega **موسى** to'ldiruvchiga aylanadi.

Bola Musoni ziyorat qildi **زار الفتى موسى**

So'z to'ldiruvchi o'rnida kelsa, ega undan keyin keladi. Kimni ko'rding?

من رأيت؟ – “kimni” **so'zi to'ldiruvchidir**.

U nechta kitob sotib oldi? **كم كتاباً اشترى؟**

Bu misolda **كتاباً** vositasiz to'ldiruvchidan keyin ega (kesimning ichida yashiringan) kelayapti, **كم** vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelyapdi, chunki gapning oxirida o'timli fe'l gapning boshidagi “nechta” so'ziga ham ta'sir etyapdi.

أية لغة kesimi “sen bilasan” **تعرف** jumlasida ham oxirgi **أية لغة تعرف؟** Sen qaysi tilni bilasan?

قلت gapning kesimi **vositali to'ldiruvchi**, **لن** jumlasidagi **لن قلت هذا؟** Sen buni kimga aytding? va egasi, **هذا** esa vositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi.

إلى أي منكم أرسل الكتاب؟ - “U sizlarning qaysilaringizga kitobni yubordi?”

الكتاب kesim va ega, **“u yubordi”** **vositali to'ldiruvchi**, **إلى أي منكم** Bu erdagi

vositasiz to‘ldiruvchidir.

Agar ega turli shaxsda bo‘lsa , odatda avval I – shaxs, keyin II – shaxs keladi,

fe‘l esa birlikda yoki ko‘plikda turadi.

“Men va sen keldik” – جئت أنا وأنت

“Men va bola keldim”- مضيت أنا والولد

كنت أنا ورفيقي عند معلمي - “Men va ikki o‘rtog‘im o‘qituvchilarim huzurida bo‘ldim”- (B.Z.Xolidov 132 bet, 52 – mashq)

Arab tilidagi quyidagi hozirgi kelasi zamondagi 5ta fe‘lning oxirgi qo‘shimchalari tubandagi holatlarda o‘zgarishi mumkin:

Agar jumladagi HKZ fe‘li oldida لم va لن yuklamalari kelsa, uning tahlili quyidagicha bo‘ladi:

هو يذهب: فعل مضارع، مرفوع وعلامة رفعه الضمة
هو لن يذهب: فعل مضارع منصوب وعلامة نصبه الفتحة
هو لم يذهب: فعل مضارع مجزوم وعلامة جزمه السكون
الضمة – في حالة الرفع
الفتحة – في حالة النصب
السكون – في حالة الجزم

Quyidagi 5 ta HKZ fe‘lini eslab qoling:

1. أنت	تفعلين	تفعلي
2. أنتما	تفعلان	تفعلا
3. هما	يفعلان	يفعلا
4. أنتم	تفعلون	تفعلوا
5. هم	يفعلون	يفعلوا

Birinchi ustun ن lik fe‘llar, ikkinchi ustundagi ن siz fe‘llar qachon ishlatiladi, degan savolga javob berish uchun quyidagi misollarni eslab qoling.

Sen hech o‘rganmading	أنت لم تدرسي	Sen umuman o‘rganmaysan	أنت لن تدرسي	Sen o‘rganayapsan	أنت تدرسين	II sh. m.s. birlik
Sen ikkalang hech o‘rganmading	أنتما لم تدرسا	Sen ikkalang umuman o‘rganmaysan	أنتما لن تدرسا	Sen ikkalang o‘rganayapsan	أنتما تدرسان	II sh. ikkilik
U ikkalasi hech	هما لم يدرسا	U ikkalasi umuman	هما لن	U ikkalasi	هما يدرسان	II sh. ikkilik

o'rganmadi		o'rganmaydi	يدرسا	o'rganayapti		
Siz hech o'rganmadingiz	أنتم لم تدرسوا	Siz umuman o'rganmaysiz	أنتم لن تدرسوا	Siz o'rganayapsiz	أنتم تدرسون	II sh. ko'plik. m.z.
Ular hech o'rganmadilar	هم لم يدرسوا	Ular umuman o'rganmaydilar	هم لن يدرسوا	Ular o'rganayaptilar	هم يدرسون	III sh. ko'plik m.z.

YUqoridagi misollardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, HKZ fe'lidan oldin kelib, ish-harakatning o'tgan zamonda bajarib tugatilganligini bildiradigan لم yuklamasidan keyin va ish-harakatning kelasi zamonda butkul, umuman, hech bajarilmasligini anglatuvchi لن yuklamalaridan keyin keladigan 5 ta fe'llarning oxirgi harakatlari bir xil bo'lar ekan.

YUqoridagi misollarning birinchi ustunidagi fe'l مرفوع, ikkinchisidagi منصوب va oxirgisidagi مجزوم da turipti.

Birinchi ustundagi fe'llarni shunday sharhlash mumkin:

فعل مضارع مرفوع وعلامة رفعه ثبوت النون (nunning sobitligi)

Ikkinchi ustundagi so'zlar لن yuklamasidan keyin kelib, منصوب dir. Uning sharhi quyidagicha:

فعل مضارع منصوب وعلامة نصبه جزم النون (nunning tushib qolishi)

Uchinchi ustundagi fe'llar لم yuklamasidan keyin kelib, مجزوم bo'layapti. Uning sharhi quyidagicha:

فعل مضارع مجزوم وعلامة جزمه حذف النون (nunning tushib qolishi)

Demak, yuqoridagi 5 ta HKZ dagi fe'llardagi o'zgarishlar quyidagicha: a) ن nunning borligi رفع holatining alomati (bosh kelishikning); b) ن nunning yo'qligi منصوب (istak mayli) va مجزوم (shart mayli) alomati ekanligini anglatayapti.

Fe'liy jumlaning arab tilida tahlil qilish sohasida ham talabalar ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun quyidagi usullardan foydalanib turishlari zarur. Quyidagi fe'liy jumlaning arab tilidagi tahliliga alohida e'tibor bering va uni eslab qoling: أعطى الأستاذ جوائز للطلاب الممتازين - Ustoz a'lochi talabalarga sovg'alar berdi.

أعطى	الأستاذ	جواز	ل	الطلاب	الممتازين
فعل ماض	فاعل مرفوع وعلامة رفعه الضمة	مفعول به منصوب وعلامة نصبه الفتحة	حرف الجر	اسم مجرور وعلامة جره الكسرة	نعت مجرور وعلامة جره الياء، لأنه جمع مذكر سالم

Ustoz talabalardan so'radi: darsni tushundilaringizmi? - سأل الأستاذ الطلاب: هل تفهمون الدرس؟

أعطى	الأستاذ	الطلاب	هل	تفهمون	الدرس
فعل ماض	فاعل مرفوع	مفعول به	علامة الاستفهام	فعل مضارع جمع	مفعول به

منصوب وعلامة نصبه الفتحة	مرفوع مذكر وعلامة جمعه الواو		منصوب وعلامة نصبه الفتحة	وعلامة رفعه الضمة	
-----------------------------	------------------------------------	--	-----------------------------	----------------------	--

Ustoz ayol talaba qizga dedi: darsga kech qolma. – قالت الأستاذة للطالبة: لا تتأخري عن الدرس

الدرس	عن	تأخري	لا	الطالبة	ل	الأستاذة	قالت
اسم مجرور وعلامة جره الكسرة	حرف الجر	فعل الأمر مخاطب مؤنث	علامة النفي	اسم مجرور وعلامة جره الكسرة	حرف الجر	فاعل مرفوع وعلامة رفع الضمة	فعل ماض

Fe'l – kesimning egadan keyin kelishi

Agar ikki va undan ortiq egadan keyin kesim kelsa, u ikkilikda yoki ko'plikda turishi mumkin. Masalan: Bir kun toshbaqa va quyon musobaqalashdilar - سلحفاة وأرنب مرة تسابقا

SHer, tulki va bo'ri do'stlashdilar - أسد وثعلب وذئب اصطحبوا

Men va yigit u erga boramiz - أنا و غلام نمضي إلى ثم -

Birinchi jumlada uyushib kelayotgan ikkita egadan keyingi kelgan kesim ikkilik **تسابقا** sonda turibdi. Ikkinchi jumlada uchta uyushib kelayotgan egadan keyingi kesim **اصطحبوا** ko'plikda kelayapti. Uchinchi jumlada ikkita uyushib kelayotgan egadan (ikkita bo'lishiga qaramay) keyingi kesim **نمضي** ko'plikda turibdi.

Aksariyat arab tili darsliklarida ikkilik sonida tuslanayotgan fe'ning ikkilik, birinchi shaxsi o'rniga – (tire) qo'yiladi, ya'ni fe'ning ikkilik sonining birinchi shaxsi yo'q degan ma'noda. Lekin mantiqan olib qaraganda, ish-harakatni ikki kishi hozirgi kelasi zamonda bajarsa, fe'ning ko'plik soni ishlatilsa, to'g'ri bo'ladi. YUqoridagi misollarda bu fikr tasdiqlanayapti. **نكتب الرسالة** – أنا وصديقي نكتب الرسالة. "Men va do'stim xat yozayapmiz". Bu misolda **نكتب** fe'li ishlatilmasdan qaysi fe'l ishlatilishi mumkin?

SHaxsi noma'lum gaplar

Tabiat voqealarini bayon etishda, bizni o'rab turgan borliqning turli nomlari ega o'rnida keladi.

YOmg'ir yog'di (osmon yomg'irlashdi). امطرت السماء.

Er qorong'ilashdi (zulmatga cho'kdi). اظلمت الارض.

Qor yog'di (dunyo qorlashdi). ثلجت الدنيا. (ثلج الثلج).

Tong otdi. اصبح الصباح.

Unga yaxshi bo'ldi (qalbi orom oldi) طابت نفسه. (طاب نفسا).

Unda xohish tug'ildi. منتته نفسه.

Kishining ichki holati va tana a'zolarining nomlari ega sifatida keladi.

Uning yuragi siqildi. ضاق صدره -
Uning ko'ngli xursand bo'ldi. انشرح صدره -

Egasi noaniq gaplar

أذكروا أن العرب tilidagi egasi noma'lum gaplar أعملوا أن ta'kidlaydilarki, قالوا aytdilar, أن esladilarki fe'llari yordamida, noaniqlik esa, مرء، رجل (har bir kishi, har kishi, qandaydir kishi) so'zlari orqali ham ifodalanadi.

يريد كل المرء أن تعطي مناه - Har bir kishi o'zining xohlaganini berishini istaydi.

أن تعطي, المرء egasi, يريد Bu, istak mayli ma'nosini anglatuvchi jumlaning kesimi istak maylidagi fe'l-kesim, مناه vositasiz to'ldiruvchidir.

Ba'zan "faraz" qilinayotgan ega shu gapda ishtirok etayotgan fe'ldan yasalgan sifatdoshning aniq darajasining o'zi kelishi mumkin.

قال قائل منهم - Ularning biri aytdi.

قال القائلون - Ular aytdilar.

ما سمع السامعون مثله - Hech kim unga o'xshaganligini eshitmadi.

Agar ega shaxsni anglatmasa, undan oldin kelayotgan fe'l-kesim ikkala jinsda ham turishi mumkin.

طلع الشمس = طلعت الشمس - Quyosh chiqdi.

Agar birlikdagi ega muannas jinsda bo'lsa va u egadan keyinoq kelmasa, unda fe'l ikkala jinsda turishi mumkin.

جاء اليوم امرأة = جاءت اليوم امرأة - Bugun ayol keldi.

Lekin ko'p hollarda muannas jinsda keladi.

Agar ega muzakkar va muannas jinsda siniq ko'plikda bo'lsa, uning shaxsni bildirishi yoki bildirmasligidan qat'iy nazar fe'l birlikda va turli jinsda turishi mumkin.

Fe'l-kesimning muzakkar jinsda turishiga misol.

وقال نسوة في المدينة - Va ayollar shaharda dedilar.

Fe'l-kesimning muannas jinsda turishiga misol.

قالت بنو تميم - Banu tamimlar aytdilar.

يشربوها رجال - Erkaklar uni ichayaptilar.

Agar bajarib bo'lmaydigan ish harakatni hamda ularni hisoblashni iloji bo'lmasa, (ular aniq bo'lmasa) fe'lining quyidagi majhul darajasi ishlatiladi.

يقال له... aytdilarki... hikoya qilinadi. -حكي -uni ataladi

Ba'zan aniq darajadagi fe'l biror predlog bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: Ularni jo'natdilar - وجه بهم

سير به - Uni olib ketishdi, u bilan ketishdi

يذهب إليه بطعام. Uning xuzuriga ovqat bilan borishyapti.

سير شهر و يوم. Ular bir oy va bir kun yurishdi.

جيء به - Uni olib kelishdi.

Ba'zan to'liq bir jumla kesim o'rnida kelishi mumkin. Masalan:

الكلام إذا صدر عن القلب وقع في القلب. Agar so'z yurakdan chiqsa, yurakka kiradi.

U (suv m.s.) Furotdan oqib, Dajlaga quyiladigan joygacha boradi.

تجري من الفرات ألى أن تقع في الدجلة

Bu jumlada تجري kesimining muannas jinsda kelishining sababi jumlada ko'rinmayotgan miyah (suvlar) so'zining "faraz" qilinayotganligidandir.

SHart gaplar

Qoida bo'yicha shart yuklamalaridan keyin kelgan fe'l HKZda turishi lozim. Lekin quyidagi misollarda yuklamalar o'tgan zamon fe'llarining oldida kelyapti.

SHart ergash gaplar quyidagi yuklamalar orqali rasmiylashtiriladi.

إن agar, إذا agar, qachonki.

إن لقيته فقل له - Agar sen uni uchratsang, unga ayt!

Agar men millatim yurtida o'lsam, men : o'lim haq, umrbod hayot yo'q, degan bo'lardim.

ولو أني هلكت بأرض قومي لقلت: الموت حق لا خلود -

Agar (qachonki) odamlar shon-shuhratga qo'llarini cho'zsalar, (uzatsalar) u ham qo'lini uzatadi. - إذا القوم مدوا أيديهم إلى المجد مد إليه يدا -

لو لم. Agar biz sening otangga va'da bermaganimizda edi, biz ularni o'ldirgan bo'lar edik. نعد والدك لئنا أهلكناهم -

Agar u o'zi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan (pulni) to'lasa (yaxshi) agar bo'lmasa, sen uning barcha narsalarini "sotasan" - إن دفع ما جهته إلا تبيع جميع أسبابه -

